



XAYOLIMDA

go'zal qol



Halis Karabenli

Adabiy-badiiy nashr

HALIS KARABENLI

XAYOLIMDA GO‘ZAL QOL

“Ilm-ziyo-zakovat”

Toshkent – 2022

UDK: 336.01-10
KBK: 822.033
H 22

Tarjimonlar: Farida Mirzayeva, Alisher Ravshanov

XAYOLIMDA GO‘ZAL QOL

Halis Karabenli.

Mantiq ut-tayr: nasriy bayon/

T.: “Ilm-ziyo-zakovat”, 2022. – 208 b.

Qadrli kitobxon!

Qo‘lingizdagi kitobni mutolaa qilar ekansiz, go‘yoki qahramon tilidan aytilayotgan so‘zlar sizga bema’nidek, tuturiqsiz, jumlarlar o‘rtasida bog‘liqlik yo‘qdek bo‘lib tuyuladi. Ammo unday emas, asar qahramoni ham siz-u bizdek atrofimizda yashayotgan bir inson. Biroq u ichidagi dardlarini, ichki kechinmalarini ro‘y-rost, boricha- aqliga, xayoliga nima kelsa, shularni o‘z holicha tashqariga chiqaradigan, “Odamlar nima der ekan”, deya andishaga borib o‘tirmaydigan bir “surbet”, ammo tom ma‘nodagi bir Oshiq. Oshqlik shu qadarki, shoir aytganidek, ham boshga g‘am, ham ko‘zga nam keltirur. Axir ishq oshiqni ne ko‘yga solishini oshiqlargina tushunadi. Zotan, asar qahramoni aytmoqchiki: “Sevgi – biroz kurashmoq va o‘rni kelganida yaralamoqdir!” Ha, qahramonimiz ham sevgida yaralangan bir telba. Shu bois uning gap-so‘zlari sizga telbanamo bo‘lib tuyulaveradi.

Aminmizki, asarni mutolaa qilish jarayonida siz ham qahramondek oshiq bo‘lasiz, sevasiz-sevilasiz, o‘rni kelsa, telba bo‘lasiz. Axir ishq o‘zingdan voz kechmoq emasmi?!

UDK: 336.01-10
KBK: 822.033

ISBN: 978-9943-8002-0-5

© Halis Karabenli 2022
© “Ilm-ziyo-zakovat”, 2022.

SO‘Z BOSHI

Har tongni odatiy bir kun sifatida boshlardim. Hayotim sira tuganmas bo‘lgan kechagi kun, kelmaydigan ertadan iborat edi. Butun ichki a‘zolarini yig‘lay-yig‘lay chiqarib tashlamoqni istagan va bu haqida jiddiy o‘ylaydigan bir inson edim. O‘zimga sira ham achinmas va ayrim vaqtlarda o‘zimdanda ochiqdan ochiq nafratlanardim. Eng qizig‘i, buni boshqalardan sir saqlashni lozim deb topmasdim.

Odatiy hollarda insonning aqli va qalbi bir xil narsalarni bir paytning o‘zida xohlamaydi deb o‘ylardim. Ammo bu safar bunday emas edi. Qalbim qayerda bo‘lsa, aqlim ham o‘sha yerda, ichi bo‘m-bo‘sh bir vujuddek edim. Qo‘l va oyoqlarimni boshqarayotgan, hayotimni saqlayotgan umuman boshqa narsa edi. Qandaydir bir ichki ovoz: “Ovqatlan, u yerga bor, bu yerda qol, uxla!” – singari buyruqlar berar edi xolos.

Hech narsani xotirlay olmas edim... O‘zgalarning ham meni eslashini xohlamas, xotiramni yo‘qotishni istar edim. Bu aniq men emas edim, biroq o‘zimning qayerda ekanligimni ham bilmasdim. Maqsadsiz edim. Yoki faqat birgina maqsadim bor edi: uning yonida bo‘lmoq... Uni sevmok, uni his etmok, uni quchmok, u bilan uxlamak va uxlayotganida ham yuzining men tomonga qaragan bo‘lishi, u bilan yurmok, u bilan ovqatlanmok...

Ha, hayot faqat shulardangina iborat deb o‘ylardim. Nohaqmidim? Ayni damda ham “Nimadir o‘zgardimi?” – deya o‘z-o‘zimga savol bergudek bo‘lsam, bundan boshqacha javob berolmasligim aniq. To‘g‘ri, u yonimda yo‘q. Ammo uning o‘rni mutlaqo o‘zgarmadi. Ikkimizni ham hayhotday bir bo‘shliqning ichiga qo‘ydim. Mabodo yuzlasha olmasak, buning sababi faqat bu... Zolim podshohlar kabi meni sevvishiga majburlaganimdan uni yo‘qotdim. Ortiq ko‘rolmayman, tuta olmayman va bag‘ringa ham bosolmayman...



Ha, yozmoq istadim,
chunki sabablarim bor edi.

Bir necha ming yildan beri bir joyda muqim turgan toshning qanchalik mustahkamligi kimga ham qiziq?

Kimni quehdi, kimga boqdi?

O'limdan boshqa nimalarga shohid bo'ldi?

Siz bilasizmi, hamma narsaning yoningizdan shunchaki o'tib ketishi nima degani?

Agar qayg'u abadiyligi ustiga singgan bo'lsa, hayot maydonga keltirgan bir toshning mustahkamligi shudir, aslida...

Ilk mag'lubiyatimni bolalikda "Allohim, yulduzlarni juda yuqoriga qo'yibsan, qo'lim yetmayapti!" – deganimda totgan edim. Biroq haqli edi, tushunib yetgandim...

Go'zal narsalar qo'l tekkanda nobud bo'ladi.


Endi kuzdan gapirmoqning ma'nisi yo'q. Bu uzun yo'lda yurar ekanman, yonimdan juda ko'p insonlar o'tib ketdi. Toshlarini tuproqqa ko'mdim, suvlarni ko'kka chiqardim va oppoq qog'ozlarni



tollarga osdim. O'zimdan boshqa hamma narsani
o'z yeriga qo'ydim qaytadan...

Senga qayrilib ham boqmadim.

QUSHLAR





Qarasam, mendan boshqa barcha
o'zini sevgan.

* * *

Qanday qilib, qushlar yolg'ondan
qog'ozlarga chizdilar,

* * *

Qandayin ishondim uchishlariga!



(Yangi alyor)

QAYTISH

Uni har doim boradigan kitob do'konimda uchratgandim. Kitoblarni xuddi menga o'xshab tanlardi: yozuvchisi, muqovasi, ko'p o'qilganligiga diqqat qilardi, bezaklariga emas. Avvalo, kitoblarni qo'liga olar, to'g'ri kelgan biror sahifasini ochar va hidlar edi. Ha, men ham shunday qilardim. Negaki kitoblarning ham insonlardek o'zlariga xos iforlari bo'ladi. Bu ifor go'yoki bir da'vat kabidir. Biror kitobning ilk sahifalari kitobning bo'yni, yakuni esa oyoqlaridir. Yakuniga kelganingda kitob sendan ketmoqqa hozirlanadi. Bunday kitoblar avval boshida qanday qilib "Meni o'qi, men sen haqingdaman. Shunday bir voqealarni boshdan kechirdim, qolaversa, bilishni istaganlaring mening ichimda, meni o'zingdan ayirma", – desalar, so'ngra aynan ular ham nihoyasiga yetganlarida sendan doimgidek ketadilar... Bir xil turdagi yolg'onlar bu, shunday emasmi?

Biroq o'shal onda o'zimni bu tushunchalardan sug'urib olgan va butun diqqatimni uning harakatlariga qaratgan edim. Katta-katta tishlari bo'lgan bahaybat bir mashina qo'limni qisib qolgan hamda daxshatli og'riqdan qutulishni istagandek to'satdan shunday degandim:



Umid qilamanki, qushlarni hurkitib yubordim?

— Qushlarmi? Qanaqa qushlar?

— Dudog'ingiz ustidan necha qush panoh topgan? Necha qush sig'adi unga? Yoki ular ham o'zaro janjallashisharmikan ovozingizga eng yaqin joyda tunamoq uchun? Menga ham joy topilurmi?

— Haddan tashqari jasoratli bir harakat. Yo'qotishdan qo'rqmagan insonlar yoki faqat aqldan ozganlar shunday qila olurlar!

Turgan gapki, u haq edi... Qo'rquv aralash his qilinmagan har narsa borki, tez yakun topadi va qadrini yo'qotadi. Biroz qo'rqmoq lozim: yo'qotmoqdan, ketmoqdan, charchamoqdan va bir xil qolmoqdan... Unga bunday deyishim, aslida, qanchalar qo'rqqanligimni ochiq ko'rsatib turardi. Chunki jasorat, qo'rqoqlik va telbalik orasida juda nafis bir chiziq bor. O'rinsiz jasorat, aniqki, telbalikdir va oqibati qo'rquv bilan birga keladi. Ortingga qayrilib qaraganingda keragidan oshirib yuborganingni ko'rasan. Lekin men o'sha onda qilgan ishim jasorat va qo'rqoqlikning qorishmasi ekanligiga amin edim. Va haqiqat aslo o'zini yashira olmas edi. Ko'rganlarim mutlaqo to'g'ri va men, ehtimol, o'zi ham biladigan narsani uning yuziga aytgan edim, bori shu...



Yuzida sehr bordek edi... Bir bora boqsam, ko'zlarim boshqa joyga boqishni istamas va uni kuzatishdan o'zimni to'xtatib ham turolmasdim. Iforlar orqali boqish bor tag'in: kishining ko'z-lari bilan emas, butun vujudi bilan boqishi. Menga shunday boqardi. Ovozi go'dak tanasidek edi: yumshoq va aql bovar qilmas yoqimli ifor taratardi. Bir ovozning bu qadar maftunkor bo'lishi xayolimga ham kelmagandi. Harakatlarida namoyon bo'lgan asabiylik har qancha oldinga chiqmoq istasa-da, bir karra ovozidagi iforni ham his qilgandim.

Xuddi bir tongda xomush uyg'onib, lekin nega xomush uyg'onganingni bilmaganing kabi. Yuraging tez uradi, qayergadir ketishni istaysan va u yerga borish-bormasligingni hech qanday ahamiyati yo'q. Aslida esa haqiqiy falokat biror joyga ketolmaslik emas, ketadigan hech bir joyning bo'lmasligidir. Ha, albatta, bu asosli bir falokat bo'lardi...

Bu kez ichimdan: "Falak yuziga bir chiziq tortib, bulutlarni yo'q qilaylik. Eshiklarning zanjirlarin uzaylik. Suvga zahar qo'shib, bolalarni tezroq ulg'aytiraylik-da, tugasin, zabt etilsin ortiq qo'llarimiz yetmagan joylar", — dedim...

Nega bu qadar iddaoli jumlar tuzyapman, meni bunday qilishga majburlagan narsa nima



edi? Rostdan ham avvaldan shunchalik jasurmidim? Unday deb o'ylamayman... Ovozim chiqmadi, ammo u go'yo xayolimni o'qidi va:

– Har bir to'xtalish qayergadir olib boradi, aslida... Barcha yo'llar ham shunday boshlanadi", – dedi va davom etdi. – Masalan, bir inson uchun yo'lga chiqadigan bo'lsang, istagan joyingga ketishing mumkin. Ya'ni ketmoq uchun ba'zan to'xtamoq lozim. To'xtagan joying sen uchun yangi bir boshlang'ich bo'lishiga izn berishing kerak. Qayerga borsang ham, to'xtagan joyingni unutma hech. Sen o'zingni unutmasang, hech kim seni unutmaydi.

– Bu kunga qadar seni uchratmaganligim, maqsad tomon bir yoki ikki odimgina og'ishdir, xolos, – dedim va davom etdim. – Xuddi qushlarning ko'zi bilan qaraganingda insonlarning bir qushchalik mitti ko'rinishi va hammaning kichkina chumchuq bilan bir xil o'lehamda bo'lishi kabi. Ya'ni yelka ortidan butun shaharga uchib ketayotgan qushchalik tepadan qaraladi, mening o'ylashimcha... Kulishlaring bir zambarak o'qining panjarasi bo'lmagan ikki qal'a tirgaki orasidan muammosiz o'tib ketib, qayerda portlashini bilolmasligi kabidir... Hozirga qadar o'tgan vaqtni asl yuzini ko'rsatmagunigacha shunchaki hech narsaga o'xshataman xolos... Oldinroq



kelganingda sen ham hozirgacha bu qiyofangni o'zgartirar eding. Agar sen qilmasang, ehtimolki, men shunday qilardim. Nimalar boshlanmoqda yoki umuman biror narsa boshlanmoqdami, bilmayman, lekin o'tmishimga doir ko'p narsaning tugaganligini ko'rmoqdaman.

— Bu gaplaring toqatimni toq qilmoqda. Hozirga qadar hech qachon ikkiyuzlamachilik qilmadim. Asli kim bo'lsam, faqat shunday ko'rindim. Lekin bu jasurligingni biroz bo'lsa-da qadrlayman. Hech yo'q, oldindan o'ylamay, chin yuragingdan gapirmoqdasan...

— Tinimsiz qushlarni o'ylayapman. Ularning yerida ko'zim bor.

— Qaysar odamga o'xshaysan. Qushlar o'rnini egallash o'rniga nega ular bilan birga yashashni o'ylamaysan? Xudbinlikdan boshqa narsa emas bu. Faqat o'zing yashashing uchun boshqa hayotlarni kiprik qoqmasdan yo'qota olishing, bunaqasi ketmaydi axir, o'zing istagan hayotga erishish baxtini qo'lga kiritganingdan so'ng meni ham o'ldirishing mumkin. Hatto, mana shu qilmoqchi bo'lgan ishing meni avvalboshdan o'ldirmoq istagidan boshqa nima ham bo'lishi mumkin?

Dudog'ining chap burchiga kichik bir kulgich yashiringan va faqat kulganida namoyish etardi. "Necha turli ifor taratsang, hammasini bir-bir



o'pmoq istayman", – dedim. Uning gapirgan gapi bilan buning hech qanday aloqasi yo'q edi, ammo men bilganimdan qolmaslikda davom etdim. Haqiqatan ham, endi bu ishim jasoratdan nari, telbalik darajasiga yetgandi. O'zimni go'yoki u menga tegishlidek tutardim. Negaki ko'ksimga sanchilgan bir jarohat o'laroq qolishini istardim. O'tkir jarohatlar bitmaydi. Yuragimda qolishining yagona chorasi shu edi. Yonimda tursa, kun kelib mendan ketadi. Balki bunga majbur bo'lardi, balki xayrlashish vaqti kelardi. Ammo jarohatlar hech qayerga ketmaydi. U sen bilan yashaydi, senga egalik qiladi, aldamaydi, yolg'on gapirmaydi va senga sodiqdir... Qushlarga kel-sak... Ular zotan yuzaki, qayerda panoh topish-masin, oxir-oqibat kelib, ko'ksimga qo'nishadi.

Yuzi doim bo'ynimda turishi kerak edi. Uyimda yurganida oyoq barmoqlari bilan har bir xonaga iforini qoldirar va u tegingan yerlar teginmagan yerlarga "U bu yerda edi", – deya maqtanishardi: zamonga, makonga va menga... Oynaga qaraganimda o'zim bilan birga uni ham ko'rardim. Birga yashamoqqa majbur bo'lgan huzun va baxt kabi ayrilmas juftlik bo'lar edik. Va u chuqur bir nafasdek chiqib ketgach, ichim bo'm-bo'sh bo'lib qolardi...

Bularning barchasini xayolimdan o'tkazmoq



meni ham ortiqcha jasoratlantirar, ham hayajon berar edi. Umid aynan shunday narsa edi, go'yoki bir girdob kabi... Sahrodagi qum botqoqligi singari qadam tashlar-tashlamasimdan meni o'z domiga tortishga harakat qilar va aminmanki, nihoyasida buning uddasidan chiqardi. Muqarrar halokatimni ham ko'rar hamda bu halokatimning tezroq kelishi uchun shoshilardim.

Kipriklarining ustma-ust tushgan yeri — ingichka chiziqdan o'pib, o'sha bahaybat kalitli eshikdan ichkari kirmoq istardim. U ham ko'zlarimga boqar va ehtimol, nimani xohlayotganimni, buning oxiri qayerga olib borishiga qiziqar edi. Aslida, qo'yib bersa-ku, buning uchun o'rtada arzirli sabab ham yo'q edi — qo'llaridan tutib u yerdan tezda uzoqlashmoq istar edim...

Yoniga yaqinlashib yuzimni kitob raxlariga burdim va u hidlagan kitobni olib hidladim. Muqovasiga sira boqmadim. So'zboshisiga hech qiziqmadim va yozuvchisining kim ekanligiga ham ahamiyat bermadim. Faqatgina sotib olishni istagan kitobida nimani topganligini, kitobning uni nima bilan va qanday o'ziga tortganligini bilmoq istardim. Buni bilsam, balki, men ham to'g'ri qadamlar tashlay olar va bir kitob kabi uni o'zimga mahkam tortar edim. Albatta, men va kitoblar orasida juda muhim farqlar mavjud: u



meni o'rganib bo'lgach, uni aslo tashlab ketmas edim...

Ehtimol, hayotda hamma narsa bo'lishi mumkin. Ammo sen ko'rmagan narsa mavhum emas, qo'rqituvchidir. Qolaversa, ortig'i bilan qo'rquv chaqiruvchidir. Faqat yashamoq istaysan... Shu on qarshimda turgan qalb bilan emas, buni juda yaxshi bilaman. Chunki bir qalbgaga yetishmoq, unga teginmoq o'n yillarcha vaqt olishi ham mumkin, bir necha soniyalik vaqt ham...

Eng so'ngida sasi sukunatni kuchli shovqin bilan parchalab yuborgan edi. Og'ir, ammo oxirigacha davom etishini bildirgancha bir qog'ozning qoq o'rtasidan o'tmas pichoq bilan kesilishidek. Yoki bir joyga tushishni ko'zlagan chaqmoq, tushar ekan, ayni shu yerni ko'zlagan boshqa bir chaqmoq bilan birlashib, oqibatda muazzam bir nur maydonga kelgandi. Ovozi ko'zlarimni qamashtirardi. Haqiqiy bir o'lim kabi edi. Bundan avval boshdan kechirganlarim va ko'rganlarim buning oldida faqat va faqat o'limning kulgili tayyorgarligi bo'la olardi xolos. Buning nimaga teng ekanligini anglamoqqa harakat qilardim. Qo'limni yuragimga qo'yar, uni hovuchlar, yuzimdan chiqayotgan otash qaynoviga hech chekinmasdan yuzimni tutar va u muhtasham taftni iliklarimga qadar his etmoq istardim.



Zotan bu har doim ham takrorlanmasdi. Dir-dir titragan soch uchlarimning bolalarcha yig'isi bilan biroz qo'rqib, onasini sog'ingan va onasini quchmoq istagancha kutgan bir falokatni boshimdan o'tkazayotgandek kutar bo'lsam, bu qanday bir falokat bo'lardi — vayronalar ostidan osmonni kuzatib turardim.

— Sen kimnidir baxtli etolmaysan. Insonni qo'yaturgin, hech bir jonzotni ham baxtli qilolmaysan. Masalan, bir muhabbat qushini ham... Ammo qarshingdagi inson seni haddan ortiq sevsa, o'zini-o'zi baxtli qilishi mumkin. Bu bir baxtsizlikdan baxt chiqarmoq yutug'i bo'ladi. Bundan ortig'i emas... Majburiy bir baxt, har lahzasi iztirob beradigan, o'zingni tutib turishga harakat qiladigan insonning qalbini to'xtovsiz ezib-parchalaydigan, ammo hech voz kechilmagan, telba, ahmoqona bir baxt egasi bo'lasan sen... Sen o'zing istagan va bilgan holda aslo kimnidir baxtli qilolmaysan... — dedi...

U shunday der ekan, "Yo'q, adashyapsan!" — deya dudoqlarini, yuzlarini silamoq istadim, ammo darhol voz kechdim. Ehtimol, u adashmayotgandi va, aslida ham, haqli edi. Hech kimni baxtli qilolmasdim. Faqat o'z baxtimni o'ylab, boshqalarni baxtsiz etardim. Ha, biroz o'yga tolib qoldim. Hozirga qadar yuz bergan hodisalarning



nega bo'lmaganiga, kitobga ko'z yugurtirgandek o'z sahifalarimga qarab chiqdim. Ostiga chizgan satrlarimda o'zim bor edim. Chizmaganlarimni esa yetarlicha ko'nglini og'ritgandim. Hozir ham faqatgina o'z hislarimni o'ylar va doimiy qilgan ishimni yana takrorlar edim...

Ko'p sukut saqlamoq, ko'p tinglamoq, yaxshilab tinglamoq va anglamoq insonni bir qadam oldinga chiqaradi. Endi navbat unga kelganidek kutmoq va meni yaxshi tanib olmoqlik bergan barmaylixotirlik bilan men haqimda o'zim bilmagan yoki e'tibor bermagan narsalarni bir-bir yuzimga urar edi.

— Istaganingizcha qiyofangiz ortiga yashirining. Kun kelib oynaga boqasiz va o'z-o'zingizga “Menga nima yetishmayapti”, — deb savol berasiz. Yorug' olamingiz tor kelib qoladi birdaniga.. — dedi va davom etdi.— Buyuk bir portlash ta'sirida avval hamma narsa yo'qoladi, lekin necha yillardan so'ng bo'lsa ham, u yerda yangi hayot boshlanadi. Ayni bir xil bo'laklarni o'zidek bir shaklga keltirmoqning imkoni yo'qdir, ammo yangilari bilan yangi hayot barpo etishingiz mumkin. Sen esa o'z sarqitlaring bilan to'lib qolgansan.. Yuzingda boshqa insonlarning senga ko'rsatgan hech qanday ta'siri yo'q. Har doim hisobli yashagandeksan. Doim o'z bil-



ganningdan qolmasdan, boshqalardan bir qadam oldinda ekanligingni o'ylab, ammo hech o'zingdan boshqasini o'ylamasdan... Bir kuni birovdan sog'lom bir nafas olib, uni qaytarmoq majburiyatida qolasan. Faqat o'sha ondagina ichingdagi xudbinlikdan, bu ahmoqona jasorat namoyishlaridan qutula olarsan va fidokorlik nima ekanligini shundagina anglay olasan... Ko'zlaringdagi pardalar haqiqiy dunyodan juda olisda. Hayotda nimalar o'tmoqda, nimalar bo'lmoqda, nimadir bo'layotgan bo'lsa, nega bo'lmoqda? Shu onda bularni tushuna olding deb o'ylamayman. Bir daryo bo'lsang, bekorga oqib ketasan. Yakuning bordir, ammo yakunim tez kelmasin deya doimo aylanib, o'zingga oqasan. Albatta, bu seni shubhasiz yakundan qutqarib qololmaydi. Yana aytaman, bir kun birovdan nafas olib, uni qaytarmoq majburiyatida qolganingda xuddi o'sha daryo kabi eng yuksak balandlikdan pastga qulab, boshqa bir suvga namoyishkorona qorishib ketasan. Hozir emas... Men sening o'sha shalong yoki qorishib ketadigan dengizing emasman. Ayniqsa, bunday xudbinlik bilan umr kechirgan bir inson uchun aslo yor bo'lmayman ham. Na hozir va na boshqa bir zamon...

Nazirning ichida yig'ilib turgan butun zaharini mena sochib bo'lgandi. Yoki shunda...

AMMAD PARVONIN NOMIDAGI



umidvor edim, tugashi kerak edi bu hol... Bu jasorat namoyishlarini yangi bir kurash boshlamoq uchun qilmagan edim. Hatto bu ishim aynan jasorat ham emas edi, qo'rqardim... Yolg'izlikdan, meni noto'g'ri tushunishlaridan charchagan edim. Insonning o'z-o'zini to'g'ri ifoda eta olishichalik qiyin bir ish yo'q. Har doim go'yoki nimadir noto'g'ri ketadi. Yo vaqt noto'g'ri keldi yoki inson... Bu ikkisining ayni bir onda, ayni bir yerda bo'lishiga qadar yana qanday ajib bir hodisa bo'lishi mumkin? Uning ham "Bilaman", — deb hisoblagan narsalari bilmaganlari uchun ochiladigan eshikdan boshqa bir narsa emas edi.

Uning bu ishi o'ta noto'g'ri bir qarash edi, biroq bunga sabab bo'lgan ham mening o'zim edim. G'alaba qozonmoq qanday narsa bo'ldiki, men unga sira erisha olmayotgan edim. U aytganidek, o'z sarqitlarim bilan to'lib qolgandim, ammo buning sababi kimgadir zarar bersam, mendan ketib qolishini bilganligim uchun edi. Men uchun bu eng buyuk fidokorlik. Yo'q, men qochmas edim. Avval kurashar, keyin esa unga nima bergan bo'lsam, hammasini qaytarib olar va undan menga qolganlarini ham asta-sekin tashlab yuborardim. Xuddi kinolardagidek: politsiya jinoyat ustida qo'lga olgan odamdan to'pponchasini sekin yerga tashlashni buyurganidek, shunday edi... Ularni tashlab yubor-



masam, men ham o'lardim. Nima uchun? Buyuk bir mavhumlik... Hech tushunilmagan, sevilgan va sevgan insondek yashab, dardlarga ko'milgancha o'sha so'nggi kunni o'z-o'zidan kelishini kutardim... Aslo! Ular meni oddiy bir jinoyatchi holiga sololmaydi. Qolaversa, men ham kitoblarni hidlayman va ular bilan birga yashayman. Kitoblar ham bizdan ketadi axir... Bir kitobni juda sevsam va ikkinchi bor o'qimoq istasam, go'yo menga qovog'ini solardi. Nega? Chunki birinchi martadayoq tushunib olishim kerak ekan! Holbuki, men sevganimni takror sevmqlikni sevardim. Doim sevishni xohlayman, qaytadan sevishni... Takror va takror... Umidlar so'nguniga qadar... Bugun ham ilk kundagidek bo'lishi kerak, ertaga ham, keyingi kunlar ham... Shunday bo'lmasa, sevgi o'zini yeb bitiradi. Negaki sevgining ko'zi to'ymasdir. Ko'nikishni yoqtirmaydi. Ko'nika boshlagan zamon ko'zi darhol yo'llarga tushadi. Boshqa bir sevgiga, bundan-da kuchlirog'iga yoki kuchsizrog'iga, nima bo'lganda ham yangilangan bir sevgiga...

— Tugadimi? — dedim.

— Tugashi nimasi? Menimcha, hali endi boshladik...

— Bu bir boshlanishi bo'lsa, u holda nimalardir yuz bersa kerak deb o'ylayman...

— Nega o'limdan bu qadar qo'rqasan? Sira



o'lmaganmisan? Qo'yaver, o'lgan o'lsin. Zaif sevgilar o'zlarini o'ldirishsin.

— Zotan men har doim qiladigan ish ham shudir. Biroq sen meni o'lingacha olib borar darajada parcha-parchalarga bo'lib tashlading.

— Sen boshlading, men esa davom ettirdim. Qo'limdagi ushbu kitob shunday qilishimni istadi, men emas...

— Kitoblar, aslida, shundaydirlar. O'zlariga xos dunyolari va hech o'zgarmaydigan haqiqatlari bordir. Jahlim chiqqanida kitoblarga qarata "Sizlar fashistsizlar", — deya baqiraman. Chunki ularni irqchi deb o'ylayman. O'z tuyg'ularini, sevgilarini va ehtirolarini hammadan ustun qo'yadilar. Umrning eng yaxshisini yoki eng yomonini faqat o'zlari yashaganliklari, yashayotganliklari va kelajakda ham yashashlari haqidagi taassurotni namoyon etishadi, shu xolos... Bu fashistlikdir! Sen ham unga ishonib, meni yer bilan yakson etmoqqa harakat qilding. Ammo men bunga e'tibor bermayman. Men senda yashaydigan qushlarga hasad qilmoqdaman. Ularning o'rnini egallashni istayman, chunki faqat mengagina tegishli bo'lishing kerak...

Qolaversa, men bularning barchasidan charchaganman, tushunyapsanmi? Har tong duch kelgan narsani eng mustahkam joyidan ikkiga buka olar darajada bir kuch bilan uyg'onaman.



So'ngra kech tushgach, ustimda qandaydir hidning o'rnashib qolganini his etaman. Xuddi ishonchsizlik kabi. Bir zumda toshdek bir og'irlik cho'kadi. Ba'zida o'zimga ham xuddi senga ko'rsatgan jasoratim kabi jasorat ko'rsataman. Aniqrog'i, yashash uchun kurashaman. Avvaldan qolgan bir izning ustida yurish bilan hayot kechirib bo'lmaydi, sinadim... Ha. Buni necha martalab sinab ko'rdim ... Teginmoq istaydi inson. Ko'rmoq, his etmoq va quchmoq istaydi... Bir narsani takror yo'qotib, takror topmoq va so'ngra yana yo'qotmoq qanday bir his-a?! Buni ta'riflab berolmayman... Nimalar yoki kimlardir yonimga keladi, ayni o'sha narsalar tag'in ketib qoladi. Kim ekanligini, nima ekanligini bilmayman.

— Sening qo'lingdan kelmagan ishlar mening ham kelmaydi... Men ham ba'zi narsalar uchun ortiq jon kuydirmay qo'ydim. Men ham ortig'i bilan charchaganman. Kitoblardagi dunyolarning haqiqat emasligini bilaman, albat-ta. Biroq haqiqat bilan yuzlashishdan charchadim. Hech qaysi haqiqatdan foyda yo'q. Bugun bu yerda bo'lsam, ertaga qayerda bo'lishim kerakligini bilmayman va o'zimning hech bir yerga mansubligimni his qilmayman. Haqiqatlar bilan kurashmoq o'rniga soxtaliklarning borligiga qarshilik qilmayman. Yo'q! Aslo ularga ro'yxushlik bermayman, faqatgina ulardan saqlanaman,



xolos. Chunki ba'zan saqlanmoq uchun ochiq maydonning o'rtasida turishning o'zi kifoya. Insonlar ko'zlarining oldida turgan narsani ko'rish borasida unchalik ham mahoratli emaslar yoki o'zlari ham shu yolg'onning bo'laklari bo'lganliklari uchun ko'rib ko'rmaslikka oladilar... Nega-ki bir mard ko'tarilib: "Bu yolg'on", — deydi-
gan bo'lsa, bundan-da ko'p g'avg'o chiqadi. Bu sa-
far avvalgidan ham ko'p yolg'on paydo bo'ladi...
Ko'ryapmanki, sen haddan tashqari haqiqatdan
iboratsan va senga teginmoq, seni his etmoq men-
ga unchalik ham xush kelmasligi mumkin. Bu esa
ko'tara olmaydigan yukni yelkalarimizga olishga
sabab bo'la oladi. Nima uchun? Nima uchun yana
qaytadan haqiqat dunyosiga yuz buray? Oxir-oqi-
bat bir yolg'onga sherik bo'ladigan bo'lsak, shun-
cha gapning nima ahamiyati qolardi, gapirsang-
chi?

— Qushlar uchun!

Har bir harfni, har bir kalimani va har bir jum-
lani bir burchakka kesib otdim. Negaki ayni dam-
da gapirishdan biror naf yo'q edi. Ikkimiz ham
parishon edik va yerga sochilgan parchalarimizni
olib o'z joyiga qo'yishimiz kerak edi. Bir butun
bo'lolmasak, har tarafdin har xil ovoz chiqar va
natijada ko'rganlarimiz hamda bilganlarimiz o'z
ahamiyatini yo'qotar edi. Uyga qaytar ekanman,



“Biror narsa kerakmi?” — deb so‘raydigan ayo-
lim o‘sha edi, bunga amin edim. Hozir esa ikkimiz
ham qo‘rqqandik va ichimizda oqayotgan jo‘shqin
suvlarni bir muddat to‘xtatishimiz lozim edi, shu
xolos. Buning uddasidan chiqa olardik.

Ammo sukunat o‘zini darhol bildirishni
xohlaydi. Shunchalik shoshqaloqki, istar-istamas
yana tilga kirgandim:

— Erishmoqchi bo‘lganlaring qanchalik
buyuk bo‘lsa, qiyinchiligi ham shunchalik buyuk
va, albatta, natijalari ham shunday. Bu hayotda
barcha inson ham yo‘qotganlarini topa oladigan
darajada omadli emas... Ba’zi narsalar bosh-
dan bir martagina kechiriladi yoki boshdan ke-
chirmay turib ortga qaytasan. Yarmi shunchalik
bo‘lsa, butunlay boshdan kechirsam, nima bo‘lar-
di deya aqlga sig‘mas bir qo‘rquv his qilasan. Eng
dahshati, his qilingan ushbu qo‘rquv boshqa nar-
salarga bo‘lgan hislaringni ham o‘ldiradi. Boshqa
narsalar ham endi qolmagan. Ularning uzoq-
lashishini ham chorasizlarcha kuzatasan...

Biroz tin olib, uning gapirishi uchun fursat
berdim, biroq u bu safar ham jim edi. Sukunat-
ning bizni asir olishini xohlamasdim. Zotan oraga
cho‘kkan har bir sukutdan so‘ng gapirishga urin-
moq insonni bo‘g‘ib qo‘yadi. Oraga kutilmaganda
bir sovuqlik kiradigandek... Go‘yo butun kalima-



lar keraksizdek... Shuning uchun yana xayolimga ilk kelgan narsani gapirdim va davom etdim:

— Rohat bilan umrguzaronlik qiladigan ayolsan. Hayot sen bilan mazmunli kechadi. Biroq yolg'izlikning senda qoldirgan bir asorati bor-ki (zero, yolg'izlik majburan insonning qo'liga tutqizib qo'yilishi ham mumkin), yolg'izlik seni mustaqil qilib tarbiyalabdi. Bu bir qarashda juda yaxshi fazilat bo'lib ko'rinsa ham, o'z-o'ziga ortiqcha ishonch va mustaqillik, atrofingda bo'layotgan hodisalarni ko'rishingga to'sqinlik qiladi. Hech kimga ehtiyoj sezmayсан. Kuchlisan. Biroq o'zingdan xafa bo'lguningga qadar. Boshqasining seni xafa qilishi bundan keyin juda mushkul ish. Ehtimol, bu tushkunlik ba'zan ortidan yanada yaxshiroq hayotni yetaklab kelishi mumkin. Sen kuchlisan, yana qaytaraman... Va kuch degan narsa aslida siniqdir. Hech kutilmaganda seni yarim yo'lda tashlab ketadi, sen esa buni payqay olishing kerak... Bu ahvolda qachongacha, qayergacha keta olasan? Menga qara! Hayotim bir botqoqlik kabidir. Hamma narsani bir onda yutayotgandekman. Hamma narsa bilan bir vaqtda o'zimni ham... Xo'sh, bu holda qachongacha va qayergacha bora olardim? Hamma botqoqlik ham kun kelib qurimaydimi? O'zini yo'q qilmaydimi? Men yana qancha jasadning o'z boshpanasi bo'la-



man? Hech kimni ko'mmadim shu paytga qadar. Biri oshxonamda, biri mehmonxonamda, yana biri yotoqxonamda yashaydi... Buni ko'ryapman, yashayapman, o'zimni esa oraga tashlayapman...

So'ngra sekin-asta yo'qola boshlayman. Har bir parcham ayro-ayro yerga tushadi va nafratlanib ketaman. Hamma narsadan. O'zimdanda boshlab, eng oxirida yana o'zimga qaytib... Nega-ki buni qabul qilishi kerak bo'lgan faqat o'zimman. "Har bir falokat qayta bir tug'ilishga olib keladi", — degan naqlni yodda tutishga harakat qilaman. Yana bir marta quechmoq istayman. Shu izlarga duch kelmaslik tilagi bilan barmoqlarimila yuzimni qaytadan chizaman. Kechmishim tugamog'i lozim. Hamma narsa vaqti kelgach o'ladi. Zero bu dunyoda hech narsa abadiy emas. Bugun xayolingda ko'p-ko'p bo'lganlar seni ertaga o'zlari tashlab ketadi. Avval ovozi, so'ngra yuzi va nihoyat ifori... Shuncha narsani bilishimga qaramay uddasidan chiqolmadim. Yana aytaman: vaqt hamma narsani o'ldiradi. Biri qarshingga chiqadi, shudir hayot haqiqati va so'ngra kechar eskisi..."

Meni bor diqqati bilan tinglardi. Kitob do'konidagi ovozi bo'g'ilgan musiqa va o'nlarcha insonning qo'llari tekkan, biroq olinmagan kitoblar ham meni tinglar edi. Shuningdek, uning ham butun vujudi jilmayardi. Bilaklari, tizzalari,



yelkalari, butun vujudi... Albatta, bu ajoyib ayol meniki bo'lishi kerak edi. Hali iforini ham to'la-to'kis ola olmagandim. Biroq bir iforni his qilgandan so'ng aqling va qalbingga hukm etmoqni boshlaysan. Voz kechib bo'lmas bir insonmi yoki shunchaki bir havaslik insonmi, o'shanda bilinadi. Unga bunchalar ishonishim juda g'alati edi... Faqat hayotda shoshilayotganlarga meni tushuna oladi. Davomli kechikishdan, hatto ba'zan kechikishning ham kech qolishidan charchagan, zerikkan, endilikda hamma narsani tezroq bajariшни xohlagan insonlarga tushunardi meni... Choyga soladigan ikki qandning qog'ozini bir vaqtda ochgan va o'zini doim charchoq his qilganlar tushunadi. Hayot tugamaydigandek kelib, tezlikda o'tib ketardi... Ammo ko'p narsalar boshdan oyoq umidsizlikdan iborat edi. Faqatgina bir paytlar dadam bilan bayramga deb qilgan bozorliklarimiz go'zal edi xolos. Ilk bayramda kiyib, keyingisiga qadar bir marta ham kiymagan va ikkinchi bayramda menga kichkina bo'lib qolgan o'sha bayram liboslarim go'zal edi...

Nafasini o'pkamdan olishini xohlardim, buni avval ham aytgan bo'lishim mumkin. Biroq bu kuchli istak xayolimga tez-tez kelardi. Aniqki, xudbin edim. Ammo barcha insonlar ham oz bo'lsa-da shunday emasmi? Hamma o'z haqiqati bilan yashaydi va buning boshqa bir kishi uchun



zarra qadar ahamiyati yo‘q. Yuziga boqib, unga tishlarim orasidan “Ayolim”, — deyishni xohlardim. Har doim istayman, mangu istarman... Bu hayajon yo meni shu yerda yeb bitirar, yoki vaqtning aslida teskari bir borliq ekanligini takror isbot etardi. Oxir-oqibat o‘limga borsak ham, boshqa bir hayotga talpinganimizdek bu ham bir xil turdagi teskari borliq hisoblanardi. Yo yashash, yo o‘lim, yoki o‘lim bilan yashamoq...

Inson ba’zida go‘yoki o‘z ichiga nazar tashlamoqqa qo‘rqadi. Ichida ko‘tarilgan katta qichqiriqlar borki, ular insonga bir necha buyruqlar beradi: “Uning yoniga bor, u bilan suhbatlash, uni ol, u meniki, u bizniki...”

Ko‘ksimdagi og‘riqlarning sababchisi — yuragim sira ham tin olishni bilmasdi... “Axir, hamma narsa o‘rtada! So‘zlaring va xayollaring tuyg‘u kabi bir narsa bo‘lsa... Uni darhol bag‘ringga bos!”, — derdi qalbim... Qalbim o‘zini go‘yo ortiq yo‘qotadigan narsasi yo‘qdek tutardi.

Kimnidir uchratganingda uning chehrasiga bo‘lgan e‘tiboring bir muddatdan keyin tugaydi. So‘ngra yurishiga, harakatlariga qaraysan va uni haqiqiy ma’noda o‘rganishni boshlaysan. Bu doimiy bir haqiqatning o‘zidir. Ayni damda boshqacha bir nazar bilan qarardim. Qalbim bularni menga eslatishiga zarurat yo‘q edi, biroq men-



ga ushbu xotiralar biroz bo'lsa-da, kuch berardi. Unda nimani ko'rayotgan bo'lsam, birinchi marta bo'lishiga qaramay allanimalarning takrorlanishiga o'xshardi. Barmoq izlari kabi takrorlanmas va o'ziga xos... Kichkina ko'ringan, ammo aslida ahamiyat kasb etgan narsalarni farqlay boshladim. Olma kabi yonoq suyaklaridan tortib, bo'g'zida bilinar-bilinmas bo'lib turgan Odam olmasiga qadar ko'rar va ahamiyat berardim.

U hali gapirmay turib:

— Ovozingda bir qiyofa bor, — dedim.

— Men insonlarning ko'pchiligiga ishonmayman. O'zim ishongan kam sonli insonlarimning aksariyati juda ko'p odamlarga ishonmasligim borasida meni nohaq deb bilishmaydi hamda va o'z o'rinlaridan doim xavotirda bo'ladilar. Hech bir insonning yuzi yagona emas. Atrofimda doimo ustma-ust qo'yilgan yuzlar bor. O'zlarini yas-hirish borasida juda mahoratli yoki o'zlari haqida shunday o'ylashadi. Qolaversa, ovozimda bir qiyofani ko'rishing juda g'alati. Hozirgacha sira ham bunday narsa xayolimga kelmagandi, — dedi.

“Og'zimizdan chiqqan har bir so'zning yuzi bor. Har bir ovozning, har bir boqishning va hatto teginishning yuzi bor. Yaqinda bir qo'shiqning tinglar ekanman, ayni shu narsalarni his etgandim. So'zi bo'lmagan bir skripka musiqasi edi.



Ko'zlarimni yumdim va har bir notasida yonimdan o'nlarcha qiyofalar o'tdi. Biri kular, biri yig'lar, yana biri sog'inari edi... Ular yonimdan o'tar ekan, o'zim istaganni tutdim va yonimga oldim. Ularning orasidan eng ko'p sog'inchli yuzlarni sevdim. Yig'layotganlar haddan tashqari chorasiz va umidsiz ko'rinardilar. Kulayotganlar hayotlaridan xursand edilar, faqat sog'inganlarga haqiqiy yashamoqda edi.. Ancha oldin ish uchun bir shaharga borgandim. Janubdagi shahar edi. Dengizning shundoqqina yonida edim. To'lqin ovozlari qulog'imga kirar va dengiz hidini sezardim. So'ngra yulduzlarga boqdim va juda uzoqlarga ketdim. Boshqa qaytmaslik istagi bilan ketdim... Nimanidir sog'inardim. Shunchalik kuchli sog'ingandimki... Hozir bularni senga nima uchun gapiryapman? Sog'inish shunday... Sog'inish juda og'ir bir tuyg'u. Ham nimadir yuz beradigandek, ham bo'lishi imkonsizdek. Xuddi eng oddiy yiqilishda ham suyaklari sinadigan insonlar bor-ku. Menimcha, bunga "shisha-suyak kasalligi" deyiladi... Men ham shundayman. Tez sinaman. Bu isyonkor xarakterim butun xafagarchiliklarimni yashirish uchun. Yo'qsa, hech narsaga bardosh bera olmayman, o'zimga ham... Va, bilasanmi, inson o'zini juda osonlik bilan xafa qiladi. Chunki boshqa bir inson tomonidan ozorlanishdan charchaydi. Meni hech bir inson xafa



qilishini ortiq xohlamayman. Nima bo'lsa, ham o'zimdani bo'lsin. Chilparchin bo'lib ketamanmi? Men bundan keyin o'zimni parchalarga bo'lib tashlayin...

— Haqlisan... Qo'shiqni teskari kuylamoq, yig'lash kerak bo'lgan joyda kulmoq va xizmatimdagi bir necha la'natlar... Mening ham hayotim shunday narsalardan iborat... Hamma bilan birdek bo'lishni sira xohlamadim. O'zim xohlaganimda kulishni, xohlaganimda yig'lashni istadim, lekin bo'lmadi. Chunki istakning o'zi yetmas ekan. Nimanidir rejalashtirasan va u amalga oshmay qolganida mudhish bir tushkunlik va og'riqqa duchor bo'lasan. Ayni paytda katta bir ishonchsizlik paydo bo'ladi. Keyin esa doim takrorlanadigan og'riqlar... Shuning uchun ham qo'l yetmas bo'lishni afzal ko'raman.

— Aslida, bizni tashvishlantiradigan ko'p narsa bor... Masalan, yog'ochlarni sevishadi, ammo dor yog'ochlarini sevishmaydi. Qushlarni sevishadi, ammo gap boyqushga kelganda darhol og'iz burishadi. Yoki biz ham shundaymizmi? Mukammallik qidirib eng ko'p xatoni biz qilyapmizmi? Ehtimol, ko'rmaganlikka olish eng katta lutfdir. Boshqalarning tutumi to'g'ridir, balki... Ba'zi narsalarni nazarga olmaslik kerakdir. Ya'ni e'tiborsiz yashamoq lozimdir, kim biladi?



— Insonlar o'zlari qo'rqadigan yoki maftun bo'ladigan narsalarini o'zlariga Tangri qilib olganlar. Ba'zan quyosh, ba'zan oy yoki yana boshqalari... Yoki o'zlari tasavvur etgan, uydirma narsalarini... Xo'sh nima bo'ldi—yu, hech kim ishqni Tangri deb bilmadi? Butun moziy bo'yicha shunchalik darajada odatiy tuyg'umidi ishq? Ya'ni bir tanaga qamalgan ishqdan so'z aytmayapman. Sof bir tuyg'u o'laroq... Yeyilar, ichilar va osonlikcha yetishilarmidi doim? U bu dunyoda holda ishqchalik oddiy boshqa yana nima bor?

— Biz oddiylashtiryapmiz. Hammaning tili-da ishq aylanayotganligiga e'tibor berma. Ishqni ham bu holdan mamnun deb o'ylamayman.

Qayerga ketyapmiz, qayer biz tomonga yaqinlashmoqda yoki biz yana qancha ilgarilab keta olardik? Shu damda bo'lgan narsalar nima edi? Egasi o'lib, ko'chada qolgan bir mushukdan farqimiz yo'q edi. Menimcha, tinchimiz buzilishidan xavotirlanardik. U hech bo'lmaganda shunday edi. Ko'rinib turibdiki, eng boshidan beri jur'atli bo'lgan o'zim edim. Ora-sira kulib turgan yuzi endi hech kulmas edi. Ikki dudog'i bir-biridan ayrilib, o'sha kichik g'amzasi yana ko'rinish berishini istardim. Albatta, bir necha kitob olib, ularning orasida yo'qolib qohshni istagan bir insonning ichki kechinmalarini ochib bergunim-



ga qadar uning uchun hammasi joyida edi. Bizga ko'proq vaqt kerak edi, ammo buni undan qanday so'rardim?

Albatta, sinab ko'rib, istab ko'rib... Ehtimol, birozdan keyin qilgan ishim hammasiga nuqta qo'yar. Qolaversa, aytayotganlarimning hech biri hali yuz bermagan edi. Mehmonxonamdagi, oshxonamdagi va yotoqxonamdagi boshqa jasadlar orasidan u ham joy olardi. Bu borada g'oyat ustomon ekanim sir emas.

— Bugun uchun yetarlicha asablarni boy berdik. Oq bayroq ko'tarsam, boshqa bir kun shu to'xtagan joyimizdan davom ettira olamizmi? — dedim...

— Yolg'izlikning bosqichlari bordir. Inson birdaniga yolg'iz bo'lib qolmaydi va birdaniga bu yolg'izlikdan qutula olmaydi. Ma'lum bo'lmagan yolg'izliklarning esa cheki yo'qdir. Seni tanimayman. Yolg'izliging borasida ham aniq fikrim yo'q. Menimcha, bu suhbat shu yerda qolsin. Sen esa o'zingga bir kitob tanla va u kitob senga nelar so'ylaydi, ularga quloq sol. Kel, sen bilan bir xil kitob sotib olaylik... Yana takror ko'rishmog'imiz uchun katta bir tasodifga ehtiyojimiz yo'q. Zero hozirgina ana shu tasodifga oid huquqimizdan foydalanib bo'ldik. Ehtimol, mendan telefon raqamimni so'rarsan. Lekin bunday bo'lmaydi. Ovozingni tanib oldim. Sen ham mening ovozimni



tanib olding. Hammasidan avval ovozlarni sog'inmoq kerak. Ovozingni sog'insam, yana shu yerda bo'laman. Balki, o'shal damda yuragingdan menga qarab uzangan qo'lni tuta olarman... Ammo hozir emas. Aslo hozir emas... Avvalambor, yolg'izliging sendan nima istayotganini angla. Bir ehtiyoj natijasida emas, haqiqatligiga ishongan biror ishqiy munosabatga ehtiyojing bormi, oldin shuni o'zing uchun aniqlashtirib ol. Ichingdan kechayotgan hissiyotlarning senga tegishli-tegishlimasligiga amin bo'l. O'z qobig'ingni sindir va shu holatda boshqa bir insonning ichiga ko'z tik. Qadam tashlamoq oson, joyingda turmoq mushkuldir...

— O'ylashimcha, "Keladi" degan narsalari osonlikcha kelmaydi. Yoki osonlikcha kelganlari to'g'ri kelmagan bo'ladi. Gaplaringdan shuni tushundim. Tamoman umidimni so'ndiradigan narsalar aytmading. Hatto shu gaplaring bilan o'zimni dadil tuta oldim. G'azab bilan emas, hasrat bilan o'ylayman. Ortiq yerlarga sochilmoq yo'q... Yuragingning urishini sezayotgan bo'lsang, demak, yolg'iz men gapiryapman. Hozir bir kitobni tanla va menga ber. Agar chorlasa, kelasan.

Agar chorlasa, kelaman...



*Kim bilsin, balki,
osmon qushlarning jahannamidir.
Yerda yuraylik biz, qo'llarimdan tut.*

QANOT

Nega hech kimga ishonmayman, qahri qattiqligimning sababi nimada? Chunki hojati yo'q. Yaxshi bo'lib ko'rinmoqning, e'tibor bermayotgandek tutmoqning, o'zimni tiymog'imning hojati yo'q... Qo'llarimga boqib: "Mo'rt narsalar aslida ancha o'tkirdir", — deyman... Qog'ozdek oson bukilib, yerga tushgan shisha kabi darhol kesaman...

Va ichimda uchgan to'liqinli bir qush bor... Qachon qanotlarini quehsam, oyoqlarimni yo'qotaman.

*Hech kimga dardinni ochmayman.
Qalbin sinza ham, o'z ichinga uriladi qanotlarim.
Negaki qalbm allaqachon sinib bo'lgan.*



YOLG'IZLIK

Yolg'iz qoldikmi endi?

So'zlashmaganda chindan ham shunday

bo'larmidi yolg'izlik?

Yolg'izlik — bog'da bir erkak bir ayolni o'par ekan,

kabutar qanotlarini yig'ishtirib yurishidir.

“Moviy devor”

(Haramiylar)

XAYRLI TONG!

Sevishmoq uchun qayerdan boshlashni bilmay turgan ikki o'smir kabi edik. Agar hamma narsa filmlardagidek bo'lsa, avval lablaringdan o'pishim kerak bo'lardi. Biroq dudoqlaring, aniqki, vujuding tugagan joy edi. Yuzining ma'sumiyati, o'z ovozing o'z vujudini titratishi va ko'zlarini maskan etgan o'lik qushlar buning hech ham bunday emasligini ko'rsatardi. Sen qo'rqqoq bir bola eding. Doim ranjatilgan, butun bolalik o'yinlarida hammadan oldin o'yindan chiqqan bir qizaloq



eding. Menga oldinma-кетин yashagan mag'lubiyatlaringdan so'ng uchraganding. Biroq xuddi men kabi duch kelgan bir insonga tutunmoq istarding. Ustiga-ustak o'sha tutingan kishining darhol ko'zga tashlanadigan hech bir xususiyati bo'lmasligi kerak edi. Insonlardan uzoq, ezilgan, tark etilgan va kamida senchalik ketmoqni xohlashi yetarli edi...

Aftidan, bir kishilik o'rindiqqa sig'adigan ikkinchi vujud bo'lmishni istarding. Sen uchun bu sevishmoqdan ham boshqa bir narsa edi. Zotan, horg'in bir vujudning o'zidek horg'in bo'lgan boshqa bir vujudda tin olmog'idek go'zal narsa yo'q edi. Na non, na suv va na tiq etgan tovush istar eding. Yonimda soatlarcha qolarding. Ba'zan dudoqlaringni ming bir kuch bilan o'ynatar va tana haroratlarimiz endi bir xil deya ko'zingni ham ochmasdan tabassum etarding. Men ham senga sira e'tiroz qilmas va yana biroz bag'rimga bosar edim...

Holbuki, ikki vujud birlashgan joyda tana haroratlari aslo bir xil bo'lmaydi... Hatto quyoshdan ajralgan katta bir yulduzdek atrofga yog'du taratardi. Biroq bu haqda gapirmasligini yaxshi bilardim. Biz ikkimiz ham vujudlar tugagan yerda yashardik. To'g'rirog'i, vujudimizni ancha oldin, umuman boshqa yerlarda yo'qotgandik. Hatto vujudimiz ruhimiz ustida turgan yaralardek edi.



Teginadigan bo'lsak, ichimizdan ko'ngilni aynitadigan yiringlar oqardi go'yo. Eslashni ham xohlamaydigan kechmishimiz butun bo'y-basti bilan esga tushardi. O'z-o'zidan, o'tmishda boshdan kechirgan har bir pushaymonlik, har bir sevinch bizni bir-birimizdan uzoqlashtirar edi...

Necha oylar davomida birga bo'lsak-da, na men va na sen yuzimiz, qo'llarimiz va oyoqlarimizdan boshqa hech narsani ko'rmagandik. Yuzing biroz qoramag'izroq bo'lganligi uchun badaningning rangi ham shunday bo'lishi kerak edi, menimcha. Albatta, seningcha ham, yuzim biroz sariq bo'lganidek badanimning rangi ham bug'doy boshog'idan farq qilmasligi kerak edi...

Bularni sirayam tilga chiqarmay, bir-birimizni quchib uxlar edik. Ko'pchilik uchun bu noodatiy holat bo'lishi mumkin. Biroq, avval aytganimdek, vujudidan charchagan insonlar ustilaridagi barmoq izlaridan uyalishadi...

Bu sokinlik bizni sekin-asta biz hech ham bilmaydigan joylarga yetaklardi. Buni "ko'nikmoq" deb atash mumkin. Sevgi demayman, chunki sevgining ichida, biroz bo'lsa ham, nafrat bo'lishiga ishonaman. Boshdan kechirganda bilinmaydi, ammo nafratni alanga oldiradigan juda oddiy narsalar bor. Masalan, rashk... Inson rashk qilganida uning ko'zi hech narsani ko'rmay qoladi. Og'izga olib bo'lmaydigan qancha kalima bo'lsa,



o'sha onda shular aytiladi. Holbuki, biz juda mu-
loyim so'zlashardik. Ovozimiz bir-birimizga qar-
shi hech ko'tarilmas, nima qilsak, nima desak,
aniq bir yechimi bo'lardi. Har bir singan nar-
sa tuzalishiga o'zimizni ishontirgan, tuzalmasa
ham, bir xotirasi borhgi sababli tashlab yubor-
masdan, qo'limizda qolgan bo'laklari bilan birga-
likda qayerdadir saqlanishi kerak deb o'ylardik.
Keragidan ortiq tushunish va ahillik og'ushida
edik. Biroq shuncha noodatiylik orasida qilgan
hech bir ishimiz biz uchun yoqimsiz ko'rinmasdi.
Hayot bilan vaqtinchalik bir sulh imzolagandik
go'yo. Yonimizdan qotilsifatli insonlar o'tsa ham,
biz hech narsa demasimizdan oldin qurollarini
yashirishayotgandek edi. Bu dunyoning yaralan-
gan va ma'sum bolalari rolini o'ynayotgan edik.
Qo'l ushlashib yurmoq, biroz kechikkanimizda
ham "Qayerda qolding, xavotirlandim!", — deya
yurakdan quchish butun oqshomusti horg'in-
liklarini olib ketardi. Shuning uchun ham bir
tongda uyg'onib, yonimda yo'qligingni ko'rma-
gunimgacha ikkimizning ham yaxshi bo'lib qol-
ganligimizni tushunib yetmagandim. Biroq
birdan yo'qolib qolishing meni unchalik hayrat-
da qoldirmadi. Buni ham kutayotgan, ham umid
qilmayotgandek edim. Xayollarim biroz chalkash
bo'lsa - da, seni quchgan yerimning harorati



hamon o'sha-o'sha...

“Ifori mendan oldin uyg'onibdi”, — deya mehmonxonaga o'tganimda kofe stoli ustida turgan binafshada qoldirgan xabaringga ko'zim tushgandi: “Bilasan, binafshalar suvni unchalik yoqtirishmaydi. Uni yaxshi parvarishlagin, xo'pmi?”

Bu qisqa vidolashuv maktubini o'qiganimdan so'ng shunchaki tabassum bilan so'ylaganingdek binafshaga biroz suv bergandim. Sen ochiq qoldirgan derazadan tushib turgan nurda raqsga tushayotgan chang zarralarini ko'rardim. Ular ham baxtlidek edilar... Ko'rinishidan, o'z holidan norozi bo'lgan biror ashyo yo'q edi. Ko'chadan kelayotgan sotuvchining ovozi, mashinalar signali, eshik ortidan eshikbonning “Bozordan biror narsa kerak emasmi?” — degan ovozi — xullas, mendan boshqa hamma-hammasi o'z joyida edi va miq etmasdi go'yoki...

Shunga qaramay “Hech bo'lmaganida tayyorlagan oxirgi nonushtangni birga qilsaydik!”, — deya xayolimdan kechirdim... Biroq u holda bo'lib o'tgan hamma narsaning jozibasi yo'qolardi, shunday emasmi? Bir necha bo'lak pishloq va zaytun yedim xolos. Qaysi fasl, qaysi oyda yashayotganligimizning unchalik ahamiyati yo'q edi. Qaysi yilda ekanligimizni ham... Faqatgina oqshom payti kelganimda seni uyda topa olmasligimni



bilardim. Biroq men ham bundan keyin aslo avvalgidek bo'la olmas edim...

So'ngra oyna qarshisida lablarimga teginib, ismingni aytdim. Seni o'pgandek... Ismingni "Aslida, badanining rangini bilardim", — deganday aytdim... Sira ham horg'in emasdim va sen ham juda go'zal bo'lishing kerak edi... Albatta, seni sog'inardim. Bu oxirini kutib, oxirini xayolimizga keltirmoq istagan yakunimizdek ravshan edi...

Ammo bizning yo'limiz shu yerda tugagandi. Ikkimiz ham bir binafsha yashashi uchun ehtiyoji bo'lgan suvday edik.

BEGUNOH

Bir-birimizga "Hamma narsaning badali bor", deganday boqardik. Yuzingning badali yuzim edi, vujudining badali vujudim... Bu, aniqki, bir savdolashgan sevgi edi. Lekin nimalarnidir arzon-garovga olishdek dardimiz yo'q edi. Faqatgina biroz qo'rqar va titrar edik xolos.

"Birimiz ketadigan bo'lsak, ikkinchimiz ham qolmaymiz, ikkimiz birga ketganimizda ham tugaydigan bo'lsa, qo'shimcha vaqt bermaymiz va aslo pushaymon bo'lmaymiz", — dedik doim... Hamma narsa o'sha yerda shundayligicha qoldirilardi. Egasizdek va hatto avvaldan sira mavjud bo'lmagandek...



Bularni bir-birimizga ko'p bora talqin et-sak-da, men bunday qila olmadim. Ketgan edi, ammo ilk kundagidek yonimda edi go'yo. Har tong men bilan uyg'onar, musiqa qo'yar va qo'shiqlarni jo'r bo'lib kuylayotgandek edi...

Unga bergan hech qaysi so'zimda turolma-dim. Kutdim, yana sevdim. Unutmoq xayolimni-ng bir uchidan ham o'tmadi. Uni xayolimda va yuragimda doim tirik tutdim. Bir eshik yopilgan bo'lsa, men yana kalit soldim. Yuragimning toliqqanligini qabul qilmadim...

Ammo inson, avvalo, nigohlaridan sovir ekan. Eng avval o'zini yo'qotar ekan. Umid qaytib kel-masligini qabul etmagunicha insonni o'ldirar ekan.



Buni keyinroq anglab yetdim. Va keyinroq tushunib yetganimning badali boshimizdan kechirgan har narsaning badalidan ortiq darajada edi. Seni kutar ekanman, ko'p bora to'ladim. "Meni tashlab ketma!", — dedim. "Bu safar ketaman. Meni bag'ringga bos!" Buni ham necha martalab aytdim... Xafa bo'lsam, ko'nikaman. Ko'niksam, yana seva olishimni tushunib yetaman.

Iltilmos, meni o'zingdan o'zgasiga ko'ngil qo'ydirma.

Insonning bir tomoni o'lmay turib, boshqa yoni yashamaydi.

"Ayt, topdingmi?"

(Semiramis Pekkan)

PANJA

Ba'zi insonlarning yuragiga "Ketgan keta-versin, qo'yaver!" — degan muhtasham bir yozuv o'ymishlar go'yo. Ochig'i, shu darajadaki, dunyoni suv bossa oyoqlarini uzatgancha bir sigara yoqadilar va eng sevimli qo'shiqlarini bama-ylixtir tinglaydilar. Masalan, mening eng sevimli qo'shig'im Haramiylarning "Moviy devor" qo'shig'i... Bilaman: qaysi qo'shiqni yoqtirishim hech kimga qiziq emas. Lekin, mayli, bilishingizni xohladim...

Men esa o'zimni juda kam uchraydigan bir la'natning panjasidagidek his qilardim. Ketgan



qayergacha boradi? Ketganidan qancha vaqt o'tgach, boshqa birini seva oladi? Men-chi? Men yana kimgadir ko'ngil qo'ya olamanmi? Hatto mening sevishimni qo'ya turaylik, zotan, men buni loyig'i bilan o'z o'rniga qo'ya olaman. Boshqa bir inson tarafdin sevilish qanday tuyg'u bo'lardi, buni tushunishga ham qo'rqaman. Zero bir xayolotni ulg'aytirishdan charchadim...

Doimiy haqiqat budir, aslida: butun vujuding bilan his qilgan narsalarningning senga qaytishi juda qiyin bo'ladi. Ulg'aytirmoq — joyi kelganda va ehtiyojning bo'lganda yo hattoki ehtiyojning bo'lmay, sodda bir shaklda hayot kechirmoqqa harakat qilganingda yoningda bo'lishi lozim ekan, ulg'aytirgan narsangni birdaniga ketmoq uchun tayyor holga keltirmoq demakdir. Hozir e'tibor bersam, biroz avval shunday uzun bir jumla tuzgandimki, ham o'zim bilan faxrlandim, ham bu jumlaning tuzgunimcha ko'p o'tmay, u ham meni tark etadi deya xavotirlandim!

Javobsiz savollar, chekinishlar, kun o'tgani sayin kamaytirishim o'rniga sonini va qutisini orttirayotgan sigaralarim, o'sha mashhur choy haqidagi adabiyotlarida qo'llanilgan nozik belli stakanning belidagi og'ir yukni ko'ra olishim — bularning bari meni borgan sari hamma narsadan uzoqlashtirmoqda. O'zimni singan bir shisha stakandek his qilyapman. Bu sinmoq



qo'ldan tushib, yerda parcha-parcha bo'lish emas. Bir shishaning qayerdadir unutilishi, shunchaki bir burchakda tashlab ketilishidek jonini og'ritadigan boshqa yana nima bo'lishi mumkin? Xo'sh, bir shisha kabi sinishingni bila turib yashamoq neligini sira o'ylab ko'rdingmi? Bu jasorat talab qiladigan og'riq to'la iztiroblarni har kun, ha, har kun kanda qilmasdan, toliqmasdan yashamoq nima degani? His etmoq, qayta-qayta his etmoq va o'z yuzingni qamchilamoq nima degani, tushuna olarmiding sen?

“Xayollarim og'rir”, — deyman. Chunki qalbidan voz kechdim. Qalbidan bir tosh yumalab o'tdi. Rang-barang varrakning iplari o'raldi qalbimning bo'yniga. Bir qizaloq otasiga jahl qilib, onasini o'ldirdi ichimda...

Gapni aylantirib-aylantirib, “Sindim”, — deyishga olib kelaman, ammo negadir hech o'xshamayapti. Chunki siz tashqaridan boqib, soppa-sog'lom bir insonni ko'rasiz, ichimga boqmaysiz sira! Xo'sh, men ichimga boqishingizga izn berarmidim? Aslo... U holda nega kuyinay? Axir “Sindim”, — deyapman! Keskirman. Juda keskirman va ustiga-ustak faqat o'zimni kesaman... Hali ham ko'zim qiymayapti! Buni qanday qilib ko'rmasliging mumkin? Shuncha vaqtdan beri tushunmadingmi? Men doim sening e'tiboringni



xohlardim. Senga tushgan tomonim qo'rqinchli emas edi! Endi betob bo'lib qolganimda ustingga bir qoshiq qonim sachradi xolos, bor-yo'g'i shu!

"Qaniydi bir qoya bo'lsaydim!", — deyman... Va hatto hamma mening bir qoya ekanligimni bilib, yonimga shunday kelsaydi, koshki. Koshki, "Bu yerdan tushib ketsam, aybdor o'zim bo'la-man!" — deya xayollarini xayolimga o'ygancha o'sha chuqur bo'shliqni kuzatsalar edi. O'ylab ko'ring: qoyadan tushib o'lsangiz, bu — qoyaning aybi emas! Chunki qoya o'z joyida turadi, siz uning yoniga borasiz...

Yana takrorlayman: boshida aytib o'tganim o'sha boshqalarga berilgan ketsa ketaversin beparvoligidek, koshki, menga ham bir qoya berilsaydi... Go'zal manzarali, ammo halokatli bir qoya bo'lishni ich-ichimdan istardim. Shunda sening ham oyoqlaring titrar va mendan tushib ketmaslik uchun menga qoya labida omonat turgan quruq bir shoxga mahkam yopishgandek talpinarding!

Bularning hammasi xayol, xuddi boshdan kechirganlarim kabi... Lekin go'zal bir xayol. Qolaversa, men bu ajib og'riqni sevdim va tish-tirnog'im bilan hayotda qolishga harakat qildim... Va ishning yanada og'riqli tomoni ham shu aslida: bir kun, bir saboh, horg'in bir kechaning ertasida,



yoningnada sira uyg'onmaganimni keltirasan xayolingga... Yoki, hech bo'lmaganda, o'tinaman, xayolingga keltir!

Ana shu vaqtda ikkinchi bor va yana bir bor yoki bir bor yoki qat'iyan bir bora yana ketmoq istaysan, qayerga borasan? Nima o'zgaradi? Men ham qat'iy turib: "Hech yoningda uyg'onmadim!" — deyman... "Endi bor, xohlagan joyingda uxlay-ver!", — desam, uxlay olarmiding rostdan ham?

Buni tushuna olasanmi? Bir xiyonatning ichida to'lg'anayotgandekman... Chunki "Ketmoq" degani, oxir-oqibat, boshqa bir insonning senga tegina olish ehtimoliga ko'z yummoq demakdir...

Koshki, bir qoya bo'lsam edi.

E'TIROF

O'zimga samimiyat bilan shunday deyman: nihoyatda charchadim... Kutish meni juda yomon charchatdi. Juda ko'p qo'shiqlar tingladim, juda ko'p o'zimni tingladim va nima bo'lganda ham uning ketganini qabul qilolmadim. Holbuki sen ketding. Orqada bir qancha javobsiz savollar qoldirib va so'nggi bor quchmasdan ketding...

Zotan, ayni shu narsa qalbimni juda ko'p og'ritadi. Shirin xotiralarimiz hurmati hech yo'q bir marta bag'ringga bosishing kerak edi. Ammo sen indamay ketding. Hatto ketmagandek bo'lib ketding. Balkonda sigaret chekayotgan bir odam-



dek, tez yurib ketayotgan mashinadan to'satdan sakragan insondek ketding...

Va men "Qaytma!" — deyman endi. Mening qalbimda qol, ammo yonimga umuman qaytma. Chunki yana ayni narsalarni boshdan kechirishni ko'tarolmayman va kutishga ham kuchim qolmadi...

14-oktyabr

17

Ketganingdan beri roppa-rosa o'n yetti mavsum o'tdi... Va kelishidan qo'rqadigan o'sha kunning ichidaman hozir. Boshqa umuman yonimda bo'lmasligingni bu safar juda yaxshi bilaman. Yana oktyabr. Ancha oldingi yilning boshqa bir oktyabrida boshlaganding bizni tugatishni. O'sha kundan beri men tomonda sira ham yoz kelmadi. Qalbim va qo'llarim o'sha kundan beri isimadi.

Deyarli bir dahshat kechasining ichiga tushgandekman. Hamma bir-birini menda o'ldiradi, har bir jinoyat vositasining keskir va o'ldiradigan tomoni menman go'yoki... Shunda ham oxirgi bor o'pdim va seni boshqa bir insonning jarohatini saqlagandek shafqat bilan qalbimning ichiga oldim.

Shunchalar go'zalsanki, shunchalar go'zal kunlar berdingki menga va shunchalar qattiq



sevdimki seni, aslo unutmasman...

Xuddi shu o'n yettinchi mavsumdagidek...

QUCHISH

Nima bo'lsa bo'lsin, nima bo'lsam bo'layin, bundan keyin hayotimga kirib kelgan kishi kech-mishim bilan meni o'ldirmoqni istaydi. Na kech-mishimga, na kelajagimga sig'dirmaslar meni, xuddi sen kabi. Chunki kirib kelgan inson go'yo menda beriladigan yangi narsalar yo'qdek doim o'tmishimni o'g'irlashga harakat qiladi. Men yozar ekanman, doimo shunday bo'ladi. Men jim bo'lsam ham shunday.

Ora-sira, "Ichimdan chiqolmas bir holdaman!" — deya tilga keltirganim mana shu... Hayotimdan o'rin egallash o'rniga izlarimning ustidan bosmoqdan, qaysi jumlani kimga gapirganimni bilmaganlaridan shikoyatdalar, doim baxtsiz bo'lishadi... Va men ham baxtsiz bo'laman.

Menga qoldirgan narsangni bag'ringga bos endi...

Qalbimdagi o'rning ilk kundagidek. Va seni yana bir marta ko'rsam, ko'zlarimni xuddi o'sha yerda qoldira olaman, ishon. Lekin endi charchadim, voz kechdim!

Allohim boshqa hech qachon qaytmaydigan narsa bilan sinamasin meni.



BITISHISH

Qarg'ish narsa emas. Ya'ni aksariyat narsalar uchun qo'llagan "narsa" so'zini ayrim narsalar uchun qo'llay olmaysiz. Shu bilan birgalikda, ojizlikdan yoki so'z boyligining torligi sababidan qarg'ishga yuzlanilmaydi. Ba'zan ming-minglab so'z bilan tushuntira olmagan holatingizni bir necha so'zdan iborat qarg'ish bilan ifoda etasiz... "Negaki aqlimni, ich-etimni, kechmishimni va yana necha-nechasini ilma-teshik qilishingizdan charchadim!" — deya jim bo'lasiz, ammo hech kimga tushuntira olmaysiz...

Zero ayni o'sha damda og'zingizdan kutilmagan bir so'z chiqadi va keyingilari o'z-o'zidan kelaveradi... "Haqiqatan ham, marazsan. Hatto marazlarning otasi sensan, sen haqiqiy marazsan!" — deya ichingizdagilarni to'kib, yengil tortasiz. Ana shunda esda qoladigan, aniq, tavsiflovchi va tugatib qo'yuvchi kalimani topgan bo'lasiz. Ko'pgina o'rinlarda qarg'ishingiz qaratilgan biror kishi bo'lmaydi. Aynan kim uchundir emas, balki o'zingizni biroz yengil his qilishni istaganingizdan chiqadi bu so'zlar. Biroq bu galgi "engil tortish usuli"ngiz boshqalar tomonidan yaxshi qabul qilinmaydi va: "So'kinish senga hech yarashmaydi!" — deb sizga aql o'rgatishadi.



“Begunoh emasmiz”

(Sezen Aksu)

... SHUNGA QARAMAY

Odamlar bir daraxt tanasiga yopishgan qo'ng'izchalardek ustimda turibdi. Bilaman: vaqt o'tgach, bu ham kamlik qiladi. Shoxlarim, yaproqlarim odatiy bir holga keladi va ichimni chiritish uchun topgan eng kichik o'yiqlaridan ichkari kirmoqni xohlaydilar. Hatto ayrimlari osmonga tikka bo'y cho'zgan shu tanamga katta hujumlar uyushtirajak va o'zlari bilan olib kelgan bigizlari ila shafqatsizlarcha kichik teshiklar ochishadi. Keyin esa tanamda istagan inson osonlik bilan kira oladigan jarohatlar qoldiradilar. Qarshilik ko'rsatmoq va yashirinmoq chora emas. Inson taqdiriga majburan rozi bo'ladi va istar-istamas taslim bo'ladi...

Zotan men bo'lishni xohlagan joyda endi boshqa biri bor. Ha, hozirda men sira ham tanimagan va, shoyadki, aqli nopok bir kishi bor. Qarshimda barcha narsa o'n sakkiz barobar kattalashgandek bahaybat bir holda turibdi. Nega o'n sakkiz barobar? Buni bilmayman... Ehtimol, ushbu raqam men aytmoqchi bo'lgan narsalarni ochib beruvchi



bir son bo'lmasligi mumkin. Biroq baribir har bir narsa bo'yimdan eng kamida o'n sakkiz marta kattalashgandek... Ustimda ming-ming tonna tuproq bor. Necha tonna desangiz ham, buning ahamiyati yo'q. Zero, bu og'ir narsa. Balki, sizning og'irligingizdan ozdir, balki, ortiq...

Va "Tugayapman", — demoqda ichimda bir ovoz. "Nima tugayapti?" — deyman, ammo hech javob ololmayman... Qalbidan yangi uy topgan toshbaqa ustidagi qobiqning yaroqsizligidek bir his o'rin olgan... Bu kimning uyi bo'lsa, men ayni shu maskanga mansub emasman. Men bir qobiqman. Ortiqchaman. Tomidan chakka o'tgan uy kabi uyatchanman. Ikki kun oldin jahl bilan devorga otib, parcha-parcha qilgan stakanimning mendan intiqomini olgan shisha siniqlarining makkor kulishlari orasida yashamoqdaman, bori shu... Oxir-oqibat kesadi. "Yo'q", — desam ham kesadi, "Bor", — desam ham kesadi...

Kimning intiqomi bu? Men sizga nima qildim... Yoki senga nima qildim? Umrimda hech qachon bunchalar qo'rqmaganman. Endi hammamiz birgalikda qayt qilamizmi? Bir marta bo'lsa ham, yolg'on so'zlamasdan mening ichimda nima bo'lsa, sizning ichingizda nima bo'lsa, hammasini baravariga to'kamizmi? Yoki siz bilan ishim bo'lmasinmi? U holda sizning men bilan



nima ishingiz bor? Yetti butun o'ndan sakkiz (7.8) shiddati bilan sinish qanday bo'lishini bilasizmi? Raqamlardan boshingiz aylanib ketdimi? Qo'limdan yondosh xonagacha, undan narigi binoga, u yerdan yondosh mahallaga va hatto mendan eng uzoq bo'lgan shaharga qadar xafa ekanligimni boshqa yana qanday holda tasvirlab berishim mumkin?

Men kimnidir so'nggi bor besh yil avval ko'rgan insonimni quchgandek quchishni xohlayman. Ammo bir-birimizga nigoh tashlamay, shunchaki jimgina, lug'atga yangi kiritilgan so'zning bir maqolaga qo'shgan o'sha muhtasham va mag'rur ma'nosi kabi... Yoki keraksizlarcha... Biroq quchishni xohlayman: meni o'zidan itarib yubormaydigan va tanamga yopishib qolmaydigan bir insonni... Ochig'i, "Boshidanoq ketsin va tugasin", — deyman. Bu qo'llaringa berilgan shunchaki bir tanaffus bo'lsin xolos. Portlab chiqqan (yangi porlagan) qo'shiqchiga so'kingan (qo'shiqchini la'natlagan) mashhur qo'shiq kabi o'zimga ishonchim yuksak va shu bilan ayni vaqtda bezovtaman. Uyqudan boshimni ko'targanimda ko'zim tushadigan quyoshni yarim yalang'och yoki qip-yalang'och tutib oladigandek kulishni va hayratlanishni xohlayman endi. Doim bir xil umidsizlikning tuganmas dilsiyohligidan sug'uri-



lib chiqmoq va “Hayotda shunaqasi ham bo‘lar-
kan-da”, — deya ajablanmoqni xohlayman... Yoki
mumkin emasmi?

Kinga ham qizig‘i bor? Sizni shafqatli bo‘lib
ko‘rinish charchatmaydimi? O‘zingizni bo‘lma-
gan va hech qachon bo‘lmaydigan allanimaga
o‘xshatishga urinishingiz qalbingizni ifloslan-
tiribdi. O‘zini tuta oladigan, kibor va mag‘rur
ekanligingizni iddao qilasiz, shundaymi? Hol-
buki, arzon va’dalaringizning qimmat badal-
larinigina oson qoplashingiz mumkin, bor-yo‘g‘i
shu... Oramizdagi eng katta farq ham mana
shunda. Bu men yiqilgan qoya... Ko‘zlaringizda
siz ustidan chiqishni rad etgan buyuk va’daman.
Sizning badjahl tomoningizman. Og‘zi buzuq va
osiyman. Mayda zarrasiga qadar siz tan olmagan
har bir qusurlar menga taalluqli. Mening hech bir
ustunligim yo‘q! Hech qayerda ustun emasman,
doim badal to‘layman. Ortib qolsam, choychaqa
sifatida qoldirib ketilaman...

Hayotimni baxsh etganimda ilk bor aldan-
dim. Dastavval uchqun chiqdi va to‘rt tomonimni
yong‘in qopladi. His etdim, eshitdim, ko‘rdim,
ammo baribir qochmadim. Doim “Yakunini
o‘zgartirolmayman, ammo oxirigacha yoning-
da qolaman”, — der edi. Holbuki, o‘sha onda
birinchi marta yarim yo‘lda tashlab ketildim...



Ketar ekan, "Og'riqlaring bilan!" — dedi men tomon o'girilib. Ko'zlarida menga qoldirganlarining asari ham yo'q edi. Og'riqlar insonning ichidan chiqmasligini birinchi bor o'sha lahzalarda tushundim. Go'yoki bir inoyatdek edi. U ajoyib yanglishish edi...

Shunga qaramay... Buni hozir shu yerga sekingina tashlab ketyapman. Ochig'i, ovoz chiqarmasdan qo'llarimni ko'targancha taslim bo'lyapman. Siz qayerda ishlatasiz, buni bilmayman, lekin ishoning, bu meni umuman qiziqitirmaydi. Bu so'zni hayotimda shunchalar ko'p ishlatdimki, butun umrim bahonalarga to'la insonlarning yarim qoldirgan narsalari bilan o'tib ketdi. Xi-yobonda bir sharobchi, ko'chada bir gulchi yoki chiroqlar ostida mashinalarning oynasini tozalaydigan uysiz bir bola yoxud, istasangiz, bu yurtning eng badavlat insoni bo'ling... Ammo bu so'zga albatta yengilasiz. Ilk marotaba biror narsa yo'qotganingizdan so'ng navbatdagi yo'qotishlarning birin-ketin qanday kelganini ko'rasiz. O'shanda siz ham meni ustma-ust yer bilan yakson qilgan ushbu mag'lubiyatning aynan bir joydan boshlanganini anglab yetasiz. Sizning tanangiz ham ilma-teshik etilajak va kimnidir o'zingiz oxirgi bor besh yil avval ko'rgan insoningizni quchgandek quchishni xohlaysiz. Ammo bir-



biringizga nigoh tashlamay, shunchaki jimgina, lugʻatga yangi kiritilgan soʻzning bir maqolaga qoʻshgan oʻsha muhtasham va magʻrur maʼnosi kabi... Yoki keraksizlarcha... Biroq quchishni xohlaysiz: sizni oʻzidan itarib yubormaydigan va tanangizga yopishib qolmaydigan bir insonni... Ochigʻi, “Boshidanoq ketsin va tugasin”, — deysiz.

Bu soʻzni mendan oling. Qarshimda barchanarsa oʻn sakkiz barobar kattalashgandek bahaybat bir holda turibdi. Nega oʻn sakkiz barobar?

KURASH

Eng asosiysi, ortiq hech qanday muammo-ga duch kelmayapman. “Menga nima va senga nima!” — deydigan narsalarimning soni oshganidan beri ichimda dardlarning koʻpayishiga ham izn bermayapman. Boʻlmadi! Buni chin dildan aytyapman. Boʻlishi uchun juda koʻp harakat qildim. “Qaytadan”, — demadim, “Shu joydan takror”, — dedim. Kutdim, lekin yana boʻlmadi...

“Nega boʻlmadi, boʻlganda qanaqa boʻlardi, bu ham mayh, yana bir marta boʻlish ehtimoli boʻlarmikan?” — deb ham oʻylamayapman. Chunki charchadim. Biroz gʻazabdaman... Xuddi eshikning ochilish-yopilishidan chiqadigan “gʻiyq” ovozidekman. Eshikning oʻziga qarash-



maydi-yu, chiqargan ovozigga kim e'tibor berardi? Hamma chiqib ketadi. Hamma ketadigan bo'lsa, u holda eshikning nima keragi bor? Nega yopasiz? Endi "Eshigingizga ham, sizga ham la'nat bo'lsin. Odamdek turmoqni bilmadingiz", — deya aytmaymanmi?

Aytmayman, do'stim, aytmayman... Men horg'inman. Eshik o'rnida o'zim bo'lsam ham, bunday demayman. Lekin bu yerdan chiqib keting. Bu uydan, bu ko'chadan keting. Bu ko'zi so'qirlar jangidan, bu dunyodan...

Chiqing, keting eshigimdan

2015-yilning 2-iyuni

NAFAS

Men qachon nima bo'lishini bilolmayman. Har kun bir qo'rquv bilan, bir og'riq bilan uyg'ona-man. Qolaversa, nimadan qo'rqqanimni ham, qayerim og'riyotganligini ham bilmayman... Yolg'iz bilganim shu: boshqalardan yuz yil orqada yashayotganligim. Har kecha ma'nosini anglab bo'lmaydigan tushlar ko'raman. Kun qiyomida o'zimga kelaman. O'zimga kelganimda esa undan ham katta bo'shliqqa tushaman. Bu hayotda majburan yashayotgandekman. Bularni na tushuntirish va na boshqa bir inson tomonidan



tushunib yetish mumkin.

Men bir narsani boy berdim... Ancha yil avval bir narsamni yo'qotdim. Oyoqlarimni, qo'llarimni, hislarimni yoki umuman boshqa bir narsani... Boy berganimning ortidan quvmayman. "Shunday bo'lishi kerak edi, shunday sodir bo'lib, shunday tugashi kerak edi", — deb hisoblayman. Ammo "O'zimni biroz yo'qotib qo'ymasaydim, hamma narsadan bu qadar uzoqlashmasaydim, hozir o'zimga o'zim yetarli bo'lar edim", — deb o'ylayman...

Chuqur nafas olgancha o'zimga: "Yolg'izlik bilan kurashilmaydi, yolg'izlikka taslim bo'lindi", — deyman. Biroq zum o'tmay bu tasallim o'tib ketadi. Zotan, bilganingni bilmoq juda g'alati ish. Bilganlaring ba'zida negadir senga tegishli bo'lmaydigan darajada go'zal... Masalan, ertaga tug'ilgan kunim bo'ladi. Shu darajada xafamanki... "Dunyoni nima deb atash mumkin?" — deyman...

— Mo'jiza.

— Ishq.

— Xatolik.

Bularning barchasi meniki. Ammo ko'hna dunyoyidunda sotilgan bu qarg'ish nega hech kimga tegmaydi? Bu ilon joni og'rishini bilgani holda nega o'z terisidan chiqib, quyoshda sayr



qiladi? Bu gazetadagi cho'zilib yotgan o'lik kim? Mendan boshqa yana kim samoning qopqasidan pastga tushmoqda?

...

Menga samolarni qaytar, sevgilim, yolg'izim... Yo'qsa, qalbim bu temir qubba ostida bo'lak-bo'laklarga bo'linib ketar... Menga samoni qaytar...

— Mo'jiza.

— Ishq.

— Xatolik.

Bularning barchasi meniki.

SUKUT

Sukut nima, bilasizmi?

*Dudoqlaringizning yoningizdan jüm o'tib
ketishi...*



“Yo‘qolgan yillar”
(Sezen Aksu)

SHAFFOF

O‘sha qalin devor birdaniga shaffof holga kelgan va endi yuzimdan nur o‘tishni boshlagan edi. Ertalab barvaqt turar va darhol oyna qarshisiga borar edim. Go‘yoki ilk bora bir narsa bilan bir tomonda edim. Sendan hech ham norozi emas, o‘zimga tegishli fikrlarimdan va g‘azabimdan voz kechib, faqat sening dunyong bilan yashamoqqa harakat qilardim. Kichik bir ayolda shu qadar ulkan bir dunyo bo‘lishi mumkinligi va ushbu dunyoda menga tegishli nimalarnidir topa olishim xayolimga ham kelmagandi. Bilasanmi, horg‘in insonlar, aslida, hamma narsani keragidan ortiq darajada sinchkovlik bilan kuzatishadi? Eng kichik murvatiga qadar hisobga ohb, har bir bosgan qadamining o‘lchovini bilishni xohlaydilar. Mana shunday qilib, horg‘inlikning insonga baxsh etgan kuchini ham kashf etgan bo‘lasan.

Tushunib turibman: hozir senga bir-biriga umuman qarama-qarshi ko‘ringan narsalardan bahs etyapman... Horigan daraxt qurishga mahkum, horigan daryo oqmasligi kerak, qushlar qanot qoqmasligi va horg‘in bo‘lgan yana qancha narsalar shunday qolishi lozim, to‘g‘rimi? Yo‘q, aslida hayot bunday o‘tmaydi. Bir gap bor:




“Ochilmagan qanotlarning uzunligini bilolmay-san”. Insonlar ham bundan farqli emas. O‘zini yashirin saqlagan kishini qayerdaligini, nimani o‘ylaganligini bilolmay-san va hatto borligini ham isbot etolmay-san.


Xo‘sh, seni nima uchun “Yuzimdan nur o‘tish-ni boshladi endi”, — deya ta’riflashga urin-ganimni angladingmi? Chunki yuzimdagi qora niqobni ilk bor ko‘rgan sen eding. “Yuzingdagi nurni qachon yoqasan?” — deb so‘raganingda menga tegishli ekanligingni anglab yetgandim. Negaki sen meni topgan eding... Iyun edi. Iyunda doim yashirinarдим. Aslida, iyunda kunlar uzun bo‘ladi. Biroq men uchun taqvimlar allaqachon o‘zgargan va umumiy bir xavotir ichida yashar edim. Oqshomlari o‘zimni ishonchliroq his qilar, yuzimning zulmatida yaratgan kamalagimni mahkam quchardim. O‘ylashimcha, yuzim ran-go-rang edi, ammo hech kim buni ko‘rolmasdi. Odatiy ranglarga maftun bo‘lganlar doim xato qilishadi. Albatta, qora ular uchun qoradir. Oq esa, oq...

Endigina o‘ttiz yoshdan o‘tgan va bir yerda jimgina turolmaydigan edim. Xuddi tug‘ilganim-dan buyon qayergadir kech qolayotgandekman. Meni nimalar kutayotganini bilmas, kutgan nar-samning kelishini va o‘zini ko‘rsatishini xohlar



edim. Tag'in sen uchun g'alati tuyulishi mumkin, biroq insonlar o'zlari kutgan narsalariga doim intilib yashaydilar. Bu esa ham bir joyda turib, ham harakat qilamiz deganidir. Zotan biz yurmasak, vaqt yoqamizdan oladi. O'n ikki soni soat o'n bir bo'lganidanoq vahshiy hayvon o'ljasini poylagan-dek pistirmada turadi. Va bu kutishi natijasida mutlaq g'alaba qozonadi. Shu sababdan men ham o'zimni vaqt kabi hisoblardim. Shu orqali mag'lubiyatlarimni yashira olardim. Qolaversa, g'alaba qozonmoq va mag'lub bo'lmoq orasida juda ingichka chiziq bordir. Xuddi kulmoq va yig'lamoqda bo'lgani kabi. Telbalarcha kularkan ekansan, ba'zan to'satdan yig'lashni boshlab qolasan. Chunki o'sha chegarani bilmasdan kesib o'tasan. Negaki ayni o'sha paytda anglab yetasan: hech bir baxt bir umrlik emas!







Aynan sen yuzimdan nur o'tkazishning ud-
dasidan chiqqan eding. Buning ham men uchun
yomon tomoni bor edi: endi yashirina olmasdim.
Mendagi bu kutilmagan o'zgarishni payqagan
har bir inson o'rningda bo'lishga harakat qilar-
di. Menimcha, biroz shu mashmashaning orasida
qoldim. Tanlov ko'paysa, insonning boshi aylanib
qolar ekan. Baxtsizligingda kim sen bilan birga
bo'lganligini tezda unutib yuborasan. Menga
berilgan eng go'zal narsani qo'lim bilan itarar
edim. Buni pastkashlik deb baholashimiz mum-
kin. Yoki undan ham battarroq'i bevafoqlik... Nima
bo'ldiki, uning telbasiga aylangandim. Mendagi
bu oydinlik, aslida, sening bir parchang ekanligi-
ni tushunganimda o'sha kichik ayolni allaqachon
o'ldirgandim. Ro'paramda yig'layotgan bir ayol
bor edi. O'shanda men uchun ko'z yoshlarini ar-
tishga jasorat etolmaganim — sevgisiga mag'lub
bir ona eding. Va onalar bolalariga aslo kuch ish-
latishmasdi! Xafa bo'ladilar, jahl qiladilar, lekin
aslo kuch ishlatishmasdi... Ehtimolki, bu chek-
siz-chegarasiz shafqating meni bu qadar bamay-
lixotir va parvosiz bo'lishga undardi.

Endi tinimsiz ravishda shunday deyman:
“Men sevishtni o'rganguninga qadar sevmoq meni
tark etdi...”

...



Balki, sendan keyin rostdan ham kimnidir baxtli eta olarman. Ammo shunga aminman: yuzimdan boshqa hech qachon nur o'tmaydi. Bundan buyon sen bilan baxtli bo'lganimdek baxtli bo'lolmayman. Yuzimni kimga o'girsam, seni sog'inganimni ko'rishadi. O'zimni o'zim jarohatladi. Albatta, faqatgina o'zimni emas, seni ham jarohatladi. Seni tashlab ketgan va shu daqiqalarda yoningda uxlayotgan inson bilan orangizga masofalar qo'ygan ham o'zimman.

Bularni aytganim uchun menga zinhor jahl qilma!.. Unutma: sen mening onamsan va boshdan kechirganlaringni o'zimdanda deb bilaman. Meni quchganlar hali ham sening iforingdan so'z yuritadilar. Sen uzoq, juda uzoq vaqt oldin ustimga singding. Ammo bular ortiq hech narsani o'zgartirishga yetmaydi. Inson vaqti bilan qayerda to'xtashni o'rganadi. Nimaning imkonsiz ekanligini va hayotda boshqa uchratmaydigan narsalarining nimalar ekanligini juda yaxshi biladi...

Afsusdaman, juda afsusdaman. Qaytib na senga va na boshqasiga gapira olaman. Chunki ushbu sukutim sen uchun... Negaki inson ba'zida kech qolganligini anglab yetadi va qalbini sukutga ko'madi.



IMKON

Bugun sendan keyingi o'tgan vaqt uchun yana bir bor chuqur umidsizlikka cho'ndim. Barcha sensiz kulmoqda. Ovozing hech kimning ovozida yo'q. Sira ham ko'nika olmayapman. Bir bor kul-salar yoxud bir bor gaplashsalar, o'zimni to'sat-dan dunyoning eng uzoq nuqtasida ko'raman. Agar imkoni bo'lsaydi, kuchim yetsaydi bunga, sen bo'lmagan har bir yerni yo'q qilardim. Shu orqali nazar tashlagan yerlarimga yana bir bor qarashga hojat bo'lmas va sensizlikning imkoni-yatlarini kamaytirgan bo'lardim...

Ha, hech narsaga toqatim yo'q va hech narsa-ga ichim achimaydi.

CHOY

Aslida, barchamiz turli hikoyalarning bosh-qa qahramonlarimiz va tabiiy holda bosh rolni o'ynaymiz. Oramizdagi yagona farq shuki, ba'zi hikoyalar diqqatni tortmaydi, ba'zilar esa qiziqish uyg'otib, ko'ngilochar tomoshaga chorlaydi. Bu bir mushuk uchun ham shunday, bir inson uchun ham shunday, ya'ni o'zgarmas... Ba'zi mushuklar ko'chada yashaydi va kunlarning birida mashinal-ardan birining balonlari tagida sekingina jon be-radi. Ba'zi mushuklar esa ko'pchilik odamlarning tushiga ham kirmagan qirg'oq yaqinidagi uylarda



yoxud o'ta yuqori serhasham shaxsiy hammom va xos mehmonlar uchun mo'ljallangan hammomlari bo'lgan ko'rkam villalarda yashaydi. Ularning o'limi nihoyatda yengil va yana ayni paytda g'amginlik keltiruvchi bo'ladi. Zoti buzilmasin deya xuddi o'sha zotli boshqa bir mushuk bilan juftlashtiriladi. Bunday mushuklarning ko'chalarida yashagan boshqa mushuklardan farqli o'laroq suratlari hamda o'ynoqilik vaqtida olingan video yozuvlari o'z xo'jayini uchun xotira bo'lib qoladi...

Ishq ham aslida shundaydir.. Omadli insonlar o'z sevgisiga to'yib-to'yib yashashadi, bir dunyo kechinmalari va hislari xotira bo'lib qoladi. Omadsiz kishilar esa yo sevganiga sevgisidan so'z ocholmagan yoki yo'lning yarmiga ham bormasdan yo'llari ayro holga tushgan bo'lishadi... Xo'sh, yo'llar qanday qilib ayro tushadi, buning tagiga hali yetganim yo'q... Qayerga ketyapsiz, do'stim!? Bu sinmas irodani qayerdan olyapsiz? Qanday qilib bu qadar chidamli va sog'-omon qolyapsiz? Joningiz sira og'rimaydimi? Hech kitob o'qimaysizmi, musiqa tinglamaysizmi? Savdo markazlarida ko'rgan farzandli oilalarga havas qilib, bolalar aravachasining ichiga qanday qilib ko'zlaringiz tushmaydi?

Bularni o'ylasam, Yilmaz Odabashining "Biz



hozir o'lsak, nari borsa qahvaxonada choylar so-vib qoladi", — degan gapi yodimga tushadi. Men hozir o'lar bo'lsam, ehtimolki, bu qadar ham ahamiyat kasb etmasman. Qahvaxonada nard o'ynashda davom etishar hamda "Tayyor choyni topganimdan so'ng sovimasidan ichay-da, uvol bo'lmasin", — deya nihoyatda band bo'lgan bir kishi keladi-da, mening choyimni huzur bilan ichib oladi...

U holda nega o'layin? Mayli, bularni qo'ya turaylik, menga jahannam bo'lsin va choyni ham kim ichsa, ichsin. Men hozir o'lsam, mendan yaxshirog'i kelib, mening joyimga joylashadi, shundaymi? Xo'sh nimaga ko'ra, kimga ko'ra yaxshiroq? Yoki mendan ham yomonrog'i kelarmikan? Ochig'i, nimasiga ko'ra, kimga ko'ra yomonroq? Uyingizning ichini toza tutdingiz-u, ko'chalar ko'zingizga xunuk ko'rina boshladimi? Mehmonxonada isqirtlik uyumi kabi turgan sukunatni gapirtirishni uddaladingiz-u mening es-hushi joyida sukunatimga ko'z tikdingizmi?



Agar hayot bo'lsam, iltimos, yo'qlamang! O'lgan bo'lsam ham, albatta, bir bilganim bor-dir, iltimos, o'shanda ham yo'qlamang... Negaki men tushunarsiz bir insonman va menga nimadir qo'shishni qo'yib turing, doim mendan o'zib ket-gan, juda ham bilimli ekaningizdan charcha-dim, bezdim. Ancha vaqt oldin qalbidan o'tgan poyezd relslariga uzandim va boshimning tanam-dan ayrilishiga shohid bo'ldim. Ichimda oqqan daryolarni to'g'onlarda saqlamoqdan voz kech-dim. Ovozining oyoqlarini chopmoq istay-man, shu sababdan...

Jim bo'ling.

Bu — qay tarafga ketishingni bilmaslikdek gap.

Qarshimda bir necha yo'l bor: bir necha oqshom, bir necha yakun, bir qancha inson, ammo barchasi tezda o'tib ketadi...

Ba'zan o'zinga-o'zim:

"Inson chirishni barmoq uchlaridan boshlar ekan", — deyman.

Har bir ovoz bir o'likning boshqa bir o'likka o'z holini bayon eta olmasligiga o'xshaydi go'yo.



SUPURGI

Tushunmadilar, tushuna olmaydilar, ehtimolki, tushuntirishni xohlamasmiz. Chunki gapirib beradigan ko'p narsalarimiz haqiqatda ishning "Senga nima?" qismidir. Bir qarasangiz, kim bilandir chin dildan suhbat qurmaganingizga ham ancha vaqt bo'libdi. Ancha vaqtdan beri kimnidir bag'ringizga bosmagansiz. Anchadan beri ko'ksingizda bir yong'in bordir... Aslida, inson ichida davom etayotgan urushni ko'rsatmaslik uchun ham tabassum qilmaydimi? Yuzini necha martalab qon qiladi...

Shuning uchun ham hech kimga "Mana shu yerimda nimadir bor", — deya olmaysiz. Tushunishmaydi, undan battar qon qilishadi. Tushunishmaydi, chunki o'zlariniki deb hisoblagan yolg'on hayotlariga asir bo'lib qolishadi. Shu sababdan ham soxta bir dunyodan joy olishdan ko'ra jimgina uzoqlashishni afzal ko'rasiz.

Va shuning uchun men endi hech kimga dardimni ochmayman... O'zimni qo'lga olmoq, baribir, yana o'zimga qoladi!



Agar hayot bo'lsam, iltimos, yo'qlamang! O'lgan bo'lsam ham, albatta, bir bilganim bor-dir, iltimos, o'shanda ham yo'qlamang... Negaki men tushunarsiz bir insonman va menga nimadir qo'shishni qo'yib turing, doim mendan o'zib ket-gan, juda ham bilimli ekaningizdan charcha-dim, bezdim. Ancha vaqt oldin qalbidan o'tgan poyezd relslariga uzandim va boshimning tanam-dan ayrilishiga shohid bo'ldim. Ichimda oqqan daryolarni to'g'onlarda saqlamoqdan voz kech-dim. Ovozining oyoqlarini chopmoq istay-man, shu sababdan...

Jim bo'ling.

Bu — qay tarafga ketishingni bilmaslikdek gap.

Qarshimda bir necha yo'l bor: bir necha oqshom, bir necha yakun, bir qancha inson, ammo barchasi tezda o'tib ketadi...

Ba'zan o'zinga-o'zim:

"Inson chirishni barmoq uchlaridan boshlar ekan", — deyman.

Har bir ovoz bir o'likning boshqa bir o'likka o'z holini bayon eta olmasligiga o'xshaydi go'yo.



SUPURGI

Tushunmadilar, tushuna olmaydilar, ehtimolki, tushuntirishni xohlamasmiz. Chunki gapirib beradigan ko'p narsalarimiz haqiqatda ishning "Senga nima?" qismidir. Bir qarasangiz, kim bilandir chin dildan suhbat qurmaganingizga ham ancha vaqt bo'libdi. Ancha vaqtdan beri kimnidir bag'ringizga bosmagansiz. Anchadan beri ko'ksingizda bir yong'in bordir... Aslida, inson ichida davom etayotgan urushni ko'rsatmaslik uchun ham tabassum qilmaydimi? Yuzini necha martalab qon qiladi...

Shuning uchun ham hech kimga "Mana shu yerimda nimadir bor", — deya olmaysiz. Tushunishmaydi, undan battar qon qilishadi. Tushunishmaydi, chunki o'zlariniki deb hisoblagan yolg'on hayotlariga asir bo'lib qolishadi. Shu sababdan ham soxta bir dunyodan joy olishdan ko'ra jimgina uzoqlashishni afzal ko'rasiz.

Va shuning uchun men endi hech kimga dardimni ochmayman... O'zimni qo'lga olmoq, baribir, yana o'zimga qoladi!



O'CHIRG'ICH

Ortimizda nima qoldi? Hamma narsa asta-sekin o'chib ketmoqda. Dunyodagi eng shafqatsiz narsa bu — vaqt, ortiq bunga hech qanday shubham qolmadi. Baxtli bo'lgan kunlarimizni eslay olmayman. Baxtsiz bo'lgan kunlarimizni ham. Xuddi kimdir qo'liga ulkan bir o'chirg'ich olib, xayolimda borini o'chirmoqda. Bamisoli endi rasm chiza boshlagan bolakayning o'chirg'ich ishlatayotgandagi shoshqaloqligi va sabrsizligi bilan... Va qalbimda har zarbadayoq ulkan o'yiqlar ochiladi.

G'azablanaman... Sochlaringni emas, xatolaringni tarar ekanman, sen haqingda o'ylay boshlayman. Har gal iforing taraladi. Oqshom o'z yotog'ingda yotib, ertalab turar chog'da o'zingda uyg'ona olmaslikdek bir jarayon bu. Boshqa siymolar bor. Tanamda boshqa qo'llar, boshqa-boshqa ovozlari bor... Ovozing yo'q. Va ovozingning yo'qligi sukunatimda nafrat ulg'aytirmoqda.

...

Agar birozdan keyin aytadigan jumlaning jirkanch yuzini ko'ra olsayding, amin bo'лки, qanday qilib sendan haligacha nafratlanmaganimdan hayron qolarding:

“Men endi boshqa insonlar kabiman, ammo boshqalar senga sira ham o'xshamaydi”.



*Har kim ekanin o'rar,
Qilmishlari qaytadi bir kun.
Navbat kelar. Zamon o'zgarar,
O'zgarar dil... Ogriqlar ham o'zgarar bir kun.*



OG'RIQ

Ketdi. Va ketganida yonimga ko'p bora keldi. Xursand bo'lishim kerakmidi yoki xafa, sira bilolmadim. Har kelganida qo'llaridan tutib, sochlaridan o'pdim. Uni o'zimdandan uzoqlashtirmadim, hasrat bilan quehdim... Sochlari nargis bo'yli edi, ammo o'zi bilmasdi. Yuzimga qaragan on "Yana ketaman", — derdi. Ketdi ham... Necha martalab ketdi va keldi...

Men kichik bir ayolni sevdim va uni ketishi uchun ulg'aytirdim. Tani nargis bo'yli edi, buni sizga aytgandim... Eshigimni uning-chun sira yopmadim. Kelganida "Yo'qolmasin", — deya eshikdan sirayam chiqmadim va eshigimni boshqasi uchun ochmadim... Kuzatib qo'ydim sira, biroq doim ortidan qarab qoldim... Men kichik bir ayolni ulg'aytirdim va ketdi... Va ketganida yonimga ko'p bora keldi.

"INSON"

Inson hech kimning hech kimga tegishli emasligini nimalarnidir yo'qotishidan oldin, albatta, bilib olishi lozim. Bilishi kerak buni. Chunki bilish qimmatbaho bir rohatdir! Inson bo'g'ziga qadar ishqqa ko'milgan bo'lsa ham, kun kelib, eng kichik hujayrasigacha bo'shab qolishi mumkinligini, o'sha bo'shliqda sovurilishini va har doim qo'li ostida turadigan qo'lni yo'qligida juda sog'inishini o'zining qadrli narsalarini yo'qotishidan oldin anglab olishi shart. Shu bilan birga barmoqlari bilan mahkam tutgan barmoqlarning yoqimli taftini boshqa hech



qachon his qila olmasligini, qimmatini bilinmagan vaqtning zumda o'tib ketishi hamda ko'zlardagi ma'sumiyatni, sevgi bilan boqqan o'shal ko'zlarning qanchalik qimmatli bo'lganligini ham o'z vaqtida tushunib yetishi kerak. Shuningdek, pul ko'p narsani hal qilsa-da, kun kelib hech narsaga yaramasligini, bir ayol bir erkakning hayotiga kirganida hamma narsa o'zgarishini, qolaversa, bir erkak boshqa bir ayolning hayotiga kirganida uni ko'kka ko'tarishi (ayolning bunga ehtiyoji bo'lmasa ham) va o'sha ayol buning nima ekanligini juda yaxshi bilishi kerakligini hamda kechirish eng g'urur beruvchi tomonimiz ekanligini inson o'zining noyob narsalaridan ajralishidan avval bilishi kerak, albatta...

Inson bir buyumning, bir qo'shiqning, birga tanovvul qilingan taomning, bir idishdan ichilgan suvning qanchalik muhim ekanligini, qilingan orzular abadiy orzu bo'lib qolmasligi uchun harakat qilishi lozimligini ham bulardan ayrilib qolishidan oldin bilib olishi shart. Boshqalardek bo'lish uchun ularga taqlid qilib, o'zini pastga urmasligi zarurligini; kutishning, umid qilishning, pok qilishning tengsizligini va bebaholigini, hayotining har onida shukronalik bo'lishi lozimligini unutib qo'ymasligi kerak. Nomusning, hamiyatning ko'p narsa ifoda etishini, bir ayolning dudoqlari uning



peshonasida ekanligini bilmoqni va o'sha peshonani yo'qotishidan avval tushuna bilishi kerak...

So'zlamaganlarning bir kun barcha ovozlarni asir olishini, sukunatning insonni necha marta lab o'ldirishini, yaqinlikning nimani ifoda etishini, hatto yosh bolachalik kuchli emasligini inson nimalarinidir yo'qotishidan oldin, albatta, bilishi kerak.

...

Inson...

...

"Shu yerdaman", —

degan inson har yerdan qivilarmi?

Baribir, bu ogriq mendan boshqasiga tegmaydi sira.

"Muhrladim seni qalbimga"

(Nazan O'njel)

MANJANIQ

Tevarak-atrofimda men tanimagan, bilmagan ko'plab insonlar bor. Ular meni uzoqdan qanday kuzatishsa, men ham ularni pinagimni buzma-gan holda shunday kuzataman. Gapirganim bilan hech narsa o'zgarmaydi, shuning uchun ham jim bo'laman. Zotan yozganlarimni o'qisangiz, kat-



ta ehtimolki, shunga o'xshash holatlarni boshingizdan kechirgan bo'lsangiz kerak. Lekin bular ham meni siz bilan yaqinlashtira olmaydi. Hatto endilikda meni o'zim bilan ham yaqinlashtirmaydi.

Qolaversa, avvallari insonlarning oddiy bir toshga o'xshashini bilmasdim. Hatto hissizlikdan bir odimlik masofani bosib o'tishim uchun ham kimdir meni olib uloqtirishi kerakdek. Shu sababdan ham odamlarni toshlarga o'xshataman. Ahvolim shu ekan, shamol esganda mendan hech narsa olib ketmaydi, ammo yomg'ir yog'ganda yoki ajoyib, quyoshli bir kunda asta-sekin eriyman. Go'yo barchangiz bir yomg'ir tomchisi kabisiz. Yoki aytgan va aytmagan narsalarim quyoshli bir kundek. Shuning uchun hammadan uzoq bo'lishni afzal ko'raman...

Kun kelib, "Qanaqa odam deb bilardingiz?" — deb so'rashsa, "Juda yaramas odam edi, sovuq, qoyadek qattiq edi va ajoyib bir ayolga mag'lub bo'lib, ushbu sharafli mag'lubiyati ortidan qayta oyoqqa tura olmadi", — dersiz. O'sha paytda ham sizni uzoqdan kuzatib turaman. Ehtimol, o'shanda bir necha kishi bilan suhbatlashishni istarman, biroq bunga izn bermaslar.

Nega suhbatlashishni istayman? Balki, "Dunyoga qayta kelmaysiz. Sevsangiz, odam kabi seving. Ketsangiz, odamdek keting, jim bo'lsangiz,



odamdek jim turing", — demoq uchun suhbatlashishni xohlarman. Ochig'i, kimlardandir uzi so'rashim kerakligi yoki boshimdan o'tkazganlarim ortidan pushaymon ekanligim haqida xulosa chiqarmang. Nima qilgan bo'lsam ham, tezkor qarorlar bilan qildim va hech biridan pushaymon bo'lmadim. Kimlarningdir dilini og'ritganim, xafa qilganim, hatto quyrug'ini bosib, g'azabiga uchraganim rost. Lekin o'zimni shu so'z bilan ifodalayman: "Kimningdir quyrug'ini bosgan bo'lsam, u shunga loyiqdir! Qolaversa, odam zotida quyruq nima qiladi, ajab qilibman!"

Negaki ba'zi narsalar boshdan oyoq safsata hamda bu safsatalarni ortiq ichimda saqlayolmaganligim uchun yozyapman. Tilga olgan, yozgan narsalarim esa tez-tez o'zgarib turgan bir vasiyat kabidir. Ayni paytda vidolashuvdek. Agar to'satdan ko'z yumar bo'lsam, "Meni shu yerga ko'minglar", — deyishni xohlayman. Bir jumla ichida qolmoq istayman. Sizning eng yoqtirgan jumlangiz qaysi, bilmayman, ammo mening eng sevgan jumlam budir: "Xayrli tong, umrim!" Bu jumla menga juda mos.

Nima bo'lganda ham. Endi esa jumla larimning hech tugamasligidan bezovta bo'ldim. Oxi ko'rinmagan shuncha jumлага nazira qilganda aylanib kelib yana o'sha sukunatda qolishim haq bema'nilik. Hozir ham hamma bir-birini uzooda



kuzatishda davom etsin. Shuningdek, yashashga jasoratingiz yetmasa, kimsa kimsaning qo'lini tutmasin, unga aslo teginmasin.

O'GAY

Har doim yodimda ekanliging to'g'ri, ammo seni qachon o'ylashimni o'zim ham bilmayman. Hozir yonimda bo'lsang, seni yana o'ylamayman, chunki senga jahlim chiqadi. Sensiz o'tayotgan onlarga jahl qilmayman, balki yo'qligingda meni qucholmaganing uchun haddan ziyod jahl qilaman.

Nimalarnidir qiynashini xohlarman va xayolimni parcha-parcha qilgan qilichingni bu safar qalbimga sanchaman. Yo'qsa, sendan g'azablanaman. Bu yo'lni nega men bilan yurmoq uchun emas, ketmoq uchun qurganingni, hamma qatori menga qarshi borganingni tushunolmaganim uchun sendan g'azablanaman.

Bu daf'a sevgim ham ketadi. "To'xta", — demayman, "Qol", — demayman sevgimga...



OLMA

O'lim yaratgan ilk tuproqlar kabi ustimda besh ming yillik bir la'natni ko'tarib yuribman. Ilk jinoyatga guvohdekman. Ilk jinoyatdan qo'rqmay, bo'lgan voqealarni maroq bilan kuzatayotgandekman. O'z o'limimni tomosha qilgandekman, deyarli... Sevgini topgandek emas, la'natga eng birinchi men uchragandekman. Birinchi bo'lib men quvildim jannatdan, birinchi bor o'zim ayro tushdim o'zimdan... Ilk bor ikkimiz yaratildik va hech kim xabar topmasin deya yashirindik go'yo. Xuddiki seni besh ming yildan buyon sevaman. Yoki besh ming yildirki, seni izlayapman. Go'yoki o'limga mahkum qilingandekmiz. Hammaning o'limiga shohid bo'lishimiz uchun faqat ikkimizgina jazoga tortildik...

YURMOQ

Shu kunlarda o'zimni kuchliroq his qilyapman. Go'yo yonimda kimdir bordek. Kimningdir qo'lidan tutgandek yuraman, kim bilandir hazilashayotgandek kulaman. Inson baxth bo'lishi uchun derazadan boqish bilangina cheklanmay, dastlab o'zidan tashqariga chiqishi kerak bo'lar ekan. Menimcha, buni sekin-asta o'rganmoqdaman. Sekin-asta o'zimga, senga va yo'qligingga ko'nikmoqdaman. Bahonalarning orqasiga yashirinishdan voz kechdim. Chunki bahonalar



yengilmas emas. Qolaversa, eng katta mag'lubiyatlarimizni o'zimizga aytishdan qo'rqqanimiz, tan olishda qiynalgan qo'rquvlarimiz natijasida kelganini ko'rdim. Holbuki tan olish insonni yerga urmaydi, aksincha, yuksaltiradi. Bu hayotda hech narsa abadiy emas. Xo'sh, sen abadiy yasagan kimnidir ko'rdingmi? Hamma narsa o'ladi. Tuproq ham o'lishi mumkin. So'zlarimga ishon: o'zi istagan inson bilan birga uxlay olmagan bir baxtiqaro kabi tuproq ham o'lishi mumkin. Vo darig', tuproqning holini tushuna olarmiding? Qo'ynida kimlar bor. Norasidalarining qotillari, tajovuzchilar, talonchilar... Zilzilalarning sababi shu bo'lishi mumkin deb o'ylab ko'rganmiding hech? Balki, bu mashmashalarga tuproq ham ortiq chidab tura olmas. Bizga bittasi ham ortiqchalik qilayotgan ekan, bu qadar nopok qalbni kim ko'tarib yura olardi? Shuning uchun ham men zilzilalarni "tuproq ichining qusishi" deb atayman.

Xo'sh... Sen-chi, sen qachon to'kasan ichingni? Men qachon to'kaman ichimni? Unutma! Ba'zan kech qolishga ham vaqt bo'lmaydi.

Hamma narsa allaqachon tugab bo'lgan!



*Dardingni anglatolmaslik qanday bir his, siz buni
tushunolmaysiz.*

O'zimdanda biroz uzogroqda turibman...

NOLA

Oynaning ustiga qistirib qo'ygan bir eslatmam bor edi. "Esimda", — der edim va ushbu eslatmaning vazifasi ham shu edi. "Qanday ketganini unutma. Seni qanday tashlab ketganini, qo'rqqoligini, qadringga yetmaganini unutma!", — deya takrorlardim har tong.

Ne ajabki, bu eslatmaning yuzimni yuvgunimga qadar ham foydasi bo'lmasdi. Ayrim narsalardan emas, balki ko'plab narsalardan voz kechgandek edim, sovigan edim. Ichimdagi bir ovoz: "U beqaror bir go'dak, albatta, qaytadi", — der edi. Insonning o'zini o'zi bunday shafqatsizlaracha aldashga urinishi uning jonin ma'lum bo'lgan barcha qiynoq uslublaridan ham ziyoda og'ritadi. Qabul qilolmaslik, buni o'ziga ep ko'rolmaslik va ozorlanish... Xafa bo'lish demayman aslo. Baribir, inson xafa bo'lolmaydi, og'rinadi. O'sha eslatmaga qaray-qaray og'rinadi...



Eslatma: “Unutma, boshdan keehirganlaringning navbati aslo kutilmaydi... Unutma...”

BEHUDA

Bir soʻz bilan hamma narsani ifoda etish kerak boʻlganda, oʻylaymanki, shu soʻzni tanlardim. Lekin boʻlmaydi. Sabohiddin Ali boʻlganida edi, nima his qilganimni, albatta, aytib berardi. “Och qoldim”, — der edi mening oʻrnimda. “Sogʻindim, hech kimga ishonolmayman, yolgʻizman deb oʻylamayman, bunga aminman”, — deya olardi yana.

“Uxlashni xohlamayman, uygʻonishni xohlamayman, voz kechishni xohlamayman. Kulmoqni, yigʻlamoqni yoki gʻazablanmoqni xohlamayman”, — deyish uchun ham ishlatardi...

Ammo behuda... Ayni dam menga aytib beradigan na Sabohiddin Ali bor va na sen borsan.

OʻTISH

Xayolimdan minglab narsalar oʻtadi. Meni nega sevib, nimamga bogʻlanganding bu qadar? Shunga qiziqaman... Xoʻsh, mana shu baquvvat rishtalarga qarshi nega yonimda emassan hozir? Buni ham bilishni xohlayman.

Yosh bola eding, buni doim aytaman. Lekin sabab faqat shuning oʻzi boʻla olmaydi. Shu sababdan boʻlib oʻtgan hodisalar haqida necha martalab oʻyladim. Boshdan kechirganlarimizni sira koʻzdan qochirmay yana koʻp martalab oʻyladim. Bunday holatda inson ham vaqtning tez oʻtib ketayotganligini anglab yetadi, shundogʻam oz qolgan umrini takror eski xotiralari bilan yashab oʻtishda bir monelik koʻrmaydi. Ha, chindan ham seni juda qattiq



sog'inaman. "Go'zal bir xotira edi!" — deya shunchaki o'tib ketish mumkin emas. Ammo bilki, sen bo'lmagan vaqtlarda ularning ham unchalik qiymati yo'q.

Shuningdek, ularni yozar ekanman, bir savolning ichiga g'arq bo'lib ketaman... "Buning nima ahamiyati bor? Aniqrog'i, seni shu sababdan yoki bu sababdan sevdim, buning nima farqi bor?" — deb o'ylama. Men sening arziri sabablaringni yo'qqa chiqargan bo'lishim kerakki, hozirda yonimda yo'qsan. Albatta, shuni ham bilaman: Senga taalluqli va menga tegishli bo'lgan sabablarni hozir bilib-o'rganib chiqishim hech nimani ortga qaytarmaydi. Biroq bilasan: o'lishi aniq bo'lgan bemorga og'riqlarini yengillashtirish uchun og'riq qoldiruvchi dorilar berishadi. Hozir qilayotgan ishim aynan shuning o'zidir. Sekin-sekin o'layotganimni his qilyapman. Va sen bilan, sening sabablaring bilan o'zimni ovutib, dardlarimni yengillatishga harakat qilayapman... Sendagi mendan nimamni kamaytirdim?!

...

G'alati, shunday emasmi? Dard chekayotganimda ham senga ehtiyojim bor. Yurar, uxlar, o'yg'onar, "boshqa bir ayolni sevar" va hatto o'lar onimda ham senga ko'p ehtiyojim bor...

Chunki, sevgilim, nur sizgan joydan og'riq ham sizib kiradi... Bir kuni sen ham yuzingni nurga qaratasan...



AYYOR

Senga bu kecha yo'qligingdan so'z yuritmoqni istayman... Qanchalik qiyinligini, hech xayolimdan ketmaganingni, qanchalar sog'inganimni, sendan hech bir xabar yo'qligini, hozir qayerda ekanligingni bilishni xohlashimni, yana qanchalik soviganimni... Hech narsa qilmaganim holda holdan toydiruvchi bir yakshanba o'tkazganligimni, boshimdagi og'riqni, seni ko'p his qilganimni, sen meni his qilmaganingni va qanchalik uzoq ekanligingni... Tushunishingni bil-sam, yana qanchasini bitta-bittalab sanayman.

Ammo, bilaman: eshitmaysan. Ichimni yanayam sovitish uchun yotog'imga mendan avval yo'qliging kiradi. Va so'ngra mendan oldin uyg'onib, yangi bir sog'inchni hozirlaydi... Hali oyoqlarimni yerga qo'ymasimdan tepamda turgan sigaradan bir donasini yoqib, lablarimga qistiradi... Eshikdan chiqarkanman, ensamda jirkanch nafasini his qilaman... Keyin sen yana kelmaysan. Yana yolg'iz yuraman o'sha yo'llarda...

Senga bu kecha ertamni hozirdanoq qanday o'ldirganingni, bundan keyin ham doim shunday bo'lishini, bo'lganligini, g'azabsiz va sitamsiz aytib berishni xohlayman.

Ammo, bilaman: eshitmaysan... Bilaman: tushunmaysan... Bilaman: hozir sen o'zingning



yo'qligingni payqamasdan qadim va tark etilgan bir shahardek uyquga ketasan.

“Ayriliq ham bir savdodir”
(Zafar Guler)

YO'QLOV

Albatta, “Eng ko‘p nimani gapirsam, xayolimni ham o‘sha band qilgandir”, — degani emas. Zero inson ba‘zan xayolidagilarni yashirmoq uchun boshqa narsalardan gap ochadi... Shu atrofda, biroz narida, hammaga uzoq joyda turgan bir narsa bor. Yeta olmaganim, umidimni uzganim va “Bizning sira aqlimiz kirmaydi, yana shunday bo‘lsa, ayni shuni takrorlardik”, — deganim; ovozimda birdan qichqirib, vujudimni ikkiga ayirgan, biroq og‘rig‘ini o‘zimdanda boshqa hech kim sezmagan, his etmagan, faqat ko‘krak kerganim; kerilgan ko‘ksim yirtilgach, tinimsiz terisi yangilangani va shu holda har safar o‘sha og‘riq hissini totganim; barchaga og‘irlik qiladigan bir g‘urur bilan ko‘ksimda olib yurganim, yuzimni beqiyos ranglarga bo‘yagan bir rang jumbushi bor...

Sevdim men... Sevgilim, seni jondan ortiq sevdim.

“Menga nima olib kelding?” — deya qalbingni yo‘qlagan bir inson emasman. O‘sha onlarni,



ya'ni xotiralarimizni hech bir qiyinchiliksiz takror-takror eslayman. Qo'limda bir gugurt cho'pi bor edi, oxirigacha yoqdim va barmoqlarimda iz qoldirishini kuzatdim... Menga aytgan bir qo'shig'ing bor edi, tugagunicha eshitdim va dunyoning hozirga qadar ko'rib-ko'rmagan eng buyuk zilzilasi kabi meni tor-mor etishini sevdim... Tosh ustida tosh qolmadi. Yetmadi, so'ngra toshlarni oldim va birma-bir ustimga qo'ydim... Tirnoqlarim bilan ulkan chuqur qazdim. Barcha qurollarning nishonlari bir vaqtda men tomon qaratilganini va bir vaqtning o'zida tepkilarining bosilishini kiprik qoqmasdan kuzatdim. Qochmadim. Joyimda turdim, yerimni bildirib qo'ydim go'yoki, berkinmadim hech... Bir so'zning ma'nosini atayin o'zgartirgan harf edim... Hech narsani tasodifan qilmadim. Bildim, "Shunday", — dedim va orqada qolgan nima bo'lsa, barchasini xato deb bildim... Hisoblashmadim. Bir qichqiriq keltirganding menga, qulog'imni tilinguncha olib bordim. Chidadim, voz kechmadim va o'z qabriga gul qo'yib, o'zimning o'limimga kuldim... Avval ham aytgan edim, to'xtamasdan aytgan edim: "Men bir nargis gulining mubtalosi bo'ldim."

Sevdim men... Sevgilim, seni jondan ortiq sevdim.

"Menga nima olib kelding?" — deya qalbing-



ni yo'qlab, qo'llarimdan madad kutgan bir inson emas edim. Yuzimga ikki yuzi bo'lgan bir yuz qoldirding. Men o'zinga ham, atrofimga ham doim shu yuzni ko'rsatdim... Yashirgan qayg'um hamma narsaning rost tarafi edi. Alal-oqibat, men bilan qolar va, albatta, bir kun o'zini ko'rsatar edi... Ko'rsatdi ham... Menga ko'kdan sevimli olmalar sira tushmadi. Tushgani yulduzlar edi. Yongancha, erigancha eng zulmat burchaklarga chekindim.

Sevdim men... Sevgilim, seni jondan ortiq sevdim.

YO'L

Tongda hamma narsaga qo'l siltab uyg'onish degan narsa bor. Go'yo kecha naq o'n kishi do'pposlagandek vujudingda og'riqlar bilan va bamisli kuni kecha tashlab ketilgandek ichingdagi taxirlik bilan uyg'onishdek bir narsa bor. "Bundan ham yomon bo'lishi mumkin edi", — deya o'zingni ovutishga urinib, yomonning ham yomoni bo'lishi tushunchasini xayolingda tutmoqqa urinish degan bir narsa bor. Noo'rin gapirganlarga qarata: "Og'zingiz bunchalar shaloq", — deya aytgning kelib, yana, baribir, jim bo'lmoq bor...

"O'zi yo'q yuragingning, keyin esa ko'rish og'riqlarini ol va boshqa hech qachon seni ko'zim ko'rmasin, og'zing qusqi bilan to'la", — demoq



bor ekan, “Ha, haqlisan”, — deya bir kechiktirish ham bor... So‘nggi satrlarni hamma maroq bilan kutar ekan, gapirganlarimning hech biri senga borib yetmaydi, lekin, baribir, shu yerga: “Seni jondan ortiq sevaman!” — degan bir jumla qoldirmoq bor...

“Qo‘l kabi”
(Sezen Aksu)

AKS

“Bo‘ladi”, — deganlarimning hech biri chindan ham yuz bermadi. Go‘yo bo‘lmaslik uchun bo‘lgandi hamma narsa... Va hech narsa qo‘rqinchli bir tush emas, aksincha, qo‘rqinchli haqiqat edi... Bu hayot men bilmagan narsaning aks etishi edi. Yaxshi va yomonning ma‘nisini yo‘qotgani, nopok vijdonlarining soxta sevgilar-la o‘zini qoplagani, uslubiy va og‘zi buzuq bir og‘riq...

Nimani izlayapman? Nimani izlayotganligimni bilmas ekanman, izlaganim meni qanday topadi? Hamma narsa shu qadar qiyin bo‘lsa, nega tugashini xohlamagan narsalarimiz osongina yakuniga yetadi? Yuragimdagi qon nega hali-hanuz bu qadar qaynoq? Ichim ham qanday qilib o‘z-o‘zidan bunchalar jo‘shadi...

Sen mening to‘rt tomonimda ham borsan... Ichim eding, hammaga qarshi g‘azabim eding.



Nega meni yaralading? Sen qoldirgan ushbu jarohat nega o'zidan qobig'ini yorib chiqadi. Nechun tuzalishni xohlamaydi? Bu jarohat qanday qilib o'zini shunchalar qo'riqlay oladi?

Men tasavvur qilib bo'lmas darajada charchaganman. O'zimni qo'lga olishim imkonsizdek go'yo. Hammasini tushunib yetganimda o'shanda mag'lubiyatimning alamini his qilaman, buni bilaman. Hamma qator turadi va go'yo yolg'iz aybdor mendek bo'g'zimdan olishadi. Bu kunlarni yo'qlaydigan bo'laman. Kechiktirganlarim esa qasos payiga tushishadi.

...

Qo'llariga boqdim: barmoqlari jilmayar edi. Uning menga bo'lgan e'tiborini ko'rganimda o'zimni yanayam yaxshiroq tanir edim. Har on yonimda bo'lishni, men bilan tinimsiz suhbatlashishni xohlardi, biroq men bunday his qilmayotgan edim. Hatto o'zining nazarida menga nisbatan odatiy bo'lgan munosabati ham meni bo'g'ar va borgan sari undan uzoqlashtirardi... Men ham sevganimga xuddi shunday qilgan bo'lishim kerak edi... Ortiqcha e'tibor bilan uni voz kechilmas bir holga keltirgan va oxir-oqibatda u yo'qotishdan qo'rqmaydigan oddiy bir narsaga aylanib qolgandim...

Doim shunday bo'ladi: u aslida unga bergan



sevgimga loyiq emas edi, ammo men buni ko'rishni xohlamasdim. Ahamiyatsiz va shartsiz tarzda uniki edim. Unga deyarli bir qul edim. "To'xta", — deganda taqqa to'xtar, "Ket", — deganida yana harakatga tushar edim. Xullas, bir keraksiz parcha edim xolos. Ta'mirlangan buyumning ortiqcha bir parchasi edim. Bir inson o'zini keraksiz holga keltirmoq uchun harakat qilsaydi, faqat shundagina his etganlarimni his qila olar va yo'qotganlarimni yo'qotar edi... Yuzim, sasim, g'ururim, xullas, menga taallulqli, menga tegishli bo'lgan nima bo'lsa, barisi mendan birdaniga paydo bo'lgan sel kabi shiddat bilan oqib ketishgan edi. Bu shundayki, yo'lidan chiqqan hech narsaga shafqat qilmagan va ko'ra bila turib men ham bularni befarqlik bilan kuzatib turgan edim...

Endi esa ichimni ag'dar-to'ntar qilib, qanchasi qolganiga qarayman, qanchasini yo'qotganimga emas. Chunki qanchasini yo'qotganimga qaraydigan bo'lsam, o'sha mag'lubiyatlarni takror yashagandek bo'lar va so'nggi umidim — o'zimni ham yo'qotaman. Faqat yakunning eng boshidayoq kelganini qabul qila olsamgina, oyoqqa tura olaman. Har bir boshlang'ichning vaqti kelganida o'zini vayron qilganini ko'ra olishim lozim. Shundagina yakunni ayblashdan voz kechar va ushbu buyuk o'yinning dalillari qanchalik kuchli ekan-



ligini, qarshisida faqat o'zimning emas, hozirga qadar juda ko'pchilikning yengilganini tushunar edim va hech bo'lmasa, jarohatlarimning og'rig'ini qoldirgan bo'laman... Albatta, butunlay o'tib ketishini kutmayman. Butunlay o'tib ketishini kutish ham ahmoqlik bo'ladi, ham pushaymonlikning o'tmishimga soya solishiga izn bergan bo'laman. U holda o'zimni bu qadar qiynashimdan hech bir ma'no qolmaydi va o'zimga bo'lgan hurmatimni yaxshigina yo'qotaman. Hamma qatori bir odam bo'lishga aslo chidolmayman. Hech bo'lmaganda bularning men uchun bir ma'nosi bo'lshi kerak. Boshqalarning nima deb o'ylashi ahamiyathi emas. Men o'zim to'g'ri deb o'ylagan ishni qildim. Bunchalar kamayib ketishimni bilmasdim, lekin bilganimda ham biror narsa o'zgaradi deb o'ylamayman. Tuzatib bo'lmaydigan bir gunoh mashinasi kabi maqsadim tomon to'g'ri ketardim. Noto'g'rimi? Buning kimga qizig'i bor?!

Xo'sh, bizga tegishli biror narsa qolganmidi? Yoki umuman bormidi? Bunday deb o'ylamayman... Biroq bu yerlarda o'lganlarning qanday o'lganligiga qarashadi, nima sababdan o'lganiga emas. Ular ham yashaganmidi, ularga ham tegishli biror narsa bormidi, bunday deb ham o'ylamayman... U holda bu sukunat nima uchun, hech narsani ulashmaganlar kimlar? Bu o'liklarni,



o'lganlarning sabablarini tortib olganlar kimlar?
Qo'llarim nega bunday og'rimoqda?

Mana shunday ko'p dard chekkan insonlar, albatta, bordir, bundan umid qilaman. Tashqariga chiqarmasalar ham, ichlari ag'dar-to'ntar, birovlar tomonidan tor mor etilgan kimlardir bo'lishi kerak albatta... Hatto ularning borligini menga qarashidan anglay olaman. Qo'llariga boqaman, xuddi men kabi ularning qo'llari ham quchishni istaydi go'yo...

“Nega?” — dedi... “Nega qo'llaringga boqib, ko'zlarigni olib qochyapsan? Tutishingni xohlayapman, javob ham kutmayapman sendan. Lekin tortayotgan azoblaringning seni yutib yuborishiga izn berma. Hozir sen uni biroz bo'lsada o'zingdan uzoqlashtira olasan, biroq kun keladi, hattoki shunga ham toqating qolmaydi, taslim bo'lasan va bo'yin egasan... Keyin esa hayoting asl o'rnida bo'lmaydi, doim orqaga ketadi. Undan keyingisini esa xayolingga ham keltirolmaysan. Yashamoq sen uchun faqatgina bir majburiyat bo'lib qoladi... Doim qo'rqasan, doim ortga chekinasan. Bunday bo'lmasligi kerak. Men uchun emas, buni o'zing uchun qilishing kerak... Oyoqqa tur va meni bag'ringga bos. Bag'ringga bosginki, o'sha taftni xotirla yana. Avval his etganlaringni yana his eta olishing mumkinligini bil. Bu aslida o'zingning qo'lingda ekanligini angla.



Sevgi, aslida boshqa bir insonda emasligini, o'zing sevganingda haqiqiy sevgi paydo bo'lishini ko'r. Menga qara! Senga sendan hech narsa kutmay sevgimni bermoqdaman. Xohlasang qabul qil, xohlamasang yo'q. Bu sevgining buyukligidir. Sukunatning dahshatli ulug'vorligidan qo'rqma! Hamma narsa bilan yuzlash. G'avg'o ko'tar, sindir, sohib yubor, baqir-chaqir, ammo jim qolishdan ham chekinma... Nega sukut qilganing bilinmasin ekan? Chegaralaringni o'zing belgila! "O'rninigiz shu yergacha, mana shungacha!" — demoqlikni bil. Qo'g'irchoq bo'lish yoki qo'g'irchoq teatri tomoshabinlaridan biri bo'lmoq kerak bo'lsa, yo o'sha qo'g'irchoqni sen o'ldir, yoki uni sen o'ynat... Qaysidir biri ketar bo'lsa, yo'lini ko'rsatib qo'y... Hech kimning oxirgi nafasi bo'lma. Seni baloga qo'yishmasin... Bu narsalarni hozir senga aytgan bo'lsam, kun kelib qo'llashing uchun jinoyat qurolini qo'lingga tutqazganimni bilaman. Biroq qo'rqmayman! Aksincha, so'qir bir ovchiga nishon bo'lishdan yoki baxtsiz hodisalar sababli biror falokatga uchrashni istamayman. Chunki bu meni qattiq yaralaydi. Ha, o'ldirmaydi, faqatgina yaralaydi. Hozirga qadar nimalarni boshdan kechirgan bo'lsam, sira pushaymon bo'lmadim va hech bo'lmaganda "Men bunga loyiq edim", — deya oldim... Menga ortingdan meni uyaltiradigan narsa qoldirma..."



Qo'llariga boqdim, barmoqlari uni tark etayotgan edi. Qalbim sekingina bosh egdi va "O'zini tinglashni xohlayotganini" aytdi. Men ham qalbimni o'sha yerda qoldirmoq istadim. Zotan, yuragimning ham ayni damda qanchalar horg'in ekanligini va kimgadir suyanishni xohlayotganligini payqagan edim. Ich-etim titrardi. Begona bir qo'l kelgan va pardalarimni tortib, derazalarimdan mo'ralar edi. His etayotganlarim ham og'riq, ham xiyonat, ham qiziqish uyg'otardi... Uzoq-uzoq gapirib berganlari, aslida, men bilmagani narsalar emasdi, biroq ba'zi narsalarni boshdan takror kechirmoq uchun o'zimni tayyor his etmayotgan edim. U so'zlar ekan, ba'zan unga bildirmasdan jarohatimga boqardim va o'shal jarohatim faryodlar otardi. Jarohatimni unutilish qo'rquvi bosardi. Ha, buyuk faryodlar bilan uning ovozi bostirishni istar va ich-ichidan buni unchalik uddalay olmayotganini anglar edi. Jarohatim ustiga o'limning o'sha sovuq nafasi tushayotgandi. Hali o'zimdan boshqa kimningdir o'lganini ko'rmagan edim. Birinchi marta bir "begona"ning o'limiga shohid bo'layotgandim. Qo'rquinchli va juda g'alati holat edi bu. Go'yoki o'lgan narsa, albatta sendan bir parchani yonida olib ketardi. Bu gal nimamni olib ketadi? Yoki hali ham oladigan biror narsam qolgan bo'lsa,



demakki, men o'zimda yo'qotishga nimalardir qoldirishning uddasidan chiqibman... Bu g'alati bir shaklda menga umid va baxt berayotgan edi. Yog'ayotgan yomg'ir birdan to'xtab, quyoshga taslim bo'lishiga, keyin esa kamalak chiqishiga o'xshardi...

Bitta emas, bir nechta kamalak bo'y ko'rsatgandi. Ko'kda hali ham yomg'irli bulutlarning borligini ko'rardim, biroq go'yo quyosh qo'llari bilan o'sha bulutlarni parchalab, o'ngu so'lga qarab uloqtirardi. Osmon yuzi qoramtir paxta parchalari bilan to'ladek edi. Buyuk bir urush bo'layotganligini ochiq-oydin ko'rib turar va faqat tomosha qilish bilan cheklanardim. Ichimdan bir ovoz: "Taqdiring bu emas, kamalak ostiga qadar yur va harakat qil", — der edi... Buni uddalay olar edim, zero avval ham uddalagan va o'z davrida g'alaba qozongan edim

Qo'llariga boqdim, barmoqlari endi yuzimda edi. Jimjilog'i lablarimga ohista tegib turar va ko'rsatkich barmoqlari bilan esa o'ng ko'zimning ostiga barmoq izlarini qoldirardi. Necha yillar avval undan tortib olingan bir narsadek edim go'yo va u hozir yo'qotganini qaytadan qo'lga kiritayotgan edi. Yuzimni ohista egdim va ko'zlarimni yumib, o'zimni hovuchining ichiga tashladim. Kichkina qo'llarining ichi keng bir



uyning hovlisidek edi... Yengilgina shamol esar hamda bo'ynimning o'ng tomoniga kichik, salqin o'pichlar qoldirar edi. Bundan oldin shamolning ham dudog'i borligiga hech e'tibor bermagandim. Yotog'iga uzangan bir suvning rohatligi ichida oqib, yakunida unga qorishib ketmoqni istardim. Ayni damda jarohatim o'z faryodlarini yanada ko'paytirgan va ovozi ko'proq ko'targan edi, ammo uni eshitishni xohlamasdim...

Tabiatning shafqatsiz qonuni haqida o'ylar va o'lgan nima bo'lsa bo'lsin, o'rniga, albatta, boshqa birining kelishini, kelganida ham eskisiga doir hamma narsani o'chirishini aqlimga yaxshilab o'rnashtirib olgan edim. Bu faryodlar menga tegishli emas edi va meni aslo o'ylamasdi. Chunki barcha jarohatlar xuddi insonlar kabi faqat va faqat o'zini o'yldi. Uning istagi men bilan yashash emas edi. Jarohatim ayni shu yerda meni yo'q qilmoq va o'zi abadiy yashamoqni istardi. Bunga ortiq izn bera olmasdim. Jarohatimning yashash sababi va asosi men edim. Men bo'lmasam, jarohatim qanday mavjud bo'la olardi?

Jarohatimga jahl bilan o'girildim va ortiq jim bo'lishini istadim! "Ruxsat bergunimga qadar men bilan qolishing mumkin", — dedim unga. "Shuncha paytdirki, seni o'zim bilan olib yurganim uchun mendan minnatdor bo'lishing lozim-



ligini bilib ol! Bundan keyin men xohlasamgina men bilan bo'lishing mumkin!" — dedim. Ushbu buyuk irodamdan so'ngra ortiq menga qarshi chiqa olmasligini tushunishi kerak edi. Men yana o'zim bo'lishni xohlardim va buni majburan bo'lsa-da qabul qilishi kerak edi...

...

Ko'p o'tmay jarohatim jim bo'lgancha o'z burchagiga chekingandi. Hali ham qalbimda edi, ammo yorug'lik tushmaydigan, kimsasiz bir yerda yashamoqni qabul qilgandi. Qo'llariga boqdim, barmoqlarini barmoqlariga kirishtirib olgandi. Katta bir narsa tugagan va o'rniga undan ham kattasi boshlangan edi... Buni bilmasdim...

Men bilgan yagona narsa qo'llarining terlagani edi va, qizig'i, sevmagan bir insonning qo'llari aslo terlamasdi.

YOG'DU

— Muammo nimada?

— Sal avval tinglagan qo'shig'imda. "Sen menga kech qolibsan, men senga erta", — deyildi qo'shiqda.

— Xo'sh, nima muammo ekan?

— Bu yana uzoq davom etadimi?

— Yo'q, biz o'libmiz...

Biz chindan ham shunday edik... "O'libmiz",

— deyish uchun o'lgandik. O'lik ekanligimizni



anglamoq uchun o'lgandik... Natijasi boshidanoq aniq edi, ammo ma'lum vaqt kurashdik. Biz "Bo'ladi!" — desak ham, "Bo'lmaydi!" — deyish uchun navbat kutganlar bor edi... "Navbatga kelding", — deding. "Men hech narsa qilganim yo'q", — dedim... Ochig'i, biz oyoqlarimizni to'xtata olmadik...

Aniqrog'i, biz katta tezhk bilan to'qnashdik va jigarlarimizni almashdik... Sen tezlik bilan ketayotgan mashinadan o'zingni otding, qalbim sindi... Yomg'ir yog'di, shamol esdi, chekish taqiqlangan joyda sigaret chekdik, go'zal fikrli kishilarga hasad qildik, jozibali ko'rinardi, xato qilish ehtimollarimiz ortib borar edi, bor-yo'g'i shu...

Biz chindan ham shunday edik... Bir muddat kurashdik. Xiyobonlarni, yo'llarni, bitta stakanini, bitta qoshiqni va ayni dudoqlarni egallab oldik xolos... Bo'lmasdi... Biz "Bo'ladi!" — desak ham, "Bo'lmaydi!" — deyish uchun navbat kutganlar bor edi...

"Yog'dular orasida qoldim" — deding. Yog'dularni o'chirib, "Yog'dularga burkanib uxla", — dedim... Yog'dularga burkanib uxla... Yog'dularga burkanib...



*"Olimdan nari bir joy yo'q", — degan bir o'y keladi xayolinga.
Biz qiymatini bilmagan nima bo'lsa, o'sha chiziqdan o'tgach,
tavba yo'q, qaytish yo'q...*

*"Ortidan jig'layman", — deydigan bo'lsangiz, yelkasiga bosh
qo'yib jig'lashdan xjolat tortmang.*

*Bagringizga bosing, qadrlang, yolg'ondan uzoq bo'ling va,
albatta, kun kelib hayotning tugashini ham esda saqlang.*

DAFTAR

Hech kimni qadrlamayman. Qadrlash nima o'zi? Qalbingga yondosh qalbimmi? Qilgan ish-laringga javoban qilganlarimmi? Sevgimi? Ba-ham ko'rishmi? Buni nima bilan o'lehaymiz? Fidokorlik bilanmi?

Men ushbu hayotda mazkur yuzsiz jumlaning soxtaligini tushunadigan darajada yashadim... Voz kechib bo'lmaydigan insonning o'zi yo'q ekanligini, manfaat, albatta, qayerdadir ustun kelishini, buzilmaydigan, sinmaydigan, bukil-maydigan hech narsa yo'qligini yaxshigina bilib oldim...

O'zimga to'qman... Hech kimning yo'lini to'-sib, oldinga o'tmadim, hech kimning ortidan ham



qolmadim. Qadr topmoq uchun o'zini pullagan insonlarning, o'zidagi ko'ringan kamchiliklarini boshqasi bilan to'ldirish uchun kurashishlardan ham anchagina uzoqdaman. Shu sababdan yo'llarimni soxtalik, yolg'onlardan ayirganimga ham ko'p vaqt bo'ldi.

Hayotim oppoq sahifa emas... Hech kimni qoralamadim, ammo ustiga chiziqtortganlarimning nomi hali ham daftarimda turibdi.

ZIYON

Ba'zi narsalarning davomi yo'qdir. Ba'zi narsalar deb ataganlarimning, aslida, menga doim foydasi tekkan narsalar ekanligi ham g'alati, ham juda ahamiyatlidir. Bu haqda hatto tortishishni ham xohlamayman. Nimani sevgan bo'lsam, mendan bir qadam uzoqlashdi. Nimani qadrlasam, o'zini sindirdi. "Bu meniki, menga tegishli, u bo'lmasa, yashay olmayman", — deydigan hech narsam qolmadi. Tilak tilamayman, umid qilmayman, boshimni osmonga qaratib yulduz tanlamayman. Bu umidsizlik emas, balki o'zimni qo'riqlamoq. Himoyaga o'tib, qo'llarim bilan kimningdir qo'lini tutayotgandek emas, doim urushga tayyordek musht tugmoq... Shu sababdan ortiq sevgimdan og'iz ochmaslikni o'rgandim va hatto seva olish ehtimolim bo'lgan narsalarni



sevmoqdan ham voz kechdim...

Chunki qayerda urush bo'lsa, eng avval men yaralandim. Qayerdagi go'zal narsa bo'lsa, doim o'sha navbatning oxiridan joy oldim. Kech qoldim. U yoki bu shaklda kech qoldim...

Men tuzalmayman. Yangi yulduzlar, ichida hayot bo'lgan yangi sayyoralarni ixtiro qilishar, choyimni aralashtiradigan robotlarmi — allambalolar kashf etishar, ammo tuzalmayman. Men ham bundan buyon sevgan narsalarimni aytmayman, bu haqda bahs etmayman... Bittasiga ovo-ra bo'lib: "Men bilan bo'l, yonimda qol, ketma, sev, qattiq sev, onamdan ham ko'proq sev meni, men ham sening qo'llaringdan o'payin", — demayman... Hech narsaga ko'ngil qo'ymayman. Zero, boshqa hech qachon xotira sifatida qolishni istamayman... Nima qilish kerak bo'lsa, yolg'iz qilaman, ammo qiyinchilikni ko'rgach, qiyinchilikning eng oson ziyon yetkaziladigan tomoni bo'lishni ortiq istamayman... "Arzimaydi" degan narsang eng ko'p menga tegishiga aslo izn bermayman...

Kelma, yaqinlashma, xayolingga ham keltirma meni... "Senga aytganlarimni boshqa hech kimga aytolmayman. Yashirmayman: ko'ksimda yuqoriga qarab oqqan bir daryo bor. Qo'llaringdek muazzam... Va qanchalik muazzam bo'lsa, xuddi o'shandek yomon bir narsa bu. Bo'g'zimni



yirta-yirta yutinganim — ayni shudir menga azob bergan. Sukunatni o'ldirgan faryod bo'lsa, faryodni ham o'ldirgan sukunatdir. Egnimda foydasiz, ammo faqatgina og'irlik qilgan bir sovut bor, sen yo'qligingda ovozim o'ladi... Yuzimni ko'zlaringga suqishni xohlardim. Xayolim tasavvur qilib bo'lmas darajada qorishiq, horg'in, tushkun", — deyishni xohlardim senga, agar ketmasayding... Ha, bir boshdan yetarlicha paris-honligim bilan bularni senga aytib hayqirardim...

Ammo aytmayman... Kelma, yaqinlashma, xayolingga ham keltirma meni... Men qiyinchilikni ko'rgach, qiyinchilikning eng oson ziyon yetkaziladigan tomoni bo'lishni ortiq istamayman... "Arzimaydi" degan narsang eng ko'p menga tegishiga aslo izn bermayman... Izn bermayman...

G'ayxshi bo'lmoq har doim ham

foyda bermaydi.

Mening singan umidlarimning

Sinadigan joyi qolmadi boshqa.



SOG'INCH

Menga qoldirib ketganlaringni bag'ringa bo-solmayman va senda qoldirganlarimni nihoyatda sog'inaman. Ayni damda suratlaring va bilakla-rimga qoldirib ketgan iforing yetmayapti. Yuz-imning bir burchiga qo'ndirgan tabassuming bo-ra-bora yo'qolib bormoqda. Aqlga sig'maydigan bir shaklda tashlab ketilmoqdaman, o'zimcha...

"Ayriliq bir shamol kabi bo'lishi kerak", — deyman... Bu kecha dengizdan arazlagan bir qayiqning yelkanlaridek nafasingga, ovozingga talpinaman...

SIRT

Endi ko'p narsaning ahamiyati qolmadi. Gapirish-ning, sukutning, chiroyli ko'rinmoqning, uyquning, ni-madir yeb-ichishning, kunlarning, oylarning... Biz yo'qol-ganmiz va qo'rquvim — osonlikcha boshqa bir inson tomonidan topib olinishimiz. Qo'rquvim — talon-taroj bo'lish. Qo'rquvim o'zga bir insonning seni sevishi emas, balki sening boshqa bir odamni sevib qolishing mumkin-ligi.

Qayerda bo'lmay, ketishni xohlayman. Yoki sening yoningga bormoqni istayman. Hayotimning darchasidan hech kimning ichkari boqishini istamayman. Qolaversa, meni o'ylantirgan ko'p narsa bor. Ichimda ulg'ayib, men-ga joy qoldirmagan harflar, yo'llar bor...

Men seni sevdim. So'zlarni hozirgidek hech qachon to'g'ri safga tiza olmaganman, meni afv et... Ammo... Ammo qo'llaringni o'zimmikidek tutdim, egalik qildim.



Bir xil hamyonni ishlatdik va ayni bir iforni...

“Ketma”, — deya olar darajada hali ham men bilan ekansan, qaytib yolg‘iz qoldirma meni... Sahifalarda yo‘qotma bizni... Ortiq ortda qolgan tarafimga ham qo‘l uzatolmayman, tushunyapsanmi?

Qo‘llarim yo‘q. Sirtim yo‘q. Sochlarim yo‘q. Va tag‘in qattiq sovqotyapman...

UCHUQ

Ayni dam seni ro‘paramga o‘tirg‘izib, senga uzoq gapirib berishni xohlayman. To‘g‘rirog‘i, yanada ko‘proq suhbatlashishni istayman. Nima haqida bo‘lsa ham! Soch turmaklaridan, bu mavsum urfga kiradigan kiyimlardan, la’nati pul inqirozidan, ishsizlikdan, yana la’nati siqilishlarimdan, men ichmaydigan pivoning alkogol tarkibidan, labining bir uchida turgan uchuqdan ham o‘pishni xohlaganimdan, bu ahmoqona yo‘qligingning sababidan so‘z ochmoqlikni istayman. Yoki o‘zing ayt: hammasini qaytadan boshlash uchun qayerdan boshlashimiz kerak?

“Seni sevaman...”

Albatta, shunday bo‘lishi mumkin. Kimsasiz bir shahar haqida o‘yladim. Inson oyog‘i, qushlarning qanoti yetmagan, hech kim bir-biri bilan gaplashmaydigan va biz “ovoz” deb atagan bu narsalar bema’ni harflar to‘plamidir deya



xayol qildim. Shu sababdan biroz jim bo'ldim. Bema'ni narsalarga ma'no qo'shish o'rniga qo'limizda turganlarni eplaylik dedim. Axir qayerdan bilay: quchoqlashgan vaqtimizda o'tib ketadi deb o'ylagandim. "Kimdir yana biz uchun bir qo'shiq yozadi va o'zimizni o'sha yerlarda topamiz", — dedim. Aytgancha, hozir sen bilan yana bir bor o'yin o'ynaydigan bo'lsak, qaysi o'yinni o'ynagan bo'larding?

"Ko'z bog'lash!"

To'g'ri, zotan senga yummmoqlikni sira o'rgatolmadim. Bu o'yin har doim o'ynalmaydi... Masalan, sen so'zlaringni yopasan va men sukunatingni o'z sukutimga tortaman. O'zing tushunib ol: ochiqchasiga "Seni o'paman!" — deyishga olib kelyapman.

Nima bo'lsa ham...

Ahvoling yaxshi bo'lsa, shu yerda — bir joylarda tur. Ko'rmasam ham, baribir, chiroyli bo'l. Bilasan: sochlaringni to'lqin-to'lqin qilganing yoqadi. Tag'in xuddi shunday qil... Masalan, bir kun ertalab turganingdek chiqib kel. Yuzingni ham yuvmasdan, oq ko'ylaging va ko'k jinsi shiming bo'lsin egningda. Tanib bo'lmas darajada parishton bo'l, ahamiyati yo'q. Bilasan: seni mahsharda ham taniyman.

Xotima o'laroq:

Hammasi o'sha-o'sha... Ertaga ham ish kuni,



ammo kunlar meni hech qiziqtirmaydi. Kaftlaringdan o'paman, jonim. Albatta, ko'rishaylik...
Juda sog'indim.

“Duch kelgan bir inson qo'limdan tutsin”, — demayman va yo'llardan ham ranjiganim yo'q. Qo'ynimda saqlagan g'amlar bilan quchadiganim bor mening. Abadiy hayot chorasini topgandek jiddiy, ahamiyath va sog'inch bilan quchadigan insonim bor.

2013-yilning may oyi

RASMAN

Uzun-uzun yozmoq yaxshidir. Zero, uzun yozadiganlar o'zlari xohlashgan joyda sukut qila olishadi. Bir olam keraksiz narsalardan so'z ochib, hammaning boshini qotirasan. Inchunun, mening ham boshim qotadi. Biroz telbalikdek... Xuddiki “Meni yozganlarimdan tanib oling, gaplashmang men bilan,” — deyayotgandek. “Ichimda yashiringan bir kimsa bor va, aslida, u bilan Ferdi Tayfurni tinglaymiz”, — deydigandek...

Shunday, xohlagan vaqtimda darhol mavzuni o'zgartira olishim mumkin. Bir necha kun avval 1973-yilda ichilgan qahvalarning xotirasi tugaganligi haqidagi bir maqolani o'qidim. “**Nahotki,**



shunchalikmi?" — dedim. So'ngra bunga nega bunchalar kirib ketganimni o'zim ham tushunolmadim. O'zimdanda kuldim. Buning ortidan g'alati bir huzurlanish his etdim. Qolaversa, u vaqtlarda biz hali tug'ilmagandik hamda biz ichgan qahvalarning hali ancha vaqti bor edi.

Axir, bu borib turgan telbalik edi. "Meni nimaga qiziqishim haqida siz qaror qabul qilolmaysiz, meni o'zgartirishga harakat qilmang, yolg'iz tashlab ketdim deb ham o'ylamang. Sizni ko'z o'ngimda bodroqqa aylangan jo'xoridan boshqa biror narsa bu ahvolga solmaydi!" — deya baqirdim.

Ayni damda yolg'iz edim-ku, o'sha daqiqalarda o'zimdanda qo'rqibman. Turdim, biroz suv ichdim. Seni yana biroz sevdim. Xayolimga kuli-shingni keltirdim. Rasman og'zingning burchiga non botirib, uzoq-uzoq kuzatdim seni.

"Rasman", — demoqdaman, chunki yonimda faqatgina rasming bor edi xolos...

Meni bilasan: ichimdagi sukunat boshqa bir inson uchun uyg'onmaydi. Hatto sog'inchingni-da hech kimning borligiga alishtirmam. Qalbimni boshqa hech kim vayron qilishiga izn bermayman.



SAYR

“Nima gaplar? — deyman ba’zan o‘zimga o‘zim. — Hayoting qanday ketmoqda? Yolg‘izligingdan mamnunmisan? Qadrli ichim, sening ham ichingda katta bir bo‘shliq bormi? Sen ham kechalari uxlashga qiynalasanmi? Ochmisan? Uyingdagilar qanday? Ertaga ishga nechada ketasan? Ajoyib bir joy topdim, oqshom bir aylanib kelimizmi sen bilan? Egnimga mavsumlik kiyimlar olaman, senga ham ul-bul xarid qilamizmi? Qara, qahraton qish kelmoqda, sen ham sovqotasanmi? Bir qahva tayyorlasang-da, birga ichsak! Nega bugun bunday jimsan, suhbatingga ham to‘yib bo‘lmayapti!

Mayli... Kuning qalay o‘tdi? Sog‘indingmi meni? Hech narsa qilolmasak, pardalarni va kreslo jildlarini o‘zgartiramiz, qanday? Eh, senimi, nega xafa bo‘lasan? Dunyoda boshqa inson yo‘qmidiki... Sigara chekib, bir narda o‘ynamaymizmi? Bilasanmi, o‘tgan kuni uni ko‘rdim! Hali ham juda go‘zal edi. Xuddi seni sevishini aytgan paytidagidek go‘zal edi. Aslida, buni senga aytmoqchi emas edim, lekin, qara, chidab turolmadim. Biroz ozib qolibdi, biroq o‘sha-o‘sha, hamon go‘zal kulardi. Darhol yoniga borib, sening ham uni qattiq sog‘inganligingni aytmoqchi bo‘ldim, lekin voz kechdim. Chunki... Yonida bittasi bor edi... Senga tengdosh bo‘lgan



boshqa biri... Lekin, ishon, yonidagi nusxa sira chiroyli kulmas edi.

O'zimni zo'rg'a tutib turdim. Sal qolsa: "Sen kimning tabassumi bilan boshqasiniki bo'lding?!" — deb yuborardim... Tag'in biroz qizishdim. O'zimdanda ham, sendan ham, undan ham... Sen ham qo'llarimdan chiqqan yong'inni his qildingmi? Qadrli ichim, sening ham bo'g'zingga nimadir tiqildimi? Holbuki, gapiradigan qancha gap bor ekan ... Ajab, nega o'zimni tutib turdim?

Sog'inmayman! Yiqilmadim! Axir, nechun boshqa bir nusxaga ham bunday chiroyli kula-di? Nima keragi bor... "Seniki, — degan edi. — Yuzim, ko'zlarim, qo'llarim, oyoqlarim — nimam bo'lsa, bari seniki, men senikiman", — degan edi.

Sog'inmayman men! Sog'inmayman..."

BIRLASHMOQ

Albatta, har kim yig'lash uchun o'zicha arzirli sabablar topa oladi. Ba'zilar vafot etgan onasini, otasini, farzandini yoki sevgilisini o'ylab yig'lar ekan. Ayrimlar esa boshqalar uchun o'ta ahamiyatsiz ko'ringan narsalar uchun yig'lashi mumkin. Masalan, men spagetti pishirayotganimda ko'p yig'layman. Makaron donalarining suv ichida sekin-asta yumshab, bir-biriga suyanishini ko'rish meni to'lqinlantirib yuboradi. Xayolimga darhol sen kelasan... Qayerdasan? Nimalar qil-



moqdasan? Kim bilansan? Hali ham makaronni sevasanmi?

Xuddi shunday: boshqalar uchun bema'nidek ko'ringan narsalar ba'zan insonning jonini sug'urib olishga kuch topadi. Shuning uchun maqolalarning bu qadar soddalashtirilishini hech tushunolmayman. Darvoqe, kechasi muzlatkichni ochganimda ham juda mahzun bo'laman. O'ng tarafda turgan bir anor siropi bor. Qancha paytdan beri shu yerda turibdi, ochig'i, eslay olmayman ham. Balki uni olganimga bir necha yillar bo'lgandir. Lekin uni ko'rganimda ham istar-istamas seni o'ylayman... Ichida bir qancha anor bor va bir-birlarini quchishdan ham o'tib, ichma-ich bo'lib qolishgan. Ko'zim qiymaydi.

Zotan, bir o'zim anor suvini nima ham qildim? Salat ustidan quyish kerak. Yoki achchiqqina pishloqli kotlet ustiga... To'g'ri, sen pishloqli kotletni ham juda sevar eding... Mana, senga arzirli sabab... Endi menga yig'lashni kim ham taqiqlay oladi?

Qayerdasan? Nima qilyapsan? Muzlatkichdagi anor siropi kabi unutilgandek his qilyapman o'zimni... Qayerdasan?



Darhaqiqat, nimani o'ylaganingiz, nimani his qilganingiz, xullas, sizdagi vaziyat hech kimni qiziqdirmaydi. Hayhotday muz parchasidek sovuq bo'lish yetarli bo'lmaydi, insonlar shunda ham sizdan nimalarnidir kutadi... Qo'l tekkizsangiz, kesaman. O'zimga teginsam, erib oqaman. Na bo'g'zimdan o'tasiz va na men sizni yutaman...

Uyqumni yashirgan bir sirim bor. Hech uyg'onmoq istamaganim... Horg'inligim, barokatom va qo'lim yetmagan bir tomonim bor.

ISTILO

Seni seva boshlagan vaqtimda yashash uchun bir qarich yer ham qolmagan va qushlarga, o'tga, axlatga, gulga, xullas, xayolingga nima kelsa, barchasiga, ha, barchasiga she'r bitib qo'yilgandi. Men ushbu tongda ham o'zim xohlagan joyda uyg'ona olmadim. Bu tongda ham tag'in kechirdim dunyoni. Tag'in sensizlikni afv etdim, tag'in o'polmadim seni! Ketolmadim ham! Tushunyapsanmi?

Men ushbu tongda... La'natlar bo'lsin, seni juda sog'indim.

URG'U

Hech bo'lmaganda ushbu bema'ni hayotda seni tanidim. Dunyoning qolgan yarmi bilan ishim yo'q! Olomon ichida sensiz tayyorlangan,



hatto ichida pishloq, zaytun, tuxumli sosiska, besh turli non bo'lgan nonushta bilan ham ishim yo'q. Qush suti bilan, arslon suti bilan, sevishmoq bilan, yolg'iz qolmoq bilan, futbol tomoshalari bilan, qimmatbaho mashina bilan, yo'llar bilan, koinot bilan... Hech narsa bilan, ha-ha, hech narsa bilan ishim yo'q!

Men seni sog'indim. Yuzingga boqib, minglab marotaba o'lmoqni sog'indim!

SITAM

Mening xatom eding, bilardim.

Bir xatoki, barcha haqiqatlarni yuvib ketadigan imtihonning natijasi bo'lsang kerak.

Ammo men bir marta bo'lsa ham, o'zim uchun xato qilishni xohlagandim.

Va haqiqatlarimning hech qanday ahamiyati yo'q edi!



"Anglamasding"
(Ayla Dikmen)

SAFAR

Meni sevishingdan ko'ra ichimdagi sevgini qaytadan maydonga chiqarganing qiymatini senga hech tushuntirolmadim. Zotan, qalb birinchi sevgidan keyin o'ladi. Umuman olganda shunday. O'sha birinchisida bo'lgan samimiy, soft tuyg'ularni keyingi safarda ham his qilish ehtimoli unchalik yuqori bo'lmaydi. Hatto keyingi safarning ham bo'lishi aniq emas. Payqagan bo'lsang, safar deyapman. Takorlanishdan bahs etmayapman. Bir sayohatdan, insonning o'zidan ketishidan, yana yo'lga tushishidan bahs etyapman. Sevgi o'zingdan ajralib, boshqa bir inson bo'lishga urinish harakati emasmi? Insonning o'z terisini tark etishi... Qora ekan, oq bo'lishi... Quyosh nur sochib turganda to'satdan qor yog'ishi...

Nuqul salbiy misollar keltirganimga boqma. Aksincha o'zgarishlardan gapirmoqdaman ko'proq. Hayotimga qo'shgan mazmuning naqadar kuchli ekanligini tilga chiqarishga harakat qilyapman. Nosoz narsaning buzilishidek. Xuddi mana shunday: Seni ko'rganim, o'sha muhtasham iforni his qilganim va o'pganim zamon go'yo yuzim buzilardi. Yuzimning ichidan bolalar chiqib, yonoqlarimga tegishardi. O'sha kichik



qo'llaring... Ancha vaqtdan beri men erisholmagan o'z-o'zimga teginardim. Aksariyat paytlarda nima qilayotganingdan xabardor eding. Balki, shu sababdan ham senga gapirmagan bo'lishim mumkin. Yoki har doim sevgining bir sehri borligini aytarding, ana shu sehrning yo'qolishidan qo'rqdim deb o'ylayman. Bilmayman hozir... Yana xayollarim chalkashib ketdi... O'sha voz kecha olmagan jumlamni takrorlayman shu yerda: "Aqlim jon bermoqda. Va aqli o'lgan inson bir telbadan ham ko'proq telbaroqdir."

Iltilmos, hayron bo'lma. Xayolimni egallaganing rost... Mening "uzoqlarim"ga boqqaning, hatto "uzoqlarim"ga ketganing ham rost... Ammo bir insonning ichi qanchalik uzoq bo'lishi mumkin, buni sen ham bilolmasding. Barchamizning ichimizda yo'qolgan bo'limlar bordir. Barchamizning ichimizda aslo borilmaydigan qorong'iliklar bordir. Ichimiz batamom oydinlikdan iborat emas. Balki, bizni oyoqda tutib turgan ham bu noaniqligimizdir, ya'ni o'sha "bolalarcha" tomonimiz.

Qanchalar qo'rqinchli-ya, shunday emasmi? Sen-chi... Sen bularni bilarmiding? O'sha mag'rur qizaloq... O'sha mag'rur qizaloqqa tegindingmi hech? O'zingni aytyapman. Sen o'zingga menchalik qiziqdingmi hech? O'ylaymanki,



xuddi boshqalar kabi sening ham qo'rquvlaring bor edi. Hech bo'lmaganda bo'lishi kerak edi. Bu qadar jasur bo'lmoq insonni boshi berk ko'chaga olib kirib qo'yishi mumkin. Inson momaqaldir oq gumburlaganda ham quloqlarini yopib, kimnidir quechish tashvishiga tusha olishi lozim. "Atrofimda hech kim qolmasa, nima qilaman?" deya olmog'i kerak. Keksayishdan so'z ochyapman. Hech qachon uyida yolg'iz yashaydigan bir qariya bo'lib qolishni xohlamaganman. Kitoblardan boshqa do'sti bo'lmagan, dasturxonidan doim bir kishilik taomlar joy oladigan uyni xayol qilmadim. Ha, men bundan doim qo'rqdim.

"Menga hech kim turmushga chiqmaydigan bo'lsa-chi!" — degan vaqtimda sen kelding. Takrorlayman: menga rozilik berding. Jonim qadar his etdim buni. Ba'zan dard berding, ammo hayotimning ko'p lahzalarida totgan eng muhtasham tuyg'ularni yashatding menga.

Itimos, ketma. Meni eshit. Men bilan yana qol... Afsuski, hozir meni eshitmayapsan. Gaplarim o'zimga ham uzoq tuyulmoqda. Qo'rqqanimdan o'z uzlatimga ham chekina olmayapman. Qo'rqyapman. Yuzim o'lmoqda, sog'ingan joyim o'lmoqda, xafa bo'lgan joyim o'lmoqda, quehgan joyim o'lmoqda...

Men qaytadan boshlashni xohlayman. Hat-



to qat'iyani qaytadan boshlash imkonim bor deb o'ylamayapman. Aminman, bu holimni ko'rsang, "Men senga shularni berdimmi?" — dersan. "Umidsizlikni berdimmi, oyoqqa tur", — dersan. Sen ham shuni bilki, endi nima deyishing meni qiziqdirmaydi. Senga qarshi chiqa oladigan kuchni o'zimdanda topa olaman. Ketmashgim uchun eshikni qulflashga harakat qilaman. Ichkarida qol, istasang, ichkarida qolamiz.

Seningcha ham, nimalarnidir yangidan boshlash eskisini davom ettirishdan ko'ra qiyinroq emasmi? Atrofingga bir qara: hozirgi sevgi — kimning qo'li kimningdir hamyonida bir o'yindek.

Qo'llarimdan mahkam tutib, "Sira ketmayman", — deganingni xotirlayman shu kunlarda... Va birgalikda qurgan kelajak xayollarimiz qaytib tushlarimga ham kirmaydi. Bergan va'dalaringni ko'cha chirog'i yoritgan kechalardek soxta va yolg'iz dunyoning ichida ko'raman...

Shunchalar arzon bir sevgi izhorining badali bunchalar og'ir bo'lmasligi kerak edi.



MAG'LUBIYAT

Senga birga hayot kechira oladigan emas, o'z omadsizliklaring, muvaffaqiyatsizliklaring uchun ham ayblay oladigan bir inson kerak edi. O'zing bilan yuzlashishga hech fursat bermaydigan, seni yo'qotishdan qo'rqadigan, seni osmonlarga ko'taradigan, biroq ayni paytda sen uchun eng oson voz kechiladigan bir buyumchalik oddiy bir inson bo'lishi kerak edi.

Buni ko'rganimda juda kech qolgan edim. O'zimdagi ko'p narsani senga bergan, xuddi sen xohlagandek bo'lgandim. Men ortiq o'zim emasdim. Kichik narsalardan baxtli bo'larding, ammo baxtililiging ham o'shanday kichik bo'lardi. Darrov o'tib ketar, orqasidan kelgan g'azablaring seni o'z ta'siriga olardi. Shuningdek, albatta, meni ham.

Qovog'ing solinganda o'zimdan nafratlanar, ozgina tabassum qilsang, o'zimni dunyoning eng muhim ishini qilgan, jamiki odamzotni qutqargandek his qilardim. Aslida, ochiqchasiga o'ylab qarasang, bu ajablanarli bir holat emas edi. Kimdir sening butun xonumoningni ishg'ol etsa, kimnidir "Voz kecholmaydiganim", — deb ayta olsang, axir bundan ham tabiiy nima bo'lishi mumkin?

Baribir, dunyodagi ishlar doim shunday ket-



maydi. Insonning o'zligi ham bo'lishi lozim. O'ziga ajrata oladigan, hamyonining ichiga solib qo'ya oladigan kichik parchalari bo'lishi lozim. Doim kimnidir kuldirish tashvishi bilan emas, o'zgina bo'lsa ham, kuldirilishni ham istamog'i lozim albatta. Har doim aytaman: "Sen kuldiruvchi bo'lsang, qarshingdagi ham tortinmasdan masxaraboz bo'lishi kerak".

Mana shunday... Seni taniganimda juda kech edi. E'tibor bergan bo'lsang, "Seni tanish uchun kech qolgandim", — demayapman. Aniqki, uchrashuvimiz eng to'g'ri vaqtda sodir bo'lgandi. Biroq juda kech tanigandim seni...

Vaqt o'zimni unutgan paytlarga to'g'ri kelardi. Meni yenggan eding...

GIRDOB

"Amalga oshmasa, majbur qilolmaysan", — deyishadi. "Amalga oshmagani nima axir", — deyman? Odamlarning bolalari kabi atom portlatib, insonlarni o'ldirdimmi? Pomidorning genetikasi bilan o'ynashdimmi? Insofsiz bir talonchi uchun umumiy afvni men chiqardimmi?

Nima axir, amalga oshmagani nima?

Daraxtlarni kesdimmi? Barcha muammolarni men o'ylab chiqardimmi? Ikki satr yozganimda nima demoqchiligimni tushunmadingizmi? Ora-sirada so'kinib, "Og'zimni buzdim",



— degancha shaxsiyatingizga tegib ketdimmi? Oyoqlaringizning sovqotishi sababi menmi? “Sog‘inishni bilmadingiz”, — deya har boshlagan ishingiz menda tugadimi?

Amalga oshmagan nima?

Jahlim chiqadi... O‘tayotgan vaqtdan, non-dan taralgan bug‘dan, yolg‘on so‘zlardan, nosamimiylikdan, ko‘p gapirishdan, qimmatba-ho tropik mevalardan, ba‘zan sendan, ko‘pincha o‘zimdan, turk folklorini tinglamaganlardan, arab musiqasini nazarga ilmaganlardan, 1972-yilgi “Qaytish” filmini ko‘rmaganlardan, Sadri Ali-shik salomini bilmaganlardan, beldan pastda aql qidirganlardan...

Bir tola sochning qanday ifori borligini bil-maganlardan va o‘sha sochdagi to‘g‘nag‘ichni omonat deb hisoblamaganlardan, so‘zlarimni no-to‘g‘ri tushunganlardan juda jahlim chiqadi...

Amalga oshmagan nima?

Shuncha narsa bo‘libdi-ku, mana... Ikki ko‘zim, umrim, sen ayt! Amalga oshmagan nima?

Qo‘limdan tutishingni istayman. Tut va ketay-lik bu yerlardan. Va hatto sen ham, men ham biz borgan joyda bo‘lmaylik. Ertaga tanishadigandek yo‘lga chiqib, ba‘zi narsalarni yangidan boshlay-lik. Gaplashadigan ko‘p gapimiz bo‘lsa ham, jim bo‘lishimizni xohladim biroz... Xohladim. Seni to‘g‘ri sevishni hamma narsadan, o‘zimdan, men



bilgan barcha narsalardan ko'p izladim ...

Ammo tinglamading! Oyoqlaringni menga qarshi tutgan ba'zi narsalar doim voz kecholmaydiganlari tomon yugurdilar. Kelajakdan qo'rqding, qalb og'rig'idan qo'rqding, bedor qolishdan qo'rqding...

Doim hayotda bo'ladigan narsalardan qo'rqding.

ICHKARI

Ba'zilarining kimlarnidir qanday va qanchalik sevganini ko'rgach, insonning beixtiyor yuragi ezilib ketadi. Albatta, buning kimlarnidir kamситish bilan aloqasi yo'q. Xoh ayolga boq, xoh erkakka "Ishqning ko'zi ko'rdir", — so'zi keladi xayolimga. "Qani?" — deyman, oynaga qarayman, yana boshqalarning rasmlariga boqaman, so'ngra egilib, qalbimning ichiga nazar solaman: sevilishim mumkin. Sevmoq desang, yana shunday. Chegaram yo'q. Tubim yo'q! Agar ta'bir joiz bo'lsa, "itdek sevgan" deya ta'riflangan o'sha itning qo'limga suv quyishi mumkin emas.

"Qanaqangi hayvonsan?" — deyman o'zimga. "Jim turma, javob ber menga!" — deya bosim o'tkazaman o'zimga... O'zim bilan mana shunday ochiqdan ochiq janjallashaman. Ishning yomon tomoni shu: o'zimni odam o'rniga qo'yib, o'zimga javob ham bermayman!



Shu savolni o'zinga aqldan ozgunimga qadar beraman va yana jim bo'laman. "Jinni bo'ldingmi, o'zingga o'zing gapirasan", — deyman-da, yana jim bo'laman. So'ngra o'zim bardosh berolmay, o'zinga yorilaman: "Nega mendan so'raysan, bor undan so'ra!" — deyman. Va o'zim bilan birgalikda yana jim bo'laman...

Koshki, ichkilikka berilgan bir inson bo'lsam, xayolimni chalg'itsam biroz, balki, o'shanda sarxush boshimni olib, oyoqlarimning ostida eza olardim. Ammo yo'q... Ichkilik ham yo'q... Oxi-ri, boshqalarning suratlariga takror boqaman va aqlga sig'maydigan o'sha savolni bu safar sendan so'rayman:

"Nimam yoqmadi senga? Nimam kam edi?"

CHEGARA

Sen bu dunyoda seni eng ko'p sevgan kishi onang bo'lganligini, undan keyin dadang, keyin esa ukang kelganini aytarding. Ustiga-ustak buni yuzimga aytishdan ham chekinmasding. O'ylar edim: Bir insonga sevgingni isbotlash uchun harakat qilinmaydi, boshqa sevgilarning orasida navbat ham kutilmaydi. Kunlar almashadi, insonlar almashadi, biroq mendagi o'rning aslo o'zgarmasdi. Sevgi yashalar edi. Sevgi ko'rilar, his etilar edi. Sevgining atrofi devor bilan o'ralmas va yana ko'prog'ini olmaslik uchun in-



son o'ziga chegaralar qo'ymasdi.

Mendan ko'ra ko'proq o'zingdan qo'rqasan deb o'ylaganim uchun sevilganingni yanayam ko'proq his qilishingni istar, o'zimni qarovsiz his etish hisobi bo'lsa-da, shunga harakat qilardim. Yoki o'z o'rnimga rozi bo'lib, sendan boshqa narsa umid qilmasdim, yoki hamma narsani hisobga olib, meni boshqalardan boshqacha ko'rishingni istardim.

Kundan kunga ichimda ortib borayotgan xijilikka taslim bo'lar, ta'riflab berolmaydigan tushkunlik hissiga cho'mardim. Bundan ham yomoni shuki, buni senga ta'riflab bersam ham, tushuna olishingga va mahzunligimga biror chora topa olishinga ishonmasdim. Shuning uchun aksariyat hollarda hamma narsadan voz kechdim. Mendagi bu vaziyat vaqti kelib sen bilan gaplashmasligimga qadar bor edi. Balki, senga haqsizlik qilgan edim. Balki, hayotingning lazzatini yo'qotgan men edim.

Xo'sh, inson bundan ortiqrog'ini istamaydimi? Istaydi, albatta. O'z o'rnimdan norizo edim.



TARAF

Inson o'ziga og'ir kelganlarni yelkasida yoki ustida emas, balki sukunatida va qalbida ko'tarib yurar ekan. Buni kech bo'lsa-da bilib oldim. Sen uchun kerak bo'lganda ham qiymati bilinmagan va ikki shaharni bir-biriga bog'lagan bir yo'l kabidirman. Va ayni vaqtda sen uchun katta tashvishman. Men aybdorman, adolatsizlikman, sen voz kecholmagan bir dardman. Sen uchun zararning qaytmas bir tarafiman... O'zini odam sifatida ko'rgan bir odamning beshinchi bor qiz ko'rgan holatidagi umidsizlikman... Yaxshi emasman. Ovozingdagi bir kemptiklikdekman...

Xo'sh, sen nimasan? Kimsan? Inson ba'zi savollarni ma'lum bir vaqtdan keyin xayolidan shunday chiqarib tashlaydi.

SITAM

Bilaman, biz sen bilan birga bo'lolmasdik, ammo bir-birimizdan uzoqlashib ham ketolmasdik. Ammo hozir bularni g'azabsiz gapirganligimni, senga qarshi zarra qadar xafagarchiligim yo'qligini bilganing holda o'qi. Ustimda faqat mag'lubiyatim bergan bir xijillikkina bor xolos. Qolaversa, faqat sendan emas, balki har bir



kimsadan va har bir narsadan yengildim...

“Qaytib o‘girilib qarama menga, hech bir ahamiyatim yo‘q...

Qaramang...

So‘rama!

So‘ramang!

Tushunma va tushunmang meni...

Men hammadan ko‘proq his etgan narsamni hammadan kam yashadim”.

Kun keladi, o‘zing yoddan biladigan telefon raqamini xotirangdan ham, telefoning ro‘yxatidan ham o‘chirasan...

“Bir, ikki, uch. Olyapman”, — deya ayni foto-ramkaga siqqan dunyongdan sug‘urilib ketasan... Tug‘ilgan kunini, ovozini, iforini, ko‘zlarini unutasan va birgalikda o‘tkazgan har oningiz sekin-asta yo‘qoladi....

Chunki ketmoq istaganni sen to‘xtatolmay-san. Chunki o‘lmoq istaganga sen hayot berol-maysan...

“Bo‘lmasa maktubing”
(Yangi o‘lan)

MAKTUB

“Ikkimizni birgalikda ushlab turgan narsa nima edi? Qo‘llarimizni birlashtirgan nima edi? Qo‘y, ma‘nosiz sevgimizni gapirma menga...



Sevmoq bir qancha narsalarga ko'z yummoq demakdir..."

Murodxon chorasiz ishqini gapirib berar paytda shunday der edi... Milliardlarcha erkak va ayollar orasidan ikki insonning bir-birini topishini qaysi tasodif bilan ochiqalay olasan menga? Barmoqlaring uchida turgan qizil bo'yoqni sevishimni, kaftlaringdan o'pishimni, qo'llaringning yuzimda kezishini, ko'zlarimning rangiga egalik qilishingni so'zlamodaman. Bularni qaysi tasodif bilan ochiqlaysan menga?

Bo'yning aynan boshim sig'adigan bir uzunlikda ekanligini, bosh chizig'ing ayni yuragimning ustiga to'g'ri kelishini, yonimda yurganingda yo'llarning to'xtab qolishini, bir-birimizdan boshqa boradigan joyimizning yo'qligini so'zlamodaman. Xo'sh, qaysi tasodif bilan tushuntirib bera olasan menga? Hozir yonimda emasligingni, seni shu qadar sog'inayotganligimni va ushbu satrlarni qaysi tasodif bilan tushuntirib bera olasan?

"Qo'y, ma'nosiz sevgimizni gapirma menga... Sevmoq bir qancha narsalarga ko'z yummoq demakdir!"



FARQ

Tushunmagan narsalari aslida shu: inson eng qadrligim degan narsasini yo'qotganida boshqa jon kuydiradigan narsasi ham qolmaganligini ko'radi. Men sizning hayotingizda bo'lmasam nima bo'ladi? Siz mening hayotimda bo'lmasangiz nima bo'ladi?

Hech...

Katta bir hech!

Soqollarini shunchaki o'stirgan erkaklar va sochlarini shunchaki kestirgan ayollardan boshqa nima qoldi?

Hech...

Katta bir hech!

Iforing vujudimdan qo'porilgan qoya parchasi kabi oyoqlarimning ustiga tushmoqda hali ham, shuni ketish deyapsanmi? Hamma eshitib qo'ysin, sen ham eshit meni! Seni dunyo deb atalgan bu mozorlikda o'tmishimga doir hech narsa qoldirmasdan va bolaligimning butun jarohatlarini yopgancha sevdim seni.

Ustingda turgan egasiz qayg'uni sevdim.



BILIM

Men hozir sen uchun necha millioninchi o'ringaligimni bilmayman, lekin bilmasligimni bilaman. Ehtimol, shu on o'zimga katta bir raqam berib, senda umuman bo'lmagan keragimni biroz yuqori pog'onalarga ko'targandirman. Bilmayman buni, amin emasman.

Lekin endi sen to'lov vaqtida supermarket kasasida o'tirgan hisobchining yonidagi shokoladli tangachalarchalik meni xohlamaysan. Meni olib, xarid savatingning ichiga qo'lasan deb o'ylamayman... Lekin endi sen mening qanchalik kerakligimni hech anglay olmaysan. Kunlarning birida bir kishiga "Shu shokoladdan ham olaylik", — deganingda u senga: "Nima keragi bor buning?!" — deyishi bilan xotirlaysan meni, buni bilaman...

Chunki chindan ham ba'zida keraksiz bo'lib ko'ringan kichik narsalardan boshqa hech narsaga ehtiyoj bo'lmaydi... Ayni damda sen uchun shokoladli tangachalarchalik ahamiyatim yo'q.


Lekin, mayli... O'sha odam meni senga eslatajak.



GUL

Men bir gul o'stirdim. Hidlab otmadim bir burchakka, hatto o'z yaproqlarimni-da olib berdim unga...

Bunday bo'lmasligi kerak edi, hech loyiq emasdim.





"To'rt kunlik narsa"
(Sezen Aksu)

2014-yilning fevral oyi

BINAFSHA

Undan keyin qarshimda ilk marotaba ko'rayotganim — bir dunyo bor edi. Bilmagan soatlarim, bilmagan kunlarim va zamonlardan o'tdim. Hammaning ichida o'layotgan edim. Hayotning bunchalik emasligini bilar va baribir qadam tashlay olmas edim. Tong otganda tunni, tun bo'lganida tongni sog'inardim. Hech narsani eshitolmasdim. Hech narsaning iforini ololmasdim. Qarshimda turgan rasmlarga ham kuchim yetmasdi, ularni ham bir burchakda qoldirishni xohlamadim. Ba'zilar cho'ntagimda turar, ba'zilar esa ramkalaridan chiqishni xohlamas edi.

Kulgan paytlarida takror kular, bir necha soniyadan so'ngra yig'lashni boshlardim. "Sog'inasan", — der edi ichimdan bir ovoz va men ichimdagi ovozdan nafratlanardim. O'z ichimga qarab baqirardim: "Qanday qilib, bir insonning o'z ichi o'zidan xabarsiz, nima bo'layotganligini tushunmasdan bunday gapira oladi? O'lyapman, meni hech bo'lmasa sen tushunishga harakat qil!" — derdim o'z-o'zimga.

Bo'lingandim.. Ba'zi vaqtlarda yuzimda yas-



hil daraxtlar o'sib, salqin suvlar oqar, ba'zi zam-onlarda esa ilk marotaba his etgan sovuqlikni boshdan kechirardim. Birovlar nega meni tush-unishmaydi deb o'ylab, odamlarning ko'zlariga tushunarsiz shaklda boqardim. Balki, birortasi meni ko'rib, jim qolar deya umid qilgan vaqtlarimda hafsalam pir bo'lar, ovozlarni butun ul-ug'vorligi bilan yuzimga urgancha tezda uyg'onar edim. O'z dunyomni qurgandim. Ichida kurash-lar bo'lgan, joyi kelganda gavjum, tashlandiq, yangi kashf etilgan, begona yoxud juda tanish bir dunyo. Daxlsizligimga hech kimning tegish-ini xohlamas, hamma narsadan jirkangandek qo'llarimni tortardim. Hamma uchun odatiy hol bo'lgan muzlatkichning eshigini ochmoq, televi-zor pultiga teginmoq, jamoat avtobuslari, shahar magistral suvi, yomg'irlar... Hammasi ko'nglimni aynitardi... Va uyg'ongach, qayta uxlashni istay-man. Bu safar esa ko'zlarim o'ngida xayollar pay-do bo'ladi, u bolalar orasida yig'lardi...

Shahar ba'zida rayhon, ba'zida binafsha edi va yuzimning alamli holi bir tabassum ham ko'rsat-mas edi. Bir gul ochilolmasdan o'z yaproqlarini mahkam quchib olgan va siz uni o'z iforidan uyal-moqda deb o'ylayapsiz.

Yo'q. "Go'zal bo'lmoq" — degan narsa aslida yo'q...



IFOR

Sen bilan qadim bir iforga qo'l uzataman... Bir oqshom ustiga, eski bir dardga, uyqusiz bo'lgan bir kechaga, yashalmagan bir hayotga, tug'ilma-gan bolalarga, o'limga, uzun yo'llarga, qaytaril-magan omonatga va hech so'z yuritilmagan bir ayriliqqa...



“Isfahon”
(Farid Farjad)

KALOM

Aynan kunini eslay olmayman, ammo 2009-yilning oktyabri va soat kechki yettilar atrofida edi... Ha, bularni juda yaxshi eslayman. Xuddi kechagidek. Xuddi hali ham chap qo‘li o‘ng qo‘limda turgandek. Hatto undan ham ko‘proq: chap qo‘lining barmoqlari bilan o‘ng qo‘limning barmoqlari kirishib ketgandek..O‘ylar ekanman, o‘sha taftni his qilyapman hozir ham. Qayerdan va nima uchun bu savol xayoliga kelganini o‘sha kuni hech tushunolmagan edim. Biroq menga birdaniga qarab: “Meni judayam qattiq sevasan-a?” — deb so‘ragan edi. Men ham hech ikkilanmay “Seni tuqqan onagdan ham ko‘proq sevaman!”, — degan edim. Buni ham juda yaxshi eslayman, ovozimda favqulodda bir mehr va anqlik bor edi. Muhokama qilib bo‘lmaydigan tomonlaringiz bor-ku. Kimdir unga tegishadigan bo‘lsa, favqulodda bir tezlik bilan darhol javob qaytarasiz. Xuddi refleks kabi. Yoki og‘zigacha to‘la bo‘lgan stakanga suv quyish kabi. Yana biror misol keltirishning hojati yo‘q deb o‘ylayman. Nima demoqchiligimni tushunib olgan bo‘lsangiz kerak. Bu qadar aniq javob berishimda uning yuzida ko‘ringan andishaning roli bor deb



o'ylayman. Yuzimga shunday boqardiki, inson bir soniyalik vaqt birligi ichida o'nlab narsalar xayolga keltira olardi. O'shanda mening ham xayolimda bir necha narsa jonlangandi. Xavotiri shundoqqina ko'rinib turardi. Uni yetarlicha sevmasligimdan shundoqqina andisha qilayotgan edi. Men o'ylab o'tirmasdan javob berganimdan so'ng bergan javobimning aniqligi va tezligidek yuzi ham darrov o'zgardi. Biroz oldingi xavotirlaridan asar ham qolmagandi va o'sha kichkina barmoqlari bilan barmoqlarimni telbalarcha siqdi. Qo'limni mendan olib qo'ymoqchidek bo'ldi. "Har oqshom ayrilganimizdek bo'lmasin bu safar!" — demoqchidek edi... Ammo men xayolidan o'tkazganlarini o'qiy olardim. "Bo'lmaydi!" — der edi. "Sevgan insonimning qo'llari bu oqshom menda qolmaydi!"

Bir muddat hech narsa demay, derazadan tashqarini kuzatdi. Insonlar ba'zida vaqtinchalik o'zgarishlar qilishi mumkin. Qo'llarini qovushtirib olgan bo'lsa-da, o'zi o'sha lahzalarda u yerda bo'lmasligi mumkin. Bilib turibman, yonimda emasdi. Ehtimol, juda uzoq bir joydan ikimizni kuzatib turardi... Balki, biroz yig'lardi. Ammo mening ham hech narsa so'rashga jasoratim yo'q edi. Birdaniga sergaklandi va menga qarab: "Meni hech qachon tashlab ketmaysan-a?" —



deb so‘radi bu safar... Yana sira ikkilanlanmadim. Bo‘shashgan barmoqlarini bu gal o‘zim qattiq siqib: “Seni hech qachon tashlab ketmayman!” — dedim. Sevgi — biroz kurashmoq va o‘rni kelgani-da yaralamoqdir! Meni savollari bilan bilib-bilmay jarohatlardi. O‘zimdan shubham yo‘q edi, biroq unga o‘zimni yetarlicha tanita olmaganligim haqida o‘ylardim. Ha, bu savollar meni juda kuchsizlantirdi. “Uni yarim yo‘lda tashlab ketishimni o‘ylayapti! Ishonch berolmasam, sevishdan nima ma‘no. Demak, menda kamchilik bor... Demakki, o‘zimga ishonganimchalik, unga bir pechakgul-dek yopishib olmabman!” — deya oh tortar edim. Yuzi yana o‘zgardi va o‘sha muhtasham tabasumsi yuzini egallagancha “Seni juda seavaman”, — deya boshini yelkamga qo‘ygan edi...

Bu voqealar unutilmaydi. Bugun 2014-yil ning oktyabr oyidamiz. Soat ikkidan qirq besh daqiqa o‘tganini ko‘rsatmoqda... Ko‘plar uxlagan. Balki, u ham uxlamogdadir... Shu lahzalarda yonimda yo‘q. Qulog‘imda Farid Farjad, uning “Isfahon”ini eshityapman. Musiqasi bor, ammo so‘zi yo‘q bo‘lgan bu qo‘shiq ichimni qanchalar ag‘dar-to‘ntar qilar, yetishish juda mushkul, hatto imkonsizdek ko‘ringan qanchadan qancha narsalarni his etmoqdaman. Bularni ta’riflab ham berolmayman... Bu gal o‘zim bilan gaplashyap-



man:

— Uni nega hali ham kutmoqdasan?

— “Qaytmayman”, — demadi. “Qaytolmayman”, — dedi va ketishim lozimligi haqida indamadi!

— Lekin bu xudbinlik! Shunday emasmi?

— Ha, bilib turibman. To'g'rirog'i, buyuk bir xudbinlik!

— Unga so'z berganingdek sen ham undan seni hech qachon tashlab ketmasligi uchun so'z olishing kerak edi!

— Bilaman... Ammo qo'limdan kelmadi! Xayolimga kelmadi deb o'ylaysanmi? Keldi... Albatta, bu haqda o'yladim. Sezmadingmi? Bu qanchalik og'ir so'z! Va hatto ont bu! Bu yukning ostiga uni ham sherik qilishni istamadim!

— Uxlaymizmi endi?

— Uxlaymiz.

— Xayrli tun...

— Balki, bir kuni...

BOG'LAM

Bundan buyon vujudimni o'zgartirishni xohlayman. Albatta, qalbinga va hidimga teginilmasin, faqat boshqa bir badanda, o'simlikda yoxud biron bir buyumda takror vujud topayin. Chunki charchadim... Qalbi va ifori bo'lgan bir qo'l telefoni yoki bir toshyo'lakning toshi bo'lishim



mumkin. Va yoki qalbi bo'lgan bir suv tomchisi ham bo'lishim mumkin. Lekin mutlaqo qalbim bo'lishi lozim! Zotan voz kecholmagan yolg'iz nar-sam — qalbim.

Lekin o'zim bo'lishni xohlamayman. Tushun-masliklaridan, barmoq bilan ko'rsatishlaridan va bir qusur kabi har kimning yuziga urilmoqdan charchadim. Menga tegmang, iltimos! Borligimni ham sezmang. Qo'ying, boshqa bir narsa bo'lay. Masalan, jarohat uchun bir band bo'layin... Bar-cha jirkanch yaralaringizni yoxud bolalarning ma'sum og'riqlarini bog'lashga roziman...

Ammo baribir aytaman, nima bo'lsam, bo'layin, faqat bir qalbim va iforim bo'lsin... Meni tinch qo'ying, iltimos. Vujudimni o'zgartirishni xohlayman.





SUREYA

Balki, bu hayotda iloji boricha rohatda yashamoq kerakdir. Hech kimni ko'zing o'ngida ortiqcha ulug'lamasdan, hatto qo'shiqlarni, she'rlarni ham... "Nuqsonli bir qo'shiq yozibdi va bundan xafa bo'libdi, menga nima?" — degandek... Xuddi Jamol Sureyaning familiyasidagi "y" harfining o'z-o'zidan yo'q bo'lib qolishi kabi.

Qarang, ketganingizdan beri qo'llarim eriydi, kichik xonim... Ikkimiz ham valsga tushishni bilmaymiz, ammo xayolimda doim raqsga tushamiz. Xuddi kinolardagidek, muhtasham bir zal, yuzlari niqobli o'nlarcha odam bor va hammasi bizni kuzatib turgandek...

Doim bir holat takrorlanadi: hech kimdan uyalmay belingdan tutib, seni o'zinga tortaman va dudoqlaring ifori birdaniga hammani o'ldiradi. Hamma narsa qilich bilan o'rtadan ikkiga bo'lingan bir qo'shiq kabi yarim va ma'nisiz qoladi. Dard chekmoqni sevamiz va ehtirosli hayot kechiramiz... Izlagan bir narsamiz bor, ammo izlagan narsamizni topganimizda u ikkimizni ham o'ldiradigandek...

Xuddi bizga yetmagan va osonlikcha yo'qotganim boshqa narsalarimiz kabi...



QOPQOQ

Ichimda qotil chumolilar yuribdi. Chunki sen etim va terim orasiga joylashtirilgan bir rangsan. Chunki senga teginmoq va quchmoq men har bir safarida hech rozi bo'lmagan bir sayohatga chiqishdek... Ha, o'zimni iforing qopqog'idek his etaman.

Men sen uchun emas, balki boshqa insonlarning yashay olishi uchun ham mustahkamman. Men bo'lmasam, iforing hayot tartibini buzishi mumkin, boshqa hamma ayollarni bir chetga surib qo'yib, ularni o'zingga dushman qilib qo'yishing mumkin... Men bo'lmasam, barchani iforing bilan osonlikcha yaralay olishing va hatto barchani bir nafasda o'ldirishing mumkin...

Shunday, men iforing qopqog'iman.

Tushimizda uchrashamizmi bu kecha?
Iforingni quchishimni istaysanmi biroz?
Uzoqdan...



ISHQ

“Ayolning eng go'zal holi shudir, balki, budir, u bo'lmasa, aniq budir”, — deya bir qancha narsalarni aytishardi.

Men seni sochlaringni yig'ayotganingda ko'rdim. O'shanda ichimdan o'tkazgandim: “Agar ketib qolsa, buni xotirlamoq meni o'ldiradi”

DA'VAT

Biroz jūm bo'l, baxtli bo'lishingni tilayman.

Chunki seni sevaman...

Shunchaki oddiy, duch kelgan bir ayolni sevgandek sevaman. Yonimdan o'tib ketar ekan, bir lahzadayoq ko'ringan bir insonni sevgandek. Ko'nikadigandek, sekin, so'zsiz va hech kimga bildirmasdan... Tish tozalagich uchi, to'g'nog'ich ignaning boshi yoki gugurt olovidek sevaman seni. Bolalar qayrilmasin deya daftarlarining burchiga to'g'nog'ich taqishidek beozorlarcha, ammo ahamiyatsiz bir tarzda sevaman.

Nima deyayotganingni tushunmayapman...

Biroz jūm bo'l, baxtli bo'lishingni tilayman.

Chunki seni sevaman...



Sen haqingda hech narsa bilmasdan va bilishni xohlamasdan, johil va yolgʻonchi boʻlib seni sevaman. Bir necha oʻnlab kitob oʻqib, hech narsani xotirlamagan, aqliga hech qanday keraksiz narsa yuklamagan bir kishi kabi sevaman. Eng ojiz tarafim bilan, oʻrningga boshqasini qoʻymasdan va oʻrningga egalik qilmasdan... Juda boshqacha sevaman seni... Bir erkakning boshqa bir yelkadoshiga boʻlgan sevgisi kabi yoki bir ayol boshqa bir ayolga hasad qilishi kabi jonimni siqib, seni bunchalik sevganimni oʻzimdan tortib ololmasdan sevaman. Biroz jahl bilan ham... Kechasi alamahalda kelgan, chaqirilmagan mehmon kabi sevaman. Bir hududni hech qanday sababsiz bosib olishni istagan qirol kabi biroz qon toʻkib va oʻlganlarni uzoqdan kuzatib turib sevaman.

Yana nimadir dedingmi?

Eshitmayapman...

Biroz jūm boʻl, baxtli boʻlishingni tilayman.

Chunki seni sevaman...

Mubolagʻasiz, ahamiyat bermasdan, yuzlarni paypaslab tanishga harakat qilgan bir soʻqir kabi sevaman. Romantika qoʻshmasdan, ammo menimcha shahvat



bilan... Ha, ongostimga yaqin kelganimda seni juda xohlashimni tushunib yetaman. Seni ikkiga bo'lib sevaman. Ikki parchada... Birdaniga... Ba'zida sen o'ynoqiligingda sevaman. Chiroyli qomatingni kuzatib sevaman. Lekin qanchalik go'zal bir vujudga sohib ekanligingni senga hech aytmayman. Agar aytadigan bo'lsam, balki o'zingdan ketib qolarsan. Uchta bola tuqqan xotin kabi katta qorning bordir, kim biladi? Shuning uchun doim nafasini ichiga tortib yuradigan bir qizaloq ayol deb o'ylayman. Yoki nafas olmaydigan bir... Aslida har doim nafasini tutib yuradigan odam qanday qilib nafas olishi mumkin deya xayolimga keltirmaganman desam yolg'on bo'ladi. Nima deysan? Ehtimol, o'sha silliq taning buning sababidir. Taningdan menga nafas berayotgandirsan! Balki, men telbadirman... Sen esa, haqiqatan ham, hamma qatori bir odamsan. Men kabi mukammal bo'lolmay-san, shundaymi? Tabiiyki, men haqliman! Menchalik mukammal bo'lolsayding, sen ham meni bir huzur ila seva olarding. Xuddi mendek... Sen bilan se-vishganimni hech ko'rsatmasdan, qochoq va yana biroz suv bilan olovning yonma-yon kelishidek bir tavakkallik bilan seva olarding. Yo'q, sen tengsiz go'zal emassan. Shunchaki men senga go'zal boqyapman. Ya'ni go'zal der ekanman... Haligi... Ikkiga bo'lar edimku seni. Tushundingmi, tushunmadim... Lekin mana shunday... Juda xohlayman seni.



Ishon, dudoqlaringni o'qiy olmayman...

Biroz jūm bo'l, baxtli bo'lishingni tilayman.

Chunki seni sevaman...

Seni sevishimni aytar ekanman, shu damda biroz yomg'ir yog'moqda. Quyosh yomg'iridek issiq bo'lib, tezda o'tib ketadigandek. Kamalakning kamonlarini cho'zib, uni uyaltirgandek... Shuningdek, hammaga namoyish qilib, ko'rganlarning ko'zlarini o'ymoq istagancha sevaman. Seni ba'zida, haqiqatan ham, qaynoq sevaman. Yulduzlardan ham ko'rinib turadigan bahaybat bir otash kabi sevaman. Shimoliy qutbdek sovuq... Muzliklarim erigancha... Xoinona rejalar tuzib, ovqatingga zahar qo'shib sevaman. Senga sezdirmasdan ichingga tomchi-tomchi oqaman. So'ngra sen eng hayajonli bo'lgan yerda, sen yuksakda bo'lgan bir lahzada o'zimni ortga olaman! Biroz to'xta, noto'g'ri tushunma, darhol so'zlarimni qaytib olaman sendan. Bu menga yoqadi... Bir tugunning tugulgan joyidek sevaman. Vaqti belgilangan parchalovchi bomba kabi, tegsang, portlaydigandek... So'ngra tasalli beruvchi so'zlardek sevaman. Shunaqa beqarorman, meni tushunmadingmi?



Kim gapirdi, menmi?

Menimcha, bizni eshitib turishibdi...

Biroz jüm bo'ling, baxtli bo'lishini tilayman.

Chunki uni sevaman...

Orqa oyoqlarida turgan ot kabi seni ustimdan uloqtirishni xohlayman. “Qayerga borsang, boraver”, — degandek. Yoki “Ketma”, — degandek... Seni u yerda jarohatlangan holda tashlab ketishni istaydigandek. G'alati odamman, bilaman. Kulishimga e'tibor berma! Seni doim kulganiidan yig'lagan boladek sevaman. Bugun biroz qorong'imi? Hayron bo'lma, buni ham men qildim. Lekin yana sezmadimg, shundaymi? Sergak bo'lishingni istadim. Yo'qotish tuyg'usini ich-ichingdan his et... Va sen ham menga o'xsha biroz? Yo'q, men bo'l demayman. Biroz o'xsha menga, o'xshagin. Zotan xohlasam, seni “Men” qilaman, darhol shu on, shu yerning o'zida... Muammo chiqarishni xohlayman. Ko'rinmayotgan barcha muammolarni hal qilish niyatim yo'q, tushun. Ular bilan yanayam ko'rinmas bo'lishni istayman. Bir kun ketsang, xayolim doim band bo'lishi lozim. Men boshini ko'tarmasdan yurishni istagan bir insonman. Ovozlarga badan kiydirishni xohlagan bir inson... Har gapirga-



ningda yalang'och so'zlarni istagan bir telba kabi sevaman. Lekin o'zimni qanday yashirdim. Ha, sen ko'zimda ikkiga bo'linding. Buni necha marta aytishim kerak, bilmayman. Xohishimni senga boshqa qanday anglatishim mumkin? Ikkiga bo'laman, deyapman... Kecha va kunduz kabi... G'ira-shira nur ostida qanday bo'lishingni hech ko'rganmisan? Men ko'rdim. Sezmaganding sen. Tug'ilishingni ham kuzatdim. Shunday sevaman seni: seni o'zim dunyoga keltirgandek, boshqa birovga gapirish uchun imkon ham bermagandek. Qarindoshingdek, do'stingdek, sirdoshingdek, sevgilingdek bo'lishni xohlayman. Qurtlagan olmalarning yerga tushishini yer tortishishi deyilishiga tushunolmagan bir nusxaman. Aniq chegaralarim bor...Hozir ustimda raqsga tushishni xohlarmiding? "Aytmading", — dema! Oyoqlaring qonaydi...

Ortiq jimsan...

Jim bo'l, juda chiroyli bo'ladi...

Istaymanki, baxtli bo'lamiz.

Chunki seni sevaman...



KAMCHILIK

Hayotingda bir bora bo'lsa ham, uyqusiz qolib, o'ylamagan bo'lsang, sog'inmagan bo'lsang... "Besh kishi meni boplab rosa savaladi, biroq ertasi kuni oyoqqa turdim. Tayoqning zo'rini yedim, ammo bunchalik dard chekmagandim", — deya olmasang... Eng jimjimador bo'lmasa-da, biror ayol atab bir she'r yoza olmagan bo'lsang Ko'zlariga boqib: "Umrin qanchalar qisqa, birgina so'zim sening yoningda!" — deya oh tortmagan bo'lsang... Uning sochlari ertalab uyg'onganida qanaqa ekanligiga qiziqmagan bo'lsang va quchmoqning bag'ringga bosishdan boshqa narsa ekanligini hanuz bilmasang, menga insoniylikdan gap ochma...



Xohlasang, yolg'iz o'zing Everestning eng yuqori cho'qqisiga chiq, istasang, dunyoning eng badavlat odami bo'l. Yoki har kuni bittasi bilan o'tirib tur, ammo baribir kamchiliging bor... Ha-ha, juda ko'p kamchiliging bor!

Seni birinchi bor sevmoqdaman. Birinchi bor kimningdir kasal bo'lganidan xavotirlanyapman. Birinchi bor kimdir uxlayotganida uning ustini yopib qo'yish istagim bor va birinchi bor yolg'iz uyg'onishdan nafratlanyapman. Bu mening birinchi marta o'limdan qo'rqishim. Birinchi bor hayotga jon-jahdim bilan yopishganman. Birinchi bor kimningdir yonida jim qolyapman.

Birinchi bor...

Jin ursin, qo'llaring juda go'zal...

"Bir odamning ko'z yoshlarini faqat men yashira olaman", – deya yotgandek kulardi yuzing. Men ham kutib turgan shuncha odamni bir chetga surib, ularning ko'z o'ngida yonog'ingga uzangandim. Xuddi suv tubiga sekin-sekin barmoqlaringni botirayotgandek... Bilaklarim ko'zdan g'oyib bo'lgunga qadar tegardim sochlaringga...

Onamni uxlatayotgandek.



QADAR

Asl muammo shundaki, qanday yashashni bilmagan insonlarning hayotimga aralashish istaklari bilan o'tadigan umr o'rmiga duch kelgan odamga quloqlarimni tutdim. Negaki avvaliga ishonch hosil qilmasdan, zaruriyat deya qilgan narsalarimdan charchagandim. Menga yoqmagani universitet, ishlashni xohlamagan joylarim, yaxshirog'ini bilmaganligim uchun emas, pulim yo'qligi uchun yegan ovqatlarim, ertalab barvaqt turmoq, yig'ilib borilgan oilaviy ziyoratlar, "Sen mening jonimsan", — deganlarning, aslida, jonim bilan ichma-ich bo'lmasligi ravshan — bunga izn bermagan o'zimman, uzun jumlalarini bilganim holda qisqa jumlar bilan butun savollarni o'tkazmoq, jim bo'lmoq... Jim bo'lmoq... Va ko'p jim bo'lmoq...

Bularning barchasini farqiga bormoq hammasidan ham o'zimni sevishimga to'sqinlik qilardi. Shunisi aniqki, inson hayotida ko'rishni xohlagan narsasini juda yaxshi biladi. Nimaga ehtiyoj tuyishini, qayerda uyg'onmoq istashini, kim bilan sirlarini bemalol bo'lisha olishini, kim bilan murosa qilishini va kimni sevishini...

Shuncha yukning ostida men seni ko'rdim, o'zimga tortdim, quchdim va iforingni yodimda saqlab qoldim. Hammaga odatiy tuyiladigan



iforni men: “Bu sochlarining, bu tananing, bu atrining bo‘yi”, — deya farqlay olar va yonida bo‘lmagan vaqtlarimda unga yaqin bo‘lgan hammadan nafratlanar edim.

To‘xtamasdan shunday deyman: “Men seni ilk ko‘rgan zahotim sevdim”. Tasodiflarga zinhor-bazinhor ishonmayman. Zotan, atrofga ijobiy quvvat tarqatganingni iddao etib, bunga javoban yaxshilik kutgan bir inson emasman. Kim jonimni og‘ritadigan bo‘lsa, og‘zimga kelganini gapirdim. G‘avg‘o ko‘tardim, baqirdim, chaqirdim va so‘kindim! Biroq shu bilan birgalikda ko‘zlarini xayolimda jonlantira olmagan bir sevgili yor uchun duo etdim... Kimning nimaga ishonishi meni qiziqtirmaydi.

Men seni ko‘rdim, o‘zimga tortdim, quehdim va iforingni yodimda saqlab qoldim... Bundan ham ortig‘i bormi?

*Qalbin, jonim, tirilishim,
Tanimdagi nozik naqsh ayolim...
Shohtomirimdanda yaqin bo‘lmasang,
Yonimda demayman seni.*



“Ko'ngil”
(Fikret Kizilok)

OLCHA

Yordamchining avtobus bagajini zarb bilan yopishidan uyg'onib ketdim. Bu nechanchi to'xtashimiz edi, bilmayman. Qaysi shahardamiz, buni ham bilmayman. Yolg'iz bilganim soatning uchdan o'n besh daqiqa o'tayotgani edi. Men boshimni suyak kelgan oynada yuzimning va sochlarimning izi qolgandi. O'zimni yoz jaziramasining namli havosiga qorishgan kichik suv tomchisi kabi his etardim. Shundoqqina yonimda yordamchi men uchun qoldirgan pirog va olcha sharbatlari bor ekan. Bular ham shu lahzalarda ko'zimga balodek ko'rinardi. Pirogni ham, olcha sharbatini ham yoqtirmayman. Zotan biron-bir sevgan narsamga duch kelishni umid ham qilmayapman. Lekin, loaqal, sevmaganlarimni ko'rmasam, uchratmasam, shu ham meni sevintirishi mumkin...

Ha, bular qanchalik ahmoqona va haqiqatga to'g'ri kelmaydigan bir tushuncha, shunday emasmi? Bir narsa bilan takror ko'rishmasam, boshqa imkon bermaydigan bo'lsam, uni chindan ham sevib-sevmaganligimni qayerdan bilaman? Bu keskin chizgilarim faqat o'z jonimni og'ritadi. Doim o'z derazamdan boqaman. Mening aybim



kuchsizlanib qolganimda. Men boshimga kelgan hamma narsani oxirigacha yashab tugataman. “Hammasi nihoyasiga yetdi”, — jumlasining haqini, albatta, o‘tayman. Nihoyasiga yetsa, hech narsa qolmaydi na mendan, na nihoya topgan narsadan. Shunchalikki, izini ham topolmaslar... Qanchalik vijdotsizman!

Yo‘q. Yoki vijdotsiz emasman, shunchaki yashashni xohlayman... Aynan ishonchim komil emas nima bo‘lganligidan... Qarshimdan hech bir kutilmagan bir narsa chiqmaydi. Meni hayratda qoldirgan biror voqea yoki yo‘limda uchraydigan bir burilish yo‘q. Dunyo go‘yoki tep-tekis. Turgan joyimdan qaraganimda hatto ufqning narisini ham ko‘ra oladigandekman go‘yo. Chunki hech narsa o‘zgarmaydi. Yonimdan o‘tgan yoxud qarshimdan kelayotgan hech kimsa yo‘q. Standart deganlarining haqiqiy ta‘rifi men bo‘laman. Qaysiki bir lavhada ko‘rsatish ishorati bo‘lsa, o‘sha menman. Berkinolmayman. Xayolimda tinimsiz bahslashayotgan tushunchalar bor va ular tep-tekis. Na ular meni tinglaydi, na men ularning ishlariga ahamiyat beraman. Vujud meniki, aql meniki, yurak meniki, ammo go‘yo hech biri haqiqiy ma’noda menga bog‘liq emas.



II

Tez-tez qo'limdagi soatga qarayman. So'ngra soatga nega qaraganimni unutib, millar va soatlarga ham e'tibor bermay qo'yaman. Savdoyiman, ammo xastaligimning asl nomini ham bilmayman. Ehtimol, boshqalar kabi risoladagi odamdirman, lekin me'yorlikning haqiqiy maqsadini, mavjudligining sababini anglayolmayapman. O'ylab qaragam, qanchalik ko'p narsani bilmaganimni, bilaman deb o'ylagan narsalarimda ham juda ko'p yanglishganimni anglab yetyapman. Telefonimni o'chirganimga to'rt soat bo'libdi. To'rt soatdan beri boshqa paytlarda eshitish uchun jonimni ham beradigan ovozni eshitmaslik uchun yashabman, naqadar keraksiz bir hayot bu!

Avtobusgaminganimdayonimdagi o'rindiqdan boshqa barcha o'rindiqlar to'la edi. Biroq endi qaragam, kichik bir sayohat sumkasi turibdi. Bu sumkani ko'rgunga qadar omadimning biroz qaytganligini o'ylayotgandim, ammo qaytib kelgan hech narsaning avvalgidek bo'lmasligini ich-ichimdan sezardim. Shu sababdan omad degan narsaga unchalik ahamiyat bermasdim. Yo'lning bir yerida, shak-shubhasiz, men tahammul qilolmaydigan bir odamning chiqishini ozmi-ko'pmi taxmin qilgan edim. Ehtimol, juda keksa va shu yoz issig'ida ham bo'yin og'rig'idan shikoyat qilgan bir amaki joylashgandir o'rindiqqa. Ishim



yo‘q bo‘lsa, keraksiz yo‘l suhbatlari va yana xuddi o‘shanday bema‘ni hayot tajribalariga o‘rtoq bo‘lishim kerak. Shuning uchun hozirdan o‘zimni bunga tayyorlab, tanaffus tugamasidan bir sigara tutatib, avtobus yurar-yurmas darhol uyqumni davom ettirayin...

...

Oyoqlarim juda ham uvishib qolgan. Avtobusda sayohat qilishning menga eng yoqmaydigan tarafi ham mana shu: bo‘ying biroz uzun bo‘lsa, ikki bukilib o‘tirishingga to‘g‘ri keladi. Har doim shunday, to‘g‘rimi? Hech qachon mamnun bo‘lmaymiz. His etgan yoxud ega bo‘lgan narsalarimizni ko‘rmaslik borasida oldimizga tushadigani yo‘q. Lekin baribir ertak qahramonlari bo‘lmaganimizdek, mukamma bo‘lishga ham majbur emasmiz. Ko‘rgan narsalarimga dunyoning butun ma‘nosini yuklamoqni istamayman ortiq. Ko‘p martalab “ortiq” deya, bundan oldin qanday bo‘lganligim haqida biroz ishora bergan bo‘lyapman. Oldin bo‘lganida...

III

Sigara chekish bahonasida avtobusdan tushish ozgina bo‘lsa ham, menga yaxshi keldi. Kech tushganiga qaramay havo hali ham juda issiq.

Biroz narida — stansiyada odamlarning borligini ko‘rdim. Ba‘zilari xursandliklaridan



kulishar, ba'zilar temir o'rindiqlarga uzanib uxlab qolgan, ba'zilar esa xuddi men kabi umidsiz va atroflarida bo'lib o'tayotgan biror narsaga e'tibor berishmasdi... Qanchalik ko'p hayot, qanchalik ko'p inson bor va qanchalik ham yolg'izman...

Insonlarni kuzatarkanman, yordamchi menga tashlab ketgan olcha sharbati xayolimga kelaveradi. Xayolimda shuncha narsa bor ekan, fikr-u zikrim shunchalik to'la ekan, ahmoqona bir olcha sharbatining aqlimga o'rnashib qolishi qanchalik g'alati, shunday emasmi? Buning ustiga uni yoqtirmasligimni bilganim holda... Qanaqangi ahmoqona jasorat bu va qanaqangi yuzsizlik! "Men bo'lsam, sevimagan joyimda aslo qolmasdim", — deya o'zimga ishongan holda olcha sharbatini xayolimdan o'tkazdim. O'ylashimcha, buni aytishi kerak bo'lgan eng oxirgi odam menman! Yuzsizlikmi? Qo'ying bularni! Bir emas, men o'nlarcha yuz ishlatdim... O'nlab marotaba yangiladim terimni. O'nlab marta yengildim. Va hozir...

Nima bo'lganda ham, bular haqida o'ylashni xohlamayman! Bundan oldin aytganimdek men bir narsani oxirigacha yetkazmasdan qo'ymayman. Mening juda dabdabali mag'lubiyatlarim bordir. Ko'rgan odam "Qoyil, haloli bo'lsin. Qo'lidan kelganini qildi!" — deydi... Holbuki, mening



qo'limdan hech narsa kelmaydi. Borim-yo'g'im ketdi mendan, endi esa men ketyapman... Biroz avval bir odamning ovozi ni eshitmaslik uchun telefonimni o'chirib qo'yganimni aytgandim, lekin gap uning menga telefon qilishi mumkinligida emas. Orsizlik qilib, unga qo'ng'iroq qilmaslik uchun o'chirgandim telefonni. Inson sevil-magan joyida yana qancha qolishi mumkin? Oriyatni, g'ururni qo'ya turing, inson qalbi bunga yana qancha toqat qila oladi... Nima bo'lsa bo'lsin, avtobusga chiqar-chiqmas, o'sha olcha sharbatini darhol axlatga tashlayman!

...

Endi esa yonimda o'tirishi mumkin bo'lgan va aqlimda hikoyasini yaratgan kek-sa kishining askarlik xotiralariga xayolim ketdi. O'z-o'zimga da'vo ochsammikin, ajabo? Avval askarlik xotiralaridanmi yoki uni oylardir yo'qlamagan bolalaridan shikoyat qilishdan boshlaydimi gapni? Yoxud "Bu yo'l avvallari bu yerdan o'tmas edi. Hamma yer zaytunzor edi, ot ustida ikki kunda shaharga tushardik", — hikoyasidanmi? Boshqa bir ehtimol ham bormi? Masalan, qariya yuzimga boqadi va ichida "Qayerdan chiqdi bu odam! Peshonamdan o'rgilay, g'irt bezbetning o'zi. Koshki, sening o'rningga bir xonim qiz bo'lsaydi-da, u bilan ozroq dardlashsaydim", — deya xayolidan kechirmasmi? Shunday bo'lishi ham



mumkin va qariyani bu tushunchasi bilan nohaq hisoblay olmaymiz...

Agar bu ehtimol haqiqatga aylanmasa va oynada qoldirgan izimga takror boshimni qo'ymasimdan ketma-ket menga gap otsa, buni qanday bartaraf qilaman? Oleha sharbatini axlatga tashlagandek oson ish emas bu... Aslida, doim qilgan ishimni qilib, o'zimni ko'rmaslikka olishim mumkin. Bir marta gapirar, ikki marta gapirar, men javob bermagach, majburan jim bo'lar... Ha, albatta, shunday. Men o'zim o'rganib qolgan ishlarni qilishni va davom ettirishni sevaman. Oxirgi nafasimga, oxirgi onimga qadar shunday qilaman, buni oldin ham aytgan edim... Lekin hozirgi holatim bundan mustasno. Nimadir bo'lib, birinchi marta izlarimdan tashqariga chiqdim va ortimga qaramasdan yo'lga tushdim...

IV

Biroz avval yuzimga mayin va iliq shabada urildi. Iliq bo'lishi, albatta, issiq bo'lishidan yaxshi. Shundoqqina mendan bir necha qadam narida esa sochlarini tarayotgandek iliq shamolda sovurgan va menga tez-tez diqqat bilan qargan yosh bir ayol bor. Yigirma besh yoshlarda... Uzun bo'yli, malla sochli, tashqi ko'rinishidan nihoyatda nozik... "Tashqi ko'rinishidan", — deb bejizga aytmadim, chunki, menimcha, o'rama sigara chekar va shuning uchun dudoqlarida tu-



un qolgan, shekilli, sekingina va uslubini hech uzmasdan beton ustiga tupurib qo'ydi. Keyin esa oyog'i bilan o'sha kichik tupikni bosib yo'q qildi. Aslida, xuddi men kabi bir axloqsiz. Men ham o'rama sigara chekaman va tryubka ishlatmayman. Shuning uchun ham tez-tez shunday qilaman. Ochig'i, ayolning bu ishi menga g'alati ko'rinmadi. Hattoki, menga yoqib tushdi desam yolg'on gapirmagan bo'laman...

Chap qo'lining yelkasiga yaqin joyida "Zumradul anqo qushi" tatuirovkasi bor edi. Bir paytlar men ham bu tatuirovkani ko'ksimga uydirishni niyat qilgandim. Bu tatuirovka men uchun "yangidan tug'ilish" ma'nosini berardi. "Yangidan tug'ilish bilan o'ralashib yurolmayman. Keraksiz, zerikarli va boshqacha yo'llardan o'taman deb ham o'ylamayapman", — deya bundan ham voz kechgandim.

Egnida qora rangli pijamaga o'xshash shim bor va yana xuddi menikidek uchburchak yoqali futbolka kiyib olgan. Bunday yoqali futbolkalar mening eng sevimli futbolkalarimdir. Dazmolashning ham hojati yo'q, qolaversa, bo'ynimgacha turadigan kiyimlarni aslo kiya olmayman. Chunki bo'g'ilib ketaman... Xuddi bir qo'l kelib bo'ynimga yopishayotgandek bo'ladi...

Oyoqlarida ham qora "bosonojka"lar bor... Qo'l barmoqlari ingichka, uzun. Yagona yoqma-



gan tomoni shuki, la'nati chirigan olcharangi shu yerda ham qarshimga chiqdi! Sevmagan narsamni qanday qilib seviladigan holga keltira olaman axir? Bir narsaga ikkinchi bor imkon bermoq borasida ham yana gapirib o'tishni xohlamayman. Hozir ikki qadam tashlab, "Juda zamonaviy ayolsan, sigara tutatasan, uchburchak yoqali futbolka bor ustingda, biroq shu ahmoqona olcharangli tirnoq bo'yog'i qayerdan chiqdi?" — desam, ehtimol, sigarasini yuzimda o'chiradi. To'g'risi, uning o'rnida men bo'lganimda aniq shunday qilgan bo'lardim. Shu holda o'zimni ham, uni ham yana oxirigacha yo'q qilgan bo'lardim...

Yoxud yana ikki qadam tashlab, ko'zlariga ufqqa boqqandek termulgandan so'ng "Sen bilan bitta avtobusda bitta manzilga yonma-yon ketishni istardim. Yuzing yelkamga moslangan... Darrov qizishib ketma. Yoki yelkam yuzingga moslangan bo'lishi ham mumkin, buning hech qanday ahamiyati yo'q", — deyishim ham mumkin. U esa bularni eshitar-eshitmas: "Umid savdogarimisiz? Dengiz yo'li bilan meni Yevropaga olib qochasizmi?" — deya menga javob qaytarardi va shunday bir mahkam qoyaga urilganligim uchun men ham uni o'sha yerning o'zida mudhish bir sevgi bilan to'ydira olardim. Ha, shunday to'ydirardimki, yosh qizimiz sevgiga qusib yuborgudek bo'lib to'yardi... Ha, aytgancha, qiziq, ismi nima ekan?



Esra? Nega aynan Esra? Eski, ammo og'ir bir ism bo'lsa-ya, masalan, Muazzez!

Hozir "Muazzez!" — desam va davom et-sam... Biroq doim aytishni xohlayman, shunday qoladi. Chunki tanbalman. Standartimning buzilishidan nihoyatda bezovta bo'laman. Qolaversa, xayolimga kelganlarni gapirmayman va zotan yordamchining: "Yo'lovchilar qolib ketmasin, avtobus yo'lga chiqadi", — degan ogohlantirishi bilan buning nihoyatda noo'rinligini yordamchi ham tasdiqlagan bo'ldi.

E voh, nimaning dardidaman? Ochig'i, chi-royli tupirar ekan deya endi mening hayotimga tupurishiga ham qo'yib beraymi? Qanaqangi be-ma'nilik bu! Hali ham qo'l telefonim o'chiq va bir ovozdan qochar ekanman, kim bilan, nimaning harakatiga tushyapman? Ehtimol, "Sen aqldan ozibsan", — dersiz... Lekin hech bo'lmasa, shu mavzuda omadli bir omadsizman... Ros-ti, nimani istamagan bo'lsam, hozirgacha doim o'sha bo'ldi... Adashmayman, adashtirmayman va adashtirmaslar meni...

V

Biroq bu g'alati bir holat bo'ldi: stansiya-da uxlagan yoki uxlamagan insonlarni ortimiz-da qoldirib, u bilan ayni shu avtobusga mindik. Undan ham g'alatisi esa o'rindiqda turgan o'sha



kichik sayohat sumkasining egasi kekxa amali emas ekan. Tanimagan, bilmagan bir odamning ham gunohini oldik, yaxshi ish bo'lmadi. Shuncha keraksiz rejalar tuzib, behudaga o'zimni ham charchatdim. Shu onda omad menga tinimsiz ishora bermoqda edi. Menimcha, birozdan so'ng osmondan uchta olma tushadi va men esa olma tushish marosimi uchun o'zimga old qatordan joy ajrataman... O'ylab qarasang, bu ham juda bema'ni bir fikr. Olmalarsiz ham bo'ladi. Axir boshimizga tushgan barcha ko'rgiliklar bir olma sababli emasmi? Bizning aqlimiz kirmaydi. Hech bo'lmasa, mening aqlim kirmaydi va "aqlanish" degan jiddiy bir niyatim ham yo'q... Gapning indalloosi shu: ayol juda chiroyli tupirar ekan! Eh, shu olcharang tirnoq bo'yoqlari bo'lmasa...

...

— Kechirasiz, oyna tomonga o'tirsam bo'ladi-mi?"

— "Oyna tomon", — deya ta'kidlashingizning hojati yo'q bey afandim, zero, u tomonga joylashmadim.

— Bu sayohat juda ham uzun bo'ladi, ko'rinishidan!

— Kechirasiz, nima dedingiz?

— Yo'q, hech narsa, o'zimga o'zim gapirdim...

— Aminmanki, begonalar bilan suhbatlasha-



digan hech narsa topolmaysiz.

— Juda ham qiziqayotgan bo'lsangiz, aytib qo'ya qolay, "Bu sayohat juda ham uzoq bo'ladi", — dedim biroz avval va o'ylaymanki, bu borada unchalik yanglishayotganim yo'q...

— Zerikarli odamligingiz ko'rinib turibdi.

— Nega buncha jahl qilasiz? Axir meni tanimaysiz ham.

— O'zimni bu borada omadli deb o'ylayman. Axiyri hayotimda bir narsadan benasib qolganimdan sevindim.

— Tilingiz ham rosa chaqqon ekan, siz avval o'zingizni bilvoling.

— Bu hali hammasi emas. Menimcha, ushbu sayohatning juda uzoq bo'lishi borasida haqlisiz!

— Xavotir olmang, kichik xonim. Borligingizni unutmoq uchun uxlashim yetarli.

— Unutilish men uchun ham birinchi marta yoqimli bo'ladi.

— Chirigan olcha!

— Nima ekan?

— Yaxshi ko'rmaganimcha bor.

— Biror kishini yoki biror narsani seva olsangiz, siz uchun xursand bo'lgan bo'lardim.

— Kam bo'lmang.

— Siz ham.



VI

Soat o'ntakam besh... O'ylashimcha, yuzimning oynadagi iziga suyanib uxlashim ko'p vaqtimni olmadi. Va yana o'ylashimcha, oynadagi izimdan juda mamnun bo'lmagan bo'lsam kerak, besh daqiqa oldin yuzimni kichik xonimning yelkasida ko'rdim! Ko'zlarimni ochar-ochmas ilk ko'rgan narsam ayol stansiyada sigara chekkan mahal diqqatimni tortgan tatuirovkasi bo'ldi. O'zimni Zumradul anqoning qanotlaridagidek his etdim. Go'yoki tushimda meni bir joylarga olib borgan va qaytishda uning yelkasiga tashlab ketgandi ... Juda uyaldim. Shunchalar uyaldimki, bir og'iz ham gapirmay, tezkor bir harakat bilan boshimni tortib olib, tashqarini kuzatishga kirishib ketdim...

...

Kun asta-sekin yorisha boshlagan va yo'l chetidagi elektr simyog'ochlardan birma-bir o'tib bormoqdamiz... Tezlik bilan... Panjaralar xuddi yo'l bo'yida uzanib yotgan odamlar kabi edi. Tashqarida ko'rgan hamma narsaning soyasi menga qarab kulmoqda. O'zaro suhbatlashib, men tushgan vaziyatni muhokama qilmoqdalar, aynan shunday tuyulmoqda menga. Albatta, nimadandir boshlab, undan uzr so'rashim lozim. Lekin nimadan boshlashni bilmayapman. Avto-



busga minganimizda unga qarata shunaqangi tuturiqsiz gaplar gapirdimki, endi yuziga qarab, gapirish uchun jasorat topa olmayapman. Balki, keyingi bekatga qadar jim bo'lishim kerakdir. Zotan, uxlab turgan vaqtimda juda bezovta his qilaman. Hattoki ovozim ham o'zimga tegishli emasdek, o'zimni taniyolmayman. Albatta, yangi bir xato qilmasligim uchun biroz kutishim kerak. Boshqasiga tayyor emasman...

Ha, xuddi shularni ko'nglimdan o'tkazayotgan edim hamki, yaramas kichik xonim ortiq chidab tura olmadi va menga o'girilib:

— Yuzing bir soatga yaqin yelkamda qoldi. Endi nimani yashiryapsan, hech narsa emas-ku bu, — dedi.

Men ham ming bir kuch bilan yuzimni unga o'girdim va:

— Uzr so'rayman. Bu qanday sodir bo'ldi, rostdan ham bilmayman, — dedim.

— Bunaqasi menda ham birinchi marta bo'lyapti, — dedi.

Shu on negadir daxshatli bir ishtaha bilan iforini ichimga tortdim. Har zarrasiga qadar... Xuddi o'lyapman-u so'nggi nafasimdek, hayotga vidolashayotgandek tortdim hamda... Biroz avval mening ustimdan kulgan yo'l ustidagi hamma narsa buyuk bir hasad va hayrat bilan meni kuza-



tishardi. Haqiqiy bahor nafasi qanday bo'lishini hamma biladi. Maysalar bo'y ko'rsata boshlaydi, daraxtlar gullaydi va tuproq sekin-asta isiy boshlaydi... Ko'ksimning ichi aynan shunday edi. Qayerdan kelib, qayerga ketayotganimning ahamiyati yo'q edi. Yoki birozdan keyin uning qayerga ketishi bilan ham qiziqmas edim. Xayolimdan bir qo'shiq, qo'shiqning ichida bir chechak, chechakning ichida esa u o'tardi: "Uzoq yillar kutdim, haqiqat bo'ldi tushim. Hidlashga botinolmam, mening go'zal malagim..."

Ammo nimadir yuz berdi... Kichik xonim ham nima bo'lganini tushungandek:

— Nega bunday qildi? — dedi...

— Ikki shahar orasiga qurilgan bundan ham qisqa bir yo'l yo'q, — dedim. "Har zarramning senga talpinib ketganini his etdim. Holbuki, men ketishlarini yoqtirmayman. Parchalanishni sevmayman. Kingadir tegishli bo'lishni sevmayman. Mas'uliyatni sevmayman. Mendan izn olinmasdan, menga oid bir narsaga sherik bo'linishini sevmayman... Biroq bu safar juda g'alati edi. Bir qo'shiqning ichiga tushib qolgandek edim. Qo'shiqning ichidan chiqmoq uchun harakat qildim. Chunki uning ichida qolib ketishdan qo'rqdim. Chunki qo'shiqlar shafqatsizdir. Chiqishga uringanim sayin oldimdan birdaniga yanayam



kattaroq qoyalar chiqdi. Qoyalar barmoqlarim uchlarini kesdi...”

— Nimani o‘ylayapman, bilasanmi?

— Bilishim nimani o‘zgartiradi?

— Menimcha, hech narsani.

— Xo‘sh, nimani o‘ylayapsan?

— Bilishing nimani o‘zgartiradi?

— “Hech narsani”, — degandim. Baribir qiziqdim.

— Sen uchun hech narsadan iborat edim. Holbuki, mening uchun hayot unchalik oddiy emas, nimalarnidir qo‘lga kiritish uchun ko‘p harakat qildim. Yetarli kiyimim bo‘lishi, qorin to‘ydirish kabi odatiy ehtiyojlarim, o‘z qonimni ichishdan boshqa narsa emas edi va hatto bularning barchasi, aslida, yuqori bir zavq edi... Yoqtirilmagan, kamsitilgan insonlardan so‘ra bu vaziyatni... Bir narsaning aksini tushunmagan bir odamga to‘g‘risini ham tushuntirolmaysan. Chunki uning fikricha, faqat o‘zi to‘g‘ri. U mo‘jizadir. Ochiqlanmagan hodisadir va ba’zi narsalarga ochiqlik kiritishning foydasi yo‘q... Yoki o‘z xayolimizda to‘qib chiqargan yoki boshqalar bizga bordek ko‘rsatgan devorlar orasida yashaymiz. Biroz chiqishga harakat qilsak, biroz haqiqat degan narsaning o‘qi bilan o‘ynashga urinsak — hammasi barbod bo‘ladi. Chunki rohat-farog‘atda bo‘lgan-



larning huzuri yo'qoladi... Masalan, sevgiling ...
“Menga yana biroz yaqin bo'l”, — desang, “Seni sog'inaman”, — deganingni tushunmaydi, aksincha, “Men senga yetmayapmanmi?” — deydi...

Aslida, bor gap bu emas. “Harflarimni tugatgansan. Ovozimni bukkan, ovozimning borligidan meni shubhalantirgan sensan... Sen gapirar ekansan, ovozimning ovozing oldida egilganini his etaman. Bunaqasi hech bo'lmagandi”, — deyapman men... “Senga juda muhtojman, bag'ringga bosganingda o'zimdanda ayrilib, senga yanayam bog'lanaman. Meni hech tashlab ketma! Dunyo juda beshafqat, insonlar juda beshafqat, yolg'izlik juda beshafqat. Senga ham o'rganib qoldim hamda seni juda sevaman”, — deyapman...

Va hammasining ortidan eshitgan yagona narsam muazzam bir xafalik ovozi bo'ladi. Me'damga gunohdan so'z ochgan oyatning qo'rqituvchi ogohlantirishi tushadi... Bir narsaning yiqilishini boshdan kechirmoq uchun o'sha narsaga katta bir tutqunlik bilan bog'lanish kerak bo'ladi. Bunday odatiy hislar bilan faqat bir necha kunlik va o'tkinchi bir g'azab his qilasan. Holbuki, xafa bo'lmoq shunchalik oddiy bir narsami? Hayotning jiddiyatini anglagan hech kimsa davomli huzur ichida bo'lolmaydi. Hamma narsani oddiylashtira olmaydi... Bularning barini senga nima



maqsadda gapirib berganimni ham bilmayman. Menimcha, dunyomning toshishi uchun faqatgina bir tomchi kifoya va men o'sha tomchini topa olmayapman. Koinotning ichida yo'qolgan kichik bir nuqta kabiman. Yoki sen aytganingdek, bir qo'shiqning ichida qamalib qoldim. Nima, qanday, kim, kimman, kimsan... Faqat o'ylayman, ammo bularning barchasini o'ylash bilan izga tushib ketmasligini ham yaxshi bilaman...

Men gapimni tugatganimdan so'ng oraga noqulay bir jimlik cho'kdi. Hatto butun avtobus, yo'l chetidagi ko'lankalar, axlatga tashlangan olcha sharbati va vaqt ham jimib qoldi. Yuzimni yana oyna tomonga o'girdim va o'zim qoyillatib bajaradigan yagona ish — jimlikka qaytdim. Yana bir takror nimadir yuz beradigan bo'lsa, u tarafdin bo'hshiga umid qilayotgan edim. Jim bo'lishga ko'nikkan insonlar qandaydir bir shaklda yengilganini qabul qilgan insonlardir. Yoxud takror kurashishga kuchi yetmaydiganlar shunday yo'l tutishadi...

VII

Yarim soat davom etgan sukutdan so'ng ikkimiz ham bir vaqtda bir-birimizga o'girilib, suhbatlashishni xohlab qoldik. Ikkimizning ham lablarimiz bir xil vaqtda harakatga keldi. Va men boshimni ohista egib:



— Eshitaman, — dedim.

Kichik xonim ham:

— Yaxshi, — dedi va davom etdi, — bo'ladigan ishni kechiktirib bo'lmaydi. Vaqti kelgan bo'lsa, bu safar ham to'xtatish qo'lingdan kelmaydi. Odatda ishlari hech yo'lida ketmagan bir odamni xayol qil: doim samolyotga yoki avtobusga kechikkan bir inson... Ammo ajali yetsa, yolg'iz o'zi bo'lsa ham, o'sha avtobusga yoki samolyotga, albatta, chiqadi. Sen aytgan narsalar menga ham begona emas. Ba'zan tushunilishning imkoni bo'lmay qoladi. Dunyoga eng kuchsiz holing bilan kelasan va keyin esa ishonadigan aniq bir narsang ham bo'lmaydi. Inson o'zining atrofida qilargalarga istar-istamas taqlid qiladi. Ba'zilar kiprigimi ham qimirlatmasdan eng go'zal narsalarga ega chiqadi. Go'yo biz ham ular yoqtirmagan va ortiqcha degan narsalari bilan yashab o'tib ketamiz. Xuddi eng yaxshi narsalar ularda, eng yaxshi uylar, eng chiroyli kiyimlar ularda bo'lgandek... Ehtimol, shundaydir, balki, unday emasdir. Biroq biz kamchiliklarimizni to'ldirish uchun o'zaro kurashamiz. Men bundan sira ranjimadim. Tirnoqlarim bilan qazidim, qazidim va deyarli dunyoning markaziga qadar tushdim. Charchadimmi? Albatta... Juda ham charchadim. Ko'p vaqtlar axlatga uloqtirgan



olcha sharbatingdek his etdim o'zimni. Meni ham xohlashmadi. Hatto onam meni xohlamaganligi uchun abort qildirishga borgan, ammo kech qolgan ekan. Oilamizda oltinchi qizman. To'g'rirog'i, dadamning oltinchi umidsizligiman. Shuncha naslsizning ichida otamning avlodini davom ettirmaganligim uchun naslsizlarning eng oxirgisi men bo'ldim. Ammo chekinmadim. Hech kimdan yordam ham kutmadim... Sevgiga kelsak, bir vaqtlar topdim deb o'ylagandim, lekin adashdim. Zotan, sevgi topilmaydi. Sevgining o'zi seni topadi. Qolganlari manfaatli munosabatlar kabidir. Doim yo'qolib qolish ehtimoli bo'lgan igna kabi sergak yashaysan.

— Haqiqatan ham, hayot bir qarasang, Pinokkioni o'tin bilan savalashga o'xshaydi, — dedim. — Ham o'tinning, ham Pinokkioning joni og'riydi. Chunki inson ham xuddi shunday. Faqat o'ziga oid parchalar bilan hayotning qarshisida yengiladi va dard chekadi. Bir begona inson kelib, mening zaif nuqtalarimni qayerdan biladi, men o'zim unga ko'rsatmasam? Gap shundaki, kimdir keladi, o'z qalbim bilan meni yaralaydi va uning qalbiga hech narsa bo'lmaydi... Balki, uning o'sha qalbi ham yo'qdir, kim biladi? Ammo bularni ko'rmaymiz, ko'rishni xohlamaymiz yoki... Olcha suvini yoki chirigan olcha rangini



sevmasligimning aniq bir sababi yo'q. To'g'ri kelgan biror narsaga zarar bermoq va tishlamoq istadim. Va ularni tanladim, bor-yo'g'i shu. Mendan boshqalarning joni og'risin dedim... Qanchalar g'alatiman, shunday emasmi?

— Inson o'z ruhiga yana bir ruh qo'sholmaydi. Lekin turib, boshqasining ruhini olib qo'yishi mumkin. Sababi oddiy: hamma ham biroz shafqatsiz va g'alati. Hozir senga bir imkon bersam, ruhimga yana bir ruh puflarmiding? Yoki qo'linga bir imkon tegdi deya meni xuddi shu yerda o'ldirmoqni istaysanmi? Sen o'zingga qanchalik to'g'risan? Men o'zimga qanchalik to'g'riman?

— Doim insonlarga jahl qildim. Ularga dedimki: "Men sizlarning bezovtaligingizman. Og'rigan me'dangiz, ko'tara olmagan mag'lubi-yatingiz. Haromi emas, o'taketgan haromiman men. Ichida yo'qolgan o'sha katta shahringiz menman. Uzoqlarning ishqqa doxil bo'lgan qismiman. Kir va badbo'y bir daraman. Qorong'ulikning cho'ka boshlagan o'sha ilk daqiqalari menman. Umidsizlik bor deya nido etgan va soxta umidsizliklarimizni so'kkan menman. Bulutlarni siqib, yomg'ir yog'ishiga mone'lik qilgan menman. O'pib, ko'zingizga surtishga jirkanganingiz — mog'orlagan non menman... Men bo'lmasam, mendan boshqa voz kechadigan hech narsangiz



yo‘q! Derazalaringizga parda deya tortganingiz ham mening etim... Qobilning ilk jinoyatda qo‘llagan la‘nati tosh parchasining la‘natini yelkamda ko‘tarib yuribman... Dardning ayni o‘rtasida nafasini tutgan va o‘lim labida yashagan menman”.

— Bunchalar g‘azab bilan qayergacha bora olasan? Chindan ham, hozir sen qayerga, kim uchun ketyapsan? Bu avtobusda nima ishing bor?

— Qaysi shaharga ketayotganimni bilaman, ammo qayerga ketayotganimni bilmayman. Bir jomadonim yoki yetarli kiyimim ham yo‘q. Orqamga qayrilib qaramasdan yo‘lga chiqdim xolos.

— Ya‘ni g‘oyib bo‘lding?

— Hech kim uchun g‘oyib bo‘lmaganman. Hech qachon g‘oyib deb hisoblanmaganman ham. Juda oson voz kechildim. Biroz avval ham aytgandim.

— Insonning eng katta aybi o‘z kamchiligi-ning farqiga bormasligidir. Kim biladi, balki, kun kelib, chirigan olcha bilan ham yarashib olarsan? Qarasang-chi, olcha sharbatini axlatga tashlabsan, ammo olchali pirog hali ham turibdi.

— To‘g‘risi, olcha sharbati bilan oramizda biron xusumat yo‘q. Rosti, olcha sharbati mening bu harakatimdan chindan ham xafa bo‘lgan deb o‘ylamayman.



— Tushunishimcha, yaxshi tomonga o'zgar-
maslik, oldinga qadam tashlamaslik uchun qay-
sarlik qilyapsan?

— Stansiyaga borganimizda qo'lingdan tutib,
sen bilan keta olaman. Mana shudir mening
o'zgarishim.

— Tirnoqlarimdagi chirigan olcha rangli
bo'yog'imga qaramasdanmi?

— Yolg'izman.

— Tanlovlarning eng oson tanlanadigan to-
moni emasman!

— Soat olti yarim bo'libdi.

— Ya'ni?

— Shu soatda nonushta qiladigan bir joy topa
olamizmi?

— Shu soatda qo'lini tutadigan ayol topgan
bo'lsang, choy va kulcha non bilan hal qilsang
bo'ladi deb o'ylayman.

— Sigaret ham chekamizmi?

— Tamaki va eski chaqmoqlardan bor menda.

— Yaxshi. Yozda sovqotganmisan hech?

— Mavsumga, oylarga e'tibor berma, erkak.
O'zicha g'ururli bo'lgan har qanday yolg'izlik
sovuqdir.

— Choylar ingichka belli idishlarda bo'lsin,
hech bo'lmasa.

— Shu chirigan olcha rangli bo'yoqlarni ay-



taman...

Aslida, muammo yo'q. Ya'ni shunday qilmasa, bemaolol yashab ketaman... Biroq juda chiroyli kuladi...

Xuddi "Allohini sevgan mudofaaga kelsin!" — degandek... "Ikki luqmagina menga ham qoldirsaydingiz, vijdonsizlar!" — degandek... Sadri Alishikning yig'laganidek... Turkan Soray bilan Qodir Inanir kabi ...

Jin ursin, juda go'zal kuladi!

KAPITALIZM

Atrofingga qaraganingda ko'rasan: "Gullarni yoqtirmayman", — degan ayollarning soni oshdi. Hayvonlarni sevishga o'rganganligi uchun endi mushuklarni ko'proq sevgan — aslida sevgining odamona shakli go'zaldir. Qimmatbaho sumkalari va oyoq kiyimlari bo'lgan yoki mashhurlar bozoridan kiyinib, "Malika" ekanligini iddao etgan, ammo baxtsiz, kaltaklangan, o'ldirilgan bir qancha ayol bor. Aqlidan, hislaridan ko'proq vujudini o'ylagan, bu orqali o'zini ko'rsatishga harakat qilganlar ham bor... Va bir necha odam bor, "Telbalarcha oshiq ekanligini" aytgan. "Birodar, ishq nima?" — desang, javob berganlari ham bir-necha idish aroqning tubiga yetganidan keyin futbol muhabbatiga aylanishadi.



Aytgancha, o'tgan yili vafot etganlar ko'p bo'ldi. Masalan, Neshet Ertash ketdi. Qarindoshim o'lganida bunday xafa bo'lmasdim. Va bilmadim necha yil bo'ldi, hali ham Yevropa Ittifoqiga kirishga harakat qilmoqdamiz. Ko'rdingizmi, sevmaganim uchun kichik harflar bilan yozayapman, "yevropa ittifoqi" deya.

Esimdan chiqmasidan aytay, o'tgan kuni bir surat ko'rdim, unda "Kapitalizm ishqni o'ldiradi", deb yozilgandi. "Qanchalar haq gap ekan!" — dedim. Shundoq cho'ntagimga boqib, qattiq uf tortdim. Nima ham qilardik... Hayot shunchalar bema'nilashib ketgan... Aylanib-aylanib, gapni yana senga olib kelishim kerak, bilasan. Bu safar gapni cho'zmayman. Nihoyasi ham qanday tuga-sa, tugasin...

Seni juda sevaman.

PIRAYE

Ko'p gapirish tarafdori emasman. Qaytib insonlarni tinglashni ham istamayman. So'zlarni qadrlamayman. Bir qog'oz parchasida yoki biror devorda yozilgan bo'lib, ovozlariga aralashmagan so'zlarga... Zero shuncha vaqt ichida bo'lmaydi deyilgan ko'p narsaning bo'lganini ko'rdim. Yolg'onni ko'rdim... Tuganmas deyilgan ko'p narsaning tugaganini, tugamagan taqdirda ham



ozayganini ko'rdim. Kecha do'st-u qadrdonim bo'lganlarning bugun yo'qolib qolganligiga shohid bo'ldim. Shunchaki kuldim ...

Va bilasanmi, bo'lib o'tganlarning hammasini diqqat bilan kuzatdim. Badanimdan izlarini aslo aritmadim, qalbinga dog' tushirmadim, hech kimga kin saqlamadim. Ko'p kunlarni sening mendagi qadringga yanayam qadr qo'shganliklari uchun tashakkur aytib o'tkazdim. Men hech narsa qilmadim, sening farqingni shundoqqina ular ko'rsatib qo'ydilar.

...

Bilasan, ba'zi narsalar yolg'iz xotirlanmaydi. Istanbul va Fotih kabi. Nozim va Piraye kabi... Yoki eng oddiysi, qahva va yonida keltiriladigan suv kabi... "Bo'lmasa, bo'lmas", — deyilmaydi. Bular doim bir-birini tamomlaydi, bir-birlariga maza beradilar... Tushuntira olyapmanmi?

Horg'inligim, charchog'im aslo yo'q. Ongli bir soddalik ichidaman. Shunchaki bir kishining yetti milliard insondan ham ko'p joy egallaganini tushuntirib beryapman. Shuning uchun duch kelgan bir kishi menga: "Men ham yetti milliardning ichidamanmi?" — deb so'ramaydi.

Hammaga qarshi ikkimiz... Ikkimizga qarshi hamma... Menga qarshi sen... Ko'zlaringga qarshi men... Nima deysan?



— Tasodif deb hisoblayman, kichik xonim, meni va qilgan ishlarimni aslo qasddan deb o'ylamang... Ko'zlaringizga ichdan shunday termulgan bo'lsam, qo'llaringizni tutgan bo'lsam va dudoqlaringizdan ruxsatsiz, ikkilanishsiz, uzoq o'psam va hatto sizni xafa qilgan bo'lsam, faqatgina tasodif deb bilaman, kichik xonim.

Shunchalik go'zalsizki, albatta, mening boshimga kelishingiz kerak.

FARQ

Shuning uchun ham bir kishini kutganing uchun seni g'urursiz deb bilishlari mumkin. Necha marta tugasa ham, har safar yangidan boshlash uchun harakat qilib, voz kecholmaganliging uchun boshqalar tarafidan oddiy so'zlar bilan atalishing mumkin. Qilgan ishlarini hech narsa bilan izohlay olmasliging mumkin. Kamsituvchi ko'zlar bilan boqib, seni hech qayerga sig'dirishni istamaslar. Hammaning orasida bir farqning farqli bir parchasi kabi turasan...

Biroq bo'sh kelmaysan ... Uzoq-uzoq gapirganlariga boshingni egmasdan qisqa so'zlar bilan javob berasan. Sevaman. Sababsiz, kutishlarsiz...



BOG'

Qalbimning tubiga egilib boqding va o'sha on bo'yiningni ko'rdim. Tush kabi edi, ammo tun emas edi. Yelkangning bir uchidan boshqasigacha yetib borishim dunyoning bir uchidan boshqa uchiga ketadiganchalik vaqt oladi deb o'ylagandim.

Shunday bo'ldi ham. Yer yuzining eng moviy, eng chuqur, kishi boshiga tushgan inson hisobining eng tanho bo'lgan joyi edi. Kecha va kunduz eshitdi. Hech kimning iziga duch kelmadim, menga oid izlarimni o'pib o'chirdim.

Qara, xatoning eng kattasini qanday so-dir etdim! Kuppa-kunduz kuni ayol kishining yelkasidan o'piladimi? Hozir "Shunday go'zal bir ayol qalbimning ichiga egilib boqdi", — desam, menga hech kim ishonmaydi. Ammo yaxshi bo'ldi izlarini o'chirganim...



AYOL





YAKUN

Bir ayolni birinchi bor sevgandim. Ko'ksimda bo'ldi, qasam ichaman. Qolishni istadi, ammo bir odamning ko'ksida siqilib qolmoq qo'rqinchlidir. Ba'zida zulmatdir. Axir zulmat chechaklarni o'ldiradi. Yomon bo'ldi... Bo'g'ildi, nafas ololmadi. Ichimga oldim, yo'q bo'ldi. Qo'limni uzatdim, barmoqlari chiridi. So'ng ifori o'tdi, nafratlandi o'z iforidan... Ichimda bir eshik ham yo'q edi. Deraza ham yo'q edi... Ammo oyoqlarimni berdi. Ko'zlarimni ham, quloqlarimni ham berdim. Boshqa hech narsani eshitmadim, ko'rmadim, hidlamadim ... Yetmadi, baribir o'ldi ayol...

U yuzimga boqib: "Bilasanmi; namozshomgul ham qorong'ida ochiladi, ammo ochilarkan, hech kim uning yaproqlaridan chiqqan saslarni eshitmaydi. Aslida, bu bir tomning yiqilishi kabidir. Bir iforga muhtalo bo'l va uning rangini o'zing tanla, erkak", — degan edi so'nggi kecha...

Va tushlar tugagan edi, anglagandim. Qora edi, yakshanba kuni edi... "Tanlamayman", — deya baqirgandim ortidan va ortiga o'girilib, kulganini xotirlayman. U ketar ekan, ko'ksim chok-chokidan ayrilgandi. Boshimdan oyoqlarimga qadar yirtilgandi badanim...

So'ndi, bo'lmadi boshqa.



Bir ayol hamma narsaga qarshi bo'lgani holda sizni tashlab ketmasa va ichingizni kulgisi bilan parchalarga ayira olsa, uni quching va qalbidan o'ping.

TARTIB

Kuchli ayollardan gapirasiz. Nima qilasiz ularni? O'tin tashiydimi? Oldinma-ketin o'n dona bola tug'dirasizmi? Yig'lamaydimi ayol zoti? Tiz-zangda yotmasmi? Biroz o'tkirlashganda to'mtoq qilmoq uchun yorqin tabassum qilgan ayollar o'rniga kuchli ayollarni xohlaysiz... Yuzingizga boqishga uyalgan, oshxonada va yotoqda mahoratli ayollarni xayol qilasiz: osmonga qarab yotib, dunyoni kuzatmoq uchun...

Nima qilasiz? Erkakligingiz iznida va davomli jilovingizda bir tosh parchasi kabi turadimi? Kuchli ayollarni xohlaysiz, ayolning ichidagi kuchni bilmasdan, o'sha kuchni uyg'otganingizda nimalar bo'lishini anglamasdan turib! Qolaversa, huzurning yonida kuch nima bo'libdi?

Biz kuchni qo'ya turaylik, huzurim... Bir sabab topamiz: shuncha vaqtdan so'ng quechoqlashmoq uchun. Kel, yig'laymiz birga.



TIRNOQ

Hech yodimdan chiqmaydi: 5-noyabr edi. U vaqtlarda ayollarning ba'zi narsalarni tirnoq ichida aytishlarini bilmasdim. Hatto ba'zi quchishlari ham tirnoq ichida bo'larmish, o'shanda bilib olgandim... O'shanda men yana ko'p gapirar edim. Deyarli uning gapirishiga izn bermaydiganchalik ko'p gapirardim.

— Seni sevaman, — der edim, yig'lardi ayol...

— Nega yig'laysan, — deya so'radim.

— Ayollar xursandchilikdan yig'laydilar. Sevinchdan, sog'inchdan yig'laydi ayollar! — dedi.

Kulib yuborgandim. Nega kulayotganimni bilmay turib kulardim. U esa yana yig'lay boshladi. Meni quchoqladi va qulog'imga:

— Inson ko'z o'ngida o'ladigan bo'lsa, ayollar ham yig'laydi, — dedi.

Yuzimga ko'zlarining issiqligi o'tgan edi. Bir tomondan esa "Sovqotasan", — deya paltomning oldini yopar, sharfimni bo'ynimga mahkam bog'lardi... Noyabr edi. Anqarada edik... Hech unutmayman: birinchi bor o'lganimni his qildim. Uning ham qo'llari o'lar edi... Chunki xafa bo'lgan edi va ortiq qalbiga botgan bir suyak kabi edim.

— Sevaman! — der edim, yig'lardi ayol. Bilardim: ayollar sevinganida yig'lashadi... Ketga-



nida, sog'inganida, jim bo'lganida va odam o'lganida... Yig'laydi ayollar...

Men ham shundan bilgan edim: meni qanchalik sevganini... Bir ayol erkakning qo'lidan o'psa, bu ishi o'sha odamni juda sevadi degani ekan... Ayol ketsa ham, aslo unutmas emish.

Ba'zi ayollarning dengizda bordir qirg'oqlari ...

Ua, albatta, savalar odamni to'lqinlari.





QOR

Yana kulayotgandir, ammo ko'zlaringizga boqmasdan. Yana kulayotgandir, ammo tana-si chirigan daraxt kabi hissizdir... Keyin jumla-lari sekin-asta qisqarar. Avvallari ko'p gapirgan gaplarini endi kamdan kam gapira boshlaydi. Chunki xafa bo'lgan. Xafa bo'lgan va siz uning yuzingizga boqmagan vaqtlaringizda u: "Kech bo'lmasidan meni angla!", — degandek sizning yuzingizga boqadi...

Ko'zlari doim namlidir. Kechasi yonida hech kim yo'q ekan, qanday yig'laganini istamay-ista-may xayoliga keltiradi... Va xafagarchiligi bir qat ortadi shu tariqa!

...

Mavsumdan qat'i nazar endi qo'llari sovqota-di. Qo'llari juda sovqota boshlaydi, biroq buni sizga sezdirmaydi. Siz ham bunga ahamiyat ber-maysiz, anglamaysiz. Shundayki, qo'llarini un-ing badanida izlasangiz ham, topolmaysiz endi... Chunki tugaydi. Unutadi, sog'inmaydi, g'avg'o ko'tarmaydi, rashk qilmaydi... Bundan buyon "Ovozingga qurbon bo'laman!" — degan ovozin-gizni eshitishni xohlamaydi...

Sizga bir ayolning qanday voz kechishini aytib berdim.



YOMON KAYFIYAT

Atrofimda ezilgan ayollarni ko'rgach, o'zimga bo'lgan g'azabim ortib bormoqda. Borgan sari yomonlashmoqdaman va o'zimga o'zim chidolmayapman. Endi sen bilan birga bo'lolmaslik bir tomonda yoki sen ham ular kabi bo'lsang? Ishonchini yo'qotgan, xafa bo'lgan, uyqusiz va o'zingni tushuntirish uchun hech tanimagan bir odaming bilan suhbatlashishni xohlayotgan bo'lsang... Inson qo'lidan kelgunicha shiddatli yashamoqqa harakat qilar ekan, yashaganlaridan ham ziyoda qanchalik ko'p narsaga kech qoladi, buning farqiga boryapman.

O'zimni sira aqli kirmaydigan odam kabi his etyapman. Shunday yo'llarni bosib o'tishga jasoratim bor, biroq sen bilan yura olmasligimni bilaman. Hamma narsa yonimdan tezlikda uzoqlashmoqda va men turgan joyimda deysinib turgandekman. Sen ham ketmoqdasan. Bu barqarorlik, aslida, mening ichimdagi alg'ov-dalg'ovlikni yashirish uchun urinishimdan boshqa narsa emas. Qanchalar oldinga chiqsam, shunchalar e'tibor tortaman. Hali ham sening bir parchang bo'lgan ko'zlar senga talpinajak va men bunday bo'lishini ham istamayman...

Ko'p narsa tugagan. Men ham duch kelgan bir insonga sig'inmoqdan qo'rqaman. Chunki har bir



kimsa yolg'izlikka chiday olmaganida nimaga-dir sig'inishni istaydi. Va tanlovlaring qanchalar oson bo'lsa, sarflagan vaqting ham shunchalik uvol ketadi. Shu tariqa kechmish ham o'ladi...

X

Jahannamga qarata oyoqlarini ochib, bir si-gara yoqdi va bir necha shayton: "Juda issiq!" — deya yugurib ayolning ichidan qochdi... So'ngra xayoliga birinchi kelganini qilib, ko'ksini qo'por-di va ustara bilan parchalarga ayirib, odamlarga bo'lib berdi. Egilganida ko'ksidagi yoriqni qay-ta ko'rsata olmadi. Bu bilan chegaralanmadi va otasidan meros qolgan boshidagi binafshalarni bir chekkaga uloqtirib, simli to'rdan bir toj taqdi boshiga... Afrikaning eng qora olmasini o'z puli-ga olib, uzukni o'tkazdi barmog'iga. Ko'z yosh-larini kaftining orqasi bilan artdi va biroz avval qo'porib, ustara bilan parchalarga ayirgan ko'ksidan oqqan sutni odamlarning qanchalik ishtaha bilan ichganini ko'rib, tarixdagi eng hay-batli so'kishni ishlatdi.

"Ajabo?" — deya o'tkazdi xayolidan ayol... So'ngra biroz avval ichidan o'tgan ajabo kalimasi-ning ham o'zini tahqirlagani haqida o'yladi, ammo unchalik ahamiyat bermadi. "Qarasang-chi, har holda tilimizning bir o'yini bo'lsa kerak", — deya



tinchlantirdi o'zini. Aslida, ba'zi narsalarni tushunib yetgan har bir ayolning boshiga tushgan narsa uning ham boshiga tushmasligi andishasini ko'nglidan o'tkazmagandi. Qo'rqmasdi ham. Savol berishni yoki o'zini ikkilantirib qo'yadigan bir vaziyatning mavjud emasligini juda yaxshi bilar edi. Bir et parchasi edi... Dunyoning eng arzon eti... Kezi kelganda bir necha qo'ydan ham arzon... Go'sht inqirozi... Bojxona to'lovi. Qo'shimcha qiymat solig'i... Kirim solig'i... Soliqning solig'i...

So'ngra yana ichidan bir fikr o'tkazadigan bo'ldi, ammo bunga ham izn bermasdan bu fikrdan ham muvaffaqiyatli ravishda qutildi. Balki, aqlini ishga solib: "O'z qotilini dunyoga keltirgan yagona jonzot ekanligini" xotirlagan edi...

Bilmayman... Biroz avval xayolimda jonlantirgan va ortiq ko'kraklari bo'lmagan ayolning nega boshqa narsalarni o'ylab ko'rmaganligini, haqiqatan ham, bilmayman... Agar bir ayol bo'lsaydim (bu erkaklik jasoratimning ham qo'rqqan narsasidir), bir ayol bo'lmoq... Oh, sizning shu shaharni yangilash natijasi bo'lgan samimiyatsizligingizni deya hech kimga ishonmaydigan va jamoat uy-joy boshqarmasi qurgan binolarning poydevorlaridagi yoriqlar kabi yuzimda kattakon bir nuqson sinig'i bilan yurardim. Kulmas, yig'lama...



qo'shiq kuylamas, bola dunyoga keltirmas va X xromosomasining menga bergan zehniyati bilan bu hayotga ortiq bardosh bera olmasdim...

Ko'priklar... O'lish uchun duo qilgan ayollar, o'ldirilgan ayollar, yoshgina kelinlar, mohir zo'ra-vonlar bilan sevishgan ayollar, johilning zo'ra-vonligi bilan sevishgan ayollar, yigirma yildirki Istanbulda yashab, dengiz ko'rmagan ayollar, o'z irodasi bilan dengiz qirg'og'iga kelib, bo'g'ozning salqin suvlariga o'zini tashlamoq istagan ayol-lar, qishloqdan bir qadam tashqariga chiqqanida dunyoning chegarasiz ekanligini his etgan, biroq erkaklarning tikanli simlar kabi atrofini o'rab ol-ganligini bilgan ayollar va oldimizda chipqon deya ko'tarib yurganimiz — et parchasiga ishonib o'zimizni “Barokat Tangrisi” — deb hisoblagan biz erkaklarni dunyoga keltirgan ayollar...

Aybga buyurmang, ayollar... Bundan ortiq siz bilan bitta orbitada qoladigan kuchga sohib emas-man. Va misollar ko'paygunicha insonligimning ozayganligini his qilmoqdaman. Shu sababdan X xromosomasining ko'z haqqi naqadar qo'rqinchli ekanini bilib, jim bo'laman va cho'ntagimda olib yurgan har bir she'rni sizlarga tashlab ketaman.



QARSHI

Senga shunday uzun, beparvo, imlosiz qurollarga qarshi sevgimni, nafratimni — hammasini bir joyga to'plab, hech birining ichida tarqalmagan, yakunini o'qiganingda eng boshida so'z yuritganlarimni eslolmasliging, "Qanchalik ahmoqona va bema'ni bo'libdi", — deydiganing, keragidan ortiq keraksiz uzun sitam to'la xayoliy kelishi go'zaldir, balki, bir qanchasi sarxush, tegsang yiqiladigan, teginmasang, sen bilan ishi bo'lmaydigan ko'p narsa haqida aytib berib, faqatgina sening "Bilaman", — deb o'ylashingni, ammo, aslida, hech narsadan xabaring yo'qligini yuzingga uradigan g'alati, g'ayriqonuniy, adabsiz so'zlar olomoni bo'lar ekanman, ayni vaqtda jim va jim bo'larkanman, so'kingan, so'kinar ekanman, yig'lagan, seni sog'ingan, seni unutishni xohlar ekanman, yanayam ko'proq xotirlatgan ma'no ma'nosiz bo'lganligidek mazmunga ega bo'lmagan yomg'ir dona-dona va qor yoqqan yoki aralash barcha fasllarning bir joyda to'plangani, ammo doim yoz ifori chiqqan bir ayriliqdan so'z yuritmoqni xohlayman, istayman. Yetarlicha bema'ni bo'lgandir, baribir, ma'nosini tushunmay-san.



Kunlar aylanmoqda, bahor qaytmoqda...
Va men bahorda seni yanayam ko'p sevaman,
yanayam ko'p sog'inaman...

Aytadiganim shuki, *"Tonglarda gonimda uyg'on"*.

Xayolimga doim shu soatda kelasan...

Mana shu soatda: biroz avval, hozir, biroz
keyin...

Doim shu soatda.

Hamma ham kun kelib, biroz jarohatlana-
di...

Hamma ham hech kutmagan joyidan pand
yeydi.

"Men hammi?" — dema...

Sen ham.

Seni quchmoq,

Qushlar kabi, moviy osmon kabi, bola kabi



yoki o'lim kabi...

Nima bo'lsa ham, qanday bo'lsa ham, seni quchmoq.

Umrim osmon peshtoqida turgan bir tomchi yomg'irdek.

Meni bag'ringga bos, shuncha yil seni kutdim.

"Makham".

Sendan uzoqda ekanman, shunchalar zolimdir bu kalima, shunchalar g'addor...

Mendan ko'ksimdagi og'riqlarni ol.

Bularning barisi o'tib ketadi. Gapirganlar jim bo'ladi, bolalar ulg'ayadi, qo'shiqlar eskiradi, uchrashmog'imiz uchun hali ko'p narsa yarata-dilar. Qolaversa, o'lsak ham, ikkimiz qolamiz. Va men har zamon ikkidan yetti milliardni chiqartiraman, xavotirlanma.

U yerda bo'lmaylik. Chunki ovozingda osmon yuzi bor. Chunki toshning orasida oqqan suvman. Chunki yakka bug'doy donasiman va ovozing, ovozimning tegirmoni...

Jonim, inson ba'zida nima deyishini bilolmaydi.

Mana, nima uchun quchoqlashish bor.

Hozir shu qadar sog'ingan va borligingga ehtiyoj tuyar ekanman, kelsang, *"Yaxshimisan?"* — deya so'rasang, qanday ekanligimni aytib o'tir.



digan toqatim yo'q...

Ammo bil, bag'rimga bosaman yana. Yuragingni yuragimga bosib, nafasingni ichimga olgunga qadar bag'rimga bosaman. Gaplashadigan hech narsa yo'q, sevgilim, toqatim ham yo'q. Faqat bag'rimga bosaman.

Men senga: "Osmon yuzini bo'yaylik, suvning oqishini o'zgartiraylik, titramaylik, janjallashmaylik yoki hamma narsa juda chiroyli bo'lsin!" — deyayotganim yo'q.

Nima bo'lsa, takror boshdan kechirilgan yoxud kechirilmagan, jin ursin, qo'llarimdan tut... Sen bilan bo'lsin.

Gapiriladigan ko'p narsa bo'lgani holda jim bo'lmoq yolg'izlikning eng og'riqli holidir.

Qonim, jonim va bo'lagim mening. Bu nafas sovimas senga. Va bu nafas hattoki ilimas boshqasiga.

Qadrsiz odamlarning qiymatsiz hikoyalari qiziqitirmaydi meni. Pastkash, samimiyatsiz va o'zidan bexabarlarini hech qachon yoqtirmadim... Men ularni o'chirgunimcha ular yanayam ko'p ifloslandilar!

Va xayolimga ilk yozganim shu edi:

"Egri bo'lgan odam oyoqqa turish uchun to'g'ri insonga yopishadi".



Unutmadim!

Yo'qliging barcha kechalarning ketma-ket kelishi kabidir.

Ko'ksimga bosh qo'y. Bu uzun zulmat tugasi ortiq.

Ba'zi vaqtlarda yanayam tegmanozik bo'li qoladi inson. Yanayam dardli, yanayam jahldor, yanayam nozik, yanayam xomush, yanayam zulmat... Soyamdan ham torting qo'llaringizmi.

Sen meni bag'ringa bosmagan vaqt ichra eng ko'p sirtimdagi zulmatdan qo'rqaman.

Men qaragan uzoq-uzoqlarga ular bir qadar otmayin ketdilar.

Shunday oson topdilar sevganlarini, shunda oson sarf etdilar so'ngra.

Yana duom:

"Alloh unringa umrini qovushtirsin".

O'p, hidla va bag'ringga bos. Mening yuzim boq.

So'ngra ketadigan qancha joy bo'lsa, ayt menga.

Ko'p vaqt o'tgandan keyin og'riqlarinchuchasan.

Ba'zi narsalar qayta yashalmaydi, yangilar maydi.



Sentyabrda ilk yaproq mendan to'kiladi.

Qo'llarim yetmay qolsa ham, qalbidan yana
bir qo'l chiqmasmidi seni ko'rganimda?

Xavotirli sog'ingan...

Seni quchmoq uchun.

Sen kutilmaganda duch kelgan muhtasham
bir haqiqatning muhtasham yuzisan.

Muqarrarki, boshga kelgan.

Meni bilasan,

Ichimdagi sokinlik uyg'onmas boshqasiga...

Sog'inchingni ham, hech kimsaning borligiga
alishmam.

Boshqa kimsaning qalbidni uyishiga ham izn
bermayman.

O'z ovozidan yona boshlaydi inson, ammo su-
kut saqlash ham sovitmaydi ortiq ichimni.

"Men senga ishongan edim!", — jumlasining singan
tarafini ortiq hech narsa bilan tuzata olmayman.

Ba'zi narsalarning ozi yetarli. Ozigina inson,
ozgina qorong'ilik, ozgina jimlik... Iltimos.



Hech kim hech kimning yuragini ko'tarib yurmasa ham, noloyiqlarcha yashashga harakat qiladi. "*Ba nohaqlik*", — deya jim bo'laman faqat.

Sukutning ham sukuti borligini angladim. Chegarasiz, chuqur va uzoqman hammadan. Qalbimni emas, ichimni tinglayman ortiq.

Hech kim hech kimni takror-takror adashtira olmaydi.

Ishonishni xohlaysiz va o'sha suyakni o'sha joyidan sindirasiz, bor-yo'g'i shu.

Yetishmayotganligini qo'yib turing, borligini ham payqamagan insonlarim bor... Ma'lum bir joyga qadar yurdim va to'xtadim. Nima bo'lishingizni ham bilaman, nima bo'lmasligingizni ham. Yo'lim yo'lingiz bilan, so'zim so'zingiz bilan kesishmas ortiq.

Kimdir sizni o'ldirmasidan oldin yaxshilab bilib oling: na inson insonga malham bo'ladi va na singan shox o'sha joyidan o'sib chiqadi...

Ba'zi qalblar yaralidir. Tuzalmaydi, hech bir ta'siri yo'qdir ortiq so'zlarning. Zulmat yaxshimi? Yo'q, albatta. Lekin nurni dushman deb belgilading bir karra.



Men sen uchun singan kafellar orasidan uyingga suzilib tushgan chirkin bir yomg'ir edim xolos, sevgilim...

O'rnini bilmagan, tushunmaganga ovozingizni va qalbingizni behuda ketkazmang.

Ba'zilar ni jim bo'lmoq yaxshi tarbiyalaydi.

“*Mana shuncha*”, — deya olmayman, xafaligim. “Shuning uchun” — deya olmayman. Hammadan, har narsadan yoki hech narsadan xafaman.

Dunyoning eng qiyin hodisasi sira his qilma-gan odaming bilan umr o'tkazmoq... Va undan ham qiyini “*Mana shu!*” — deganingning necha mar-talab seni tashlab ketishi...

Barcha g'avg'olarim ovozingga yaqin joyda uxlamoq uchun.

Hisoblar tenglashsin ortiq. Qo'porilsin, sinsin, yoyilsin asoslar. Bunday yarim, bunday bechora yashamoq hech kimning taqdiri bo'lmasligi kerak.



Harakatingizga yarasha toliqasiz, toliqqaningizga yarasha voz kechasiz. Taslim bo'ldim, to'g'risi, umidim yo'q. "*Pushaymon bo'ldim*", — demayman, ammo haqligim bilan ham ishim yo'q.

Bu hol yana qanday ta'riflanadi?

Har yonim tarqoq bir o'lim.

Qayerdan boshlasam ham, yakunim sensan....

Sizning urishingiz uchun orqamni o'girmayman. Lekin yuzingizni ko'rishga, ovozingizni eshitishga ortiq toqatim yo'q. Shukrlar bo'lsin, sizni unuttirmagan Allohimga.

"*Arzimaydi*", — derlar yong'inni uzoqdan kuzatganlar.

Va bu hayotning menga o'rgatgan bir narsasi bor, sevgilim:

Inson hech narsa uchun kech qolmaydi,
Faqatgina qo'rqadi xolos.

Aytmaslik jim bo'lish emasdir ba'zan.

Ovozing yaxshigina qonagandir, ado bo'lgandir.

Beparvo va e'tiborsiz munosabatlaringiz meni



shu ko'yga soldi... Sizdan eshitgan har bir ovozim menga dunyoning eng adolatsiz yeri, albatta, insonlar birga yashagan yerlar ekanligini o'rgatdi... Tanho bo'lgan va yolg'iz qolgan yagona joy o'z ichim ekan, qaytib ichimdan nimadir kehshini kutmang.

Meni yashaydigan holga keltirgan yagona narsa — sening ovozing.

TAMOM

[illegible]

[illegible]

[illegible]

[illegible]

[illegible]

[illegible]

This image shows a single page from a notebook or ledger. It features approximately 20 evenly spaced horizontal blue lines across its entire width. The margins are uniform on all sides, and there is no handwriting or printed text visible on the page.

[illegible]

This image shows a single sheet of white paper with horizontal ruling lines. The lines are evenly spaced and run across the width of the page. There is no text or other markings on the paper.

[illegible]

[illegible]

[illegible]

Adabiy-badiiy nashr

HALIS KARABENLI

HAYOLIMDA GO‘ZAL QOL

Nashrga tayyorlovchilar
Bo‘riev Faxriddin

Mas‘ul muharrir
Akmal Qo‘chqorov

Badiiy muharrir:
Qobil Zukurov

Iqtiboslar va izohlarni tayyorlovchi:
Javoxir Raxmatov

Musahhih:
Umida Xudoyberdiyeva

Dizayner:
Feruzbek Voxidov

Litsenziya raqami AI № 274. 15.07.2015 yilda berilgan.

Bosishga 16.04.2022 yilda ruxsat etildi.
Bichimi 84/108 1/32.

Bosma tobog‘i 7 Shartli bosma tobog‘i 10
Garnitura “Times New Roman” offset qog‘ozi.
Adadi 3 000 nusxa. Buyurtma № 35
Bahosi kelishilgan narxda.

“Ilm-Ziyo-Zakovat” nashryoti buyurtmasi asosida tayyorlandi.
Manzil: Toshkent, Shayxontohur tumani, Abdulla Qodiriy 78 uy.

“BOOK MEDIA PLUS” xususiy korxonasida tayyorlandi.
Manzil: Toshkent, Chilonzor tumani, Cho‘pon ota ko‘chasi, 28 A.



Halis Karab

Qadrli kitobxon!

Qo'lingizdagi kitobni mutolaa qilar ekansiz, go'yoki qahramon tilidan aytilayotgan so'zlar sizga bema'nidek, tuturiqsiz, jumllalar o'rtasida bog'liqlik yo'qdek bo'lib tuyuladi. Ammo unday emas, asar qahramoni ham siz-u bizdek atrofimizda yashayotgan bir inson. Biroq u ichidagi dardlarini, ichki kechinmalarini ro'y-rost, boricha- aqliga, xayoliga nima kelsa, shularni o'z holicha tashqariga chiqaradigan, "Odamlar nima der ekan", deya andishaga borib o'tirmaydigan bir "surbet", ammo tom ma'nodagi bir oshiq. Oshiqlik shu qadarki, shoir aytganidek, ham boshga g'am, ham ko'zga nam keltirur. Axir ishq oshiqni ne ko'yga solishini oshiqlargina tushunadi. Zotan, asar qahramoni aytmoqchiki: "Sevgi biroz kurashmoq va o'rni kelganida yaralamoqdir!" Ha, qahramonimiz ham sevgida yaralangan bir telba. Shu bois uning gap-so'zlari sizga telbanamo bo'lib tuyulaveradi.

Aminmizki, asarni mutolaa qilish jarayonida siz ham qahramon-dek oshiq bo'lasiz, sevasiz-sevilasiz, o'rni kelsa, telba bo'lasiz. Axir ishq o'zingdan voz kechmoq emasmi?!'

Qara, yana qaytmoqda qushlar.

Qanoti singanni kutmishlar...

ISBN 978-9943-800



9 789943 8002